

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Bekmuradova Zebiniso Erkinovna

O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZMNING VOQELANISHI

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO'K: 811.512.133'42

KBK: 81.2(5O'z)+(4Fr)

B 14

Bekmuradova Zebiniso Erkinovna.

O'zbek va fransuz tillarida xiazmning voqelanishi [Matn]:
monografiya / Z.E. Bekmuradova. – Toshkent: Bookmany print, 2025.
– 130 b.

Mazkur monografiyada o'zbek va fransuz tillarida xiazmning voqelanishi qiyosiy asosda keng qamrovli tahlil etiladi. Tilshunoslikning eng muhim badiiy-uslubiy hodisalaridan biri bo'lgan xiazm, nafaqat so'z va gap qurilishidagi san'atkorona in'ikosni, balki matnning ichki ma'no qatlamlari va estetik ta'sirchanligini ham ifoda etuvchi vosita sifatida qaraladi. Monografiyada xiazmning obrazlilikni kuchaytirish, nutqning emotsional-ekspressiv qudratini oshirish va badiiy matnning mantiqiy simmetriyasini yaratishdagi vazifalari nazariy hamda amaliy materiallar asosida tahlil qilinadi. Mazkur monografik tadqiqot o'zbek va fransuz tilshunosligida xiazmning chuqurroq o'rganilishiga turtki bo'lib, qiyosiy adabiyotshunoslik, stilistika va tarjimashunoslik fanlari uchun yangi istiqbollar ochadi.

Mas'ul muharrir:

Abdi Mamatov – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Jamoliddin Yakubov – filologiya fanlari doktori, professor.

Zulxumor Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor.

*Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti Uslubiy Kengashi qarori bilan (2025-yil
30-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-06-845-4

© Bekmuradova Z.E., 2025.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

KIRISH

Jahon tilshunosligi turli tizimli tillarda yozilgan matnlarni chog'ishtirib o'rganishni taqozo etmoqda. Buning asosiy sababini tillar o'rtasidagi aloqalarning kun sayin takomillashayotganida ko'rish mumkin. Tillararo munosabatlar, ularning bir-biriga ta'sirini diaxron hamda sinxron aspektlar nuqtayi nazaridan ochib berish, o'zbek va fransuz tillari milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish tilshunoslik ravnaqiga keng yo'l ochadi. Tilshunoslikda til hodisalarining semantik-stilistik xususiyatlariga oid tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ularni tipologik jihatdan turli oilalarga mansub tillar bilan chog'ishtirish bugungi kunda ham sohaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida muayyan tilga xos xiazm hodisasini semantik-stilistik jihatdan tahlil qilish va uni o'zga qarindosh bo'lmagan til bilan chog'ishtirish, uning har ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash tilshunoslikning taraqqiy topishi hamda yangi terminlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Xiazm hodisasi tadqiqi ko'p yillar davomida tilshunoslarning o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Biroq hozirgi tilshunoslikda xiazmni tadqiq qilishga bo'lgan yondashuv ham, uning lingvistik maqomiga doir qarashlar ham xilma-xilligicha qolmoqda. Ayni shu jihatlarni inobatga olgan holda xiazm hodisasining semantik-stilistik xususiyatlarini chog'ishtirilayotgan tillardagi izomorfik va allomorfik jihatlarni o'rganish tilshunoslikning taraqqiyoti uchun dolzarblik kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida chet tillarni grammatik, leksikologik, frazeologik, lingvokulturologik jihatdan o'rganish, lingvistik vositalarning semantik, struktur, funksional, paradigmatic, sintagmatik kabi qator xususiyatlarini tahlil qilish, chog'ishtirib o'rganishning yangi tizimini ishlab chiqish zarurati bor. Shu bois "Yangi O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, Uchinchi yuksalish davri poydevorini yaratishga qaratilgan tarixiy islohotlar jarayonida o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha belgilab olgan vazifalarimizni izchil davom ettirishimiz lozim"¹. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda xiazm hodisasining semantik-stilistik

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha belgilab olgan vazifalarimizni izchil davom ettirishimiz lozim. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 21-oktabr.

xususiyatlarini chog'ishtirilayotgan tillardagi izomorfik va allomorfik jihatlarini o'rganish tilshunoslikning taraqqiyoti uchun dolzarblik kasb etadi.

Badiiy nutqning xiazmatik konstruksiyalari hamda ularning semantik, boshqa paradigmatic munosabatlar bilan aloqasiga doir nazariy va tahliliy qaydlar rus tilshunoslaridan Sh.Balli, A.Yefimov, I.Astafyeva, L.Babaxanova, I.Galperin, V.Solovyeva, L.Barlos, T.Vinokur, M.Kuznes, Y.Skrebnev, N.Farmanovskaya, B.Golovin, A.Kvyatkovskiy¹ asarlarida o'z aksini topgan. Fransuz tilshunoslaridan A.More, A.Syuami, A.Rabatel, G.-B.Lyusil, S.Jenevyev, P.Bakri, M.Kresso, J.Dyubua² va boshqalarning stilistikaga oid ishlarida ko'zga tashlanadi.

O'zbek tilshunosligida K.Hayitmetov, A.Mamajonov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, E.Begmatov, I.Mirzayev, A.Mamatov, H.Dadaboyev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, O.Mamaziyayev, B.Umurqulov, B.Bahriddinova, A.Sobirov, M.Yo'ldoshev, D.Sobirova singari olimlarning sintaktik stilistika muammolariga oid tadqiqotlarida³, turli terminologik lug'atlarda xiazm va unga

¹ Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961; Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1969; Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование. дисс. канд. филол. наук. – М.: 1964; Бабаханова Л.Т. Логическая противоположность и проблема антитезы в языке. – М., 1976; Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. М.: Наука, 1958; Барлос Л.Г. Русский язык. Стилистика. – М., 1978; Винокур Т.Г. Закономерности стилистического использования языковедов. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – М. 1980; Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. – Л., 1960; Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Астрель, АСТ, 2002; Фармановская. Н.И. Стилистика сложного предложения. – М.: Русский язык, 1978; Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М; Высшая школа, 1980; Соловьева В.С. Хиазм в творчестве А.Блока: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1982; Квятковский А.П. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия., 1966.

² Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2^e édition revue et augmentée. Paris: Presses Universitaires de France.1998; Suhamy H. *Les figures de style*, 11^{ed}. Paris. Presses universitaires de France. 2010; Rabatel A. Figures et points de vue en confrontation. Langue française, 2008. Lucile G.-B., Geneviève S. Etudier les figures en context: quels enjeux? Pratiques, 2015. Cressot M., James L., Le Style et ses techniques, Paris, PUF, 1988. Dubois J. Dictionnaire de linguistique. Paris, Larousse. 1973; Le Grand Larousse, 1960; Le Petit Robert, 1967.

³ Хайитметов К. Хозирги замон ўзбек тилида инверсия. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Т., 1967; Мамажонов А. Периоды в современном узбекском литературном языке. Автореф.дисс. канд. филол. наук. – Т., 1975; Мамажонов А. Такрор ва унинг синтактик-стилистик функцияси //Ўзбек тили ва адабиёти журналы, 1978; Мирзаев И.К. Проблемы лингвистической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Т., 1992; Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Филол.фан. номз. ... дисс. – Т., 1998; Mamatov A.Э.

yondosh figuralar xususida to'xtalib o'tilgan. Xiazmlarga bag'ishlangan chog'ishtirma tadqiqotlarda asosiy e'tibor ularning yuzaga kelishi, rivojlanishini o'rganish, til tizimidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

A.Mamatov til-madaniyat-etnos uchligining talqini, lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistikaning kesishgan nuqtalari, til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini o'rgangan¹. O'zbek tilshunosligida I.Mirzayev, O.Mamaziyayev kabi olimlar o'z tadqiqotlarida o'zbek tiliga xos bo'lgan xiazmlarni struktur, semantik, stilistik nuqtayi nazardan tadqiq va tahlil qilganlar.²

D.Sobirova ingliz va o'zbek tillaridagi takror turlarini stilistik vosita sifatida har ikki til kontekstida morfologik hamda sintaktik jihatdan chog'ishtirish natijasida ularning turfa stilistik ma'nolar tavsifini asoslagan³, ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma gaplar tarkibida qo'llangan *xiazm* so'z tartibini tashkil etuvchi gap bo'laklari ega, kesim, to'ldiruvchi va hol komponentlarining bir-biriga zid mantiqiy munosabatlardagi nomutanosiblikni aks ettirishini tadqiq etgan bo'lsa, A.Sobirov she'riyatda so'z tartibi turlarining kommunikativ, grammatik va stilistik vazifalarini

Zamonaviy lingvistika. O'quv qo'llanma. – T.: Noshir, 2019. Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 1978; Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1995; Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi MIU, 2022; Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T., 2002; Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T., 2020; Maqamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T., 2013; Kurov D. va boshq. Adabiyatshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013; Holmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: Universitet, 2014; Mamaziyayev O.X. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва грация. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Фарғона, 2004; Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Термиз, 2012; Бахриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020; Sobirov A.Q. She'riyatda so'z tartibi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss... avtoref. – Samarqand, 2020; Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish [Matn]: darslik. – T.: Tamaddun, 2022.

¹ Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. O'quv qo'llanma. – Tashkent: Noshir, 2019. – B. 17.

² Мирзаев И.К. Проблемы лингвистической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Т., 1992; Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва грация. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Фарғона, 2004.

³ Sobirova D.A. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma gaplar orqali ifodalanuvchi stilistik vositalarning chog'ishtirma tadqiqi (takror, antiteza va xiazm materiali asosida) Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss...avtoref. – Toshkent, 2023.

tasniflagan, soʻz tartibining boshqa sintaktik, poetik va stilistik hodisalarni yuzaga keltiruvchi muhim vosita ekanligini taʼkidlab, sheʼriyat bunday sintaktik qurilishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida teskari sintaktik takror¹ – xiazmni qisqa planda tadqiq qilgan. Bundan tashqari, tilshunoslarning xiazm tahliliga yoʻnaltirilgan ishlarida ularning yuzaga kelishi, rivojlanishini oʻrganish, xiazmlarning til leksik-semantik tizimidagi oʻrnini aniqlash, ulardagi uygʻun va farqli tomonlarga asosiy eʼtibor qaratilgan. Xiazmlarning semantik va stilistik xususiyatlarini aniqlash boʻyicha muayyan tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, turli tizimli tillar, xususan, oʻzbek va fransuz tillarida xiazmlarning semantik-stilistik xususiyatlari hamda oʻxshash va farqli jihatlarining chogʻishtirma tahlili mavjud emasligi, fandagi ana shu boʻshliqni maʼlum darajada toʻldirishga yordam berishi ehtimoldan xoli boʻlmagan ushbu izlanishning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan xulosalar oʻzining nazariy qiymati va ahamiyati bilan ekspressiv sintaksisning muhim figuralari hisoblangan xiazmning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrish imkonini beradi. Shu bilan birga, badiiy matn sintaksisining hanuz hal qilinmagan muammolarini chogʻishtirma aspektida oʻrganish zaruratini taqozo etadi.

¹ Sobirov A.Q. Sheʼriyatda soʻz tartibi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss... avtoref. – Samarqand, 2020.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA XIAZM HODISASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tilshunoslikda xiazm va unga yondosh figuralar tavsifi

Xiazm lingvistik termin sifatida XIX asrdan, lingvistik hodisa sifatida esa (antimetabola, antimetalepsiya, antimetateza atamaları bilan ifodalangan) antik davrdan tanila boshlangan, ayniqsa, diniy matnlarda keng qoʻllangan. Xiazm elementlarni parallel joylashtirish va shu bilan qarama-qarshi effektlar, sabab va taʼsir bogʻlanishlarini yaratish imkonini beradi. Taʼbir joiz boʻlsa, xiazm tuzilish figurasi boʻlib, koʻpincha atamalarni kesishgan tarzda joylashtirishdan iborat. AB/BA tuzilishiga qarab, baʼzan undan-da murakkabroq shakllarga ega stilistik figuradir. Xiazm bu parallel yoki antiteza hosil qilish uchun ikkita iboraning simmetrik qismlarida atamalar tartibini oʻzgartirishdan iborat nutq figurasidir. Matn birliklari bir xil tartibda paydo boʻlganda parallellik ABC/A'B'C' shaklda boʻlsa, teskari parallellik holatida esa birliklar markaz ABC/markaz elementi/C'B'A' ga nisbatan teskari tarzda joylashtiriladi.

Nutq figurasi sifatida tan olinishi va taʼriflanishidan oldin, miloddan avvalgi 3 ming yillikka oid yozuvlarda aniqlangan boʻlsa, baʼzi bir xitoy matnlarida miloddan avvalgi 11 ming yillikda deyiladi. Lekin u miloddan avvalgi IV asrda yunonlar tomonidan ritorik sanʼat darajasiga koʻtarilgan va bu ajoyib goʻzal nutqlar yoki vaqt sinovidan oʻtadigan maqollarni keltirib chiqargan: ***Bizni odamga ishontiradigan qasam emas, balki odam bizni ishontiradigan qasam.***

Uzoq vaqt xiazm oʻrganilmagan, u faqatgina ritorika, stilistika darsliklari¹, ensiklopediyalar², lingvistik termin lugʻatlari³ va

¹Виноградов В.В. Стилистика. Теория постической речи. Поэтика. — М.: Изд-во АН ССР. 1963. 255 с.; Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik-stilistik xususiyatlari. Toshkent: 1980. 135-б.; Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. Toshkent, 1975. 168 б.;

²Ярцева. В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Сов. энциклопедия, 1990. 685 с.

³Розенталь Д.Э., Теленнова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. — М.: Издательство "Просвещение", 1985. — 399 с. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: 1966. 223 с.;

boshqa informatsion nashrlarning mulki bo'lgan, xolos. Va nihoyat, xiazm XX asrning so'nggi 10 yilligida tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qildi, hozirgi kunda unga bag'ishlangan bir necha maxsus ishlarni ko'rishimiz mumkin, ularning orasida hattoki dissertatsiya va monografiyalar ham bor. Buning isboti sifatida Xarald Xorveyning 2 qismdan iborat monografiyasini keltirish mumkin¹.

1-qismda xiazm unda qandaydir tarzda bog'langan inversiya, sintaktik parallelizm, takrorlash, antiteza, izokolon, takror shakllari sifatida ko'rib chiqiladi. Bu yerda uning stilistik ahamiyatiga ham baho beriladi;

2-qism nemis klassiklarining ayrim asarlari kontekstida xiazmning tahliliga bag'ishlangan.

Xiazmning tuzilishi juda aniq ko'rinishga ega: *(Do'stga dushman bo'lish oson, dushmanga do'st bo'lish qiyin)* (O'.Hoshimov). Uning ta'riflari bunday aniqlikka ega emas, chunki xiazm o'zining barcha tashqi geometrik jozibaliligiga qaramay, murakkab lingvistik xususiyatga ega. Ba'zilar uni a'zolari kesishgan qo'sh antiteza deb ataydi², ya'ni ular bunda antiteza va inversiyaning birikmasini ko'radilar.

Boshqalar esa uni teskari parallelizm deb baholaydilar, ya'ni ular buni birinchi navbatda sintaktik parallelizm va inversiya sifatida ko'radilar³.

I.K.Mirzayev lingvopoetika masalalariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida: "Ushbu ishda, xiazm chap tomon qismidagi so'zlar teskari tartibda joylashtirilgan binar struktura sifatida tushunilgan", deya ta'kidlaydi. O.X.Mamaziyayev esa "Xiazm faqat qo'shma gapni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita bo'lib, unda qo'shma gap birinchi komponentdagi gap

¹ Қаранг.: Horvey, X. Chiasmus in Antiquity: Structures, Analyses, Exegesis Paperback – October 1, 1981. 353 c.;

² Ларусс.П. Le Grand Larousse-1960. П. Робер. Le Petit Robert.1967. Dubois J. Dictionnaire de linguistique, Paris Larousse. 1973: Jean-François Phelizon.J.F. Vocabulair.e de la linguistique. Roudil, 1976. 280 P.;

³Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование. Автореф. канд. дисс. – М.: 1964. – 14 с.; Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. М.: Наука, 1958. – 234-235 с.; Квятковский А.П. Поэтический словарь. — М.: Сов. Энцикл., 1966. – 325 с.; Корольков В.И. Фигуры стилистические//БСЭ. 3-е изд. Т.1974. — 333-334 с.; Marouzeau J., Précis de stylistique française, Paris, Masson, 1960. P. 332.

bo'laklarining o'rni (tartibi) ikkinchi komponent bo'laklari joylashuviga butunlay teskari holda bo'lishi talab etiladi"¹, tarzidagi fikrni ilgari surgan.

Olimlarning fikrlariga tayanib, AB/BA A va B ifodasi asosida xiazmning quyidagi uch turiga misollar keltirish mumkin:

- birinchi misolda, faqat xiazmning chap va o'ng qismlarida turli leksemalar bilan ifodalangan gapning qismlari o'rtasida takrorlanishlarni ko'rish mumkin, masalan:

Taqdirning ishini tadbir buzolmas,

Tadbirning ishini taqdir buzolmas. (Maqol)

- ikkinchisida esa leksemalarning o'ng va chap qismlarida sintaktik vazifalari o'zgarishi bilan takrorlangan hol, leksemalar (yoki leksemalarning ildizlari), masalan:

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas (A.Navoiy "Navoiy gulshani", 106-bet);

- uchinchi holatda, omonim yoki polesemik leksemalarning chap va o'ng qismlarida takrorlangan, sintaktik vazifalari va ma'nosining o'zgarishini anglatadi:

Ey Navoiy, benavo istab seni dildor-u sen,

Gar navo istarsen, o'lma benavolig'din xalos. (A.Navoiy "Navoiy gulshani", 98-bet)

Xiazm – aniqlik va tashqi geometrik uyg'unlik bilan ajralib turadigan murakkab lingvistik xususiyatga ega. Bu bilan ushbu hodisaning turli xil talqinlari mavjudligi ko'rsatib o'tiladi.

Xiazmning badiiy-tasviriy funksiyalari ushbu figuraning xususiyatlari bilan bog'liq: diqqatni jamlash qobiliyati, hissiy ta'sirni kuchaytirish, ritmik-melodik ifodalilik, "she'riy matnning semantik, ekspressiv va emotsional mazmunini to'liq, adekvat uzatishda deklamatsion vosita sifatida harakat qilish, buning natijasida xiazm boshqa sintaktik vositalar bilan bir qatorda tasvirning rivojlanishida uzluksizlikni berish va aktuallashtirish vositasi sifatida uni konkretlashtirishda ishtirok etishga qodir"².

¹ Мамазияев Х.О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. ном... дис. автореф. – Фарғона, 2004. – Б. 15.

² Мамазияев Х.О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. ном... дис... – Фарғона, 2004. – Б. 40.

Olim xiazmning poetik nutqda quyidagi uch vazifani bajarishini urg'ulaydi:

1. Uslubiy-semantik vazifa. Bunda ikki tarkibiy qismlar mazmuni o'zaro zidlik kasb etadi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to'ldiradi.

2. Ekspressiv vazifa. Bunda o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag'ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

3. Evfonik vazifa. Xiazmni yuzaga keltirayotgan bo'laklar o'zaro o'rin va vazifa jihatidan almashganda ohang ham shunga mos ravishda almashib boradi.¹

Tildagi har bir hodisa ma'lum bir maqsad asosida yuzaga keladi. Undagi har bir lisoniy vosita nafaqat axborot berish, balki o'ziga xos stilistik vazifani ham bajaradi. Ana shu jarayonda o'quvchi yoki tinglovchiga turlicha qo'shimcha ta'sir o'tkazish, axborotning emotsional-ekspressivligini oshirish uchun ma'lum darajada stilistik vositalardan foydalaniladi. Bunday vositalarga – “stilistik funksiya”, “ekspressivlik”, “ifodaviylik”, “emotsionallik”, “stilistik usul”, “stilistik figura” kabilar kiradi. Bundan tashqari, “sintaktik parallelizm” bilan yondosh tushunchalarning munosabati, “sintaktik parallelizm” tushunchasi hajmini aniqlashtirish, xiazmatik strukturalarning stilistik maqomini aniqlash muhim hisoblanadi.

“Ekspressivlik” tushunchasining mazmunga bog'liqligi va mavjudligi turlicha talqin qilinuvchi bir qancha mazmun elemenlari qo'shib ketadi: misol uchun, intensivlik, emotsionallik va obrazlilik. Ular bir-biriga ta'sir o'tkazadi, biroq alohida ko'rib chiqish zaruriyati bor.

Ekspressivlik kategoriyasining hanuzgacha tilshunoslik ilmida yakdil izohi mavjud emas. Ko'pincha ekspressivlik intensivlik (kuchaytirish) orqali talqin qilinadi, bunda intensivlik ekspressivlik bilan tenglashtiriladi yoki ekspressivlikning tashkil qiluvchilaridan biri sifatida qaraladi.

Emotsiya va ekspressiya tushunchalari bir-biriga yaqin, ammo mos kelmaydi. “Ekspressivlik” va “emotsionallik” tushunchalari

¹ Shu manba

mustaqil deb ko'rsatilgan olimlarning fikri mavjud; emotsionallik ma'nosi ajralmas his reaksiyasi bilan bog'lanadi, ekspressivlik esa ashyo mazmuni bilan bog'langan – bu asosiylariga ajraluvchi kuchaytiruvchi alomatlaridir. Tadqiqotchilar ekspressiyaning mohiyatini semantikaning kategoriyasi sifatida o'rgana turib, odatda uning ta'sir etuvchi vazifasini farqlashadi.

Demak, o'sha davrda Sh. Balli affektiv faktorning ikkita maqsadini ajratgan:¹

1) gapiruvchining subyektiv dunyosini ifodalash (tuyg'ular, kayfiyat);

2) tinglovchiga ta'sir etish uchun til vositalarini ishlatish.

Ekspressiyaning ta'sir etuvchi, ishontiruvchi omilini yozilganning ifodaviylik, tasviriyligi kuchini oshirish bilan bog'lash mumkin.

Lingvistikaning funksional-stilistika yo'nalishi tadqiqotchi-lingvistlarni o'ziga ko'proq jalb qilmoqda. Bu narsa tilshunoslik ilmining tilning kommunikativ aspektiga qiziqishning umumiy oshishi bilan bog'liq. Matn lingvistikasining paydo bo'lishi, funksional, pragmalingvistik grammatikaning rivojlanishi stilistik tadqiqotlarning yangi yo'nalishlarini faollashtirdi.

Bunda sezilarli o'rin predmeti xabarga qo'shimcha samaradorlik bera oluvchi strukturalar hisoblangan ekspressiv sintaksisning hodisalariga ajratiladi. Nutqiy faoliyatning va umuman lisonning ijodkorlik tabiatini lisoniy, ayniqsa, lug'aviy birliklarning matnda qo'llanilishi matn talabi, muloqot vaziyatiga mos holda foydalanish qobiliyatini namoyon etadi². Bu nutqiy ifodaviylikning eng boy vositalaridan biridir. Ekspressiv sintaksisning muhim vositalaridan biri stilistik figuralar hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, xiazm qismlari qurilishi bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi: birinchi qismda so'zlar bir yo'nalishda ketsa, ikkinchisida ular teskari tartibda joylashgan, misraning halqali tuzilishi hosil bo'ladi, so'zlarning har biri kommunikativ ahamiyatga ega bo'lib, satrdagi o'rni tufayli intonatsion belgilanadi

¹ Балли Ш. Французская стилистика. М. 1961. – С. 120.

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – Б. 250.

(boshi, oxiri), shu sababli ayni paytning o'zida xiazmatik konstruksiyalarning elementlari orasida ham semantik qarama-qarshilik ko'zga tashlanadi:

Ikkala qatorni bitta qatorga birlashtirib, bir ma'noli leksik va grammatik birliklarning (xiazm qismlarining komponentlari) o'rinlarini qayd etib, biz xiazmning konsentrik tuzilishini, nafaqat uning qismlarini, balki kesishgan qismlarning ham ajralmas birligini topamiz. Inversiya natijasida xiazmning birinchi qismi judayam ekspressiv bo'ladi, bunga intonatsiya ham yordam beradi: bu qismning semantik tarkibi o'sib borayotgan intonatsiyani nazarda tutadi; ikkinchi qismda, aksincha, intonatsiya pasayib boruvchi va umuman butun xiazmning intonatsiyasi o'suvchi-pasayuvchi. Shunday qilib, xiazm stilistik figura qarama-qarshilik tamoyiliga asoslangan kompozitsion, semantik va intonatsion birlikdir.

Xiazmning xususiyatlari, ayniqsa, atrofdagi kontekst fonida sezilarli bo'lib, bu yerda xiazm to'g'ridan-to'g'ri parallelizm bilan qarama-qarshi, hatto ba'zi hollarda to'g'ridan-to'g'ri parallelizm antitezani o'z ichiga olgan bo'ladi.

L.V.Sherbaning so'zlariga ko'ra "ritmlarning xilma-xilligi mazmunni aniq idrok etishga yordam beradi"¹.

Xiazmning qarama-qarshi maydonida kontekstli antonimlarning paydo bo'lishi tabiiydir: bunga uning qismlaridagi komponentlarni semantik, intonatsion va tarkibiy taqqoslash yordam beradi. Xiazmda nafaqat alohida so'zlar va so'z birikmalari, balki butun satrlar ham takrorlanadi. Bunday takror halqa deb ataladi, masalan:

Halqada xiazm, shuningdek, birinchi va ikkinchi qismlarning mazmunidagi qarama-qarshilikni ifodalashning asosiy xususiyatini saqlab qoladi: xiazmning ikkinchi qismida teskari komponentlarning takrori ulardagi mantiqiy urg'uning kuchayishi va templarning sekinlashi bilan birga keladi. Biroq, xiazm va takrorlash figuralarini farqlash muammosi alohida ko'rib chiqilmagan.

¹ Щерба Л.В. Языковая и речевая деятельность. Изд. 2-е, стер. 2004. – С. 159.

Xiazmlar korpusida ishlash jarayonida xiazmgaga o'xshash, ammo unga mos kelmaydigan ko'plab figuralar soni aniqlandi. Tilshunoslikda xiazmning bir nechta turlari mavjud: "kengaytirilgan", sof sintaktik va ikki marta takrorlanadigan (antimetabol) xiazm. Xiazmning oxirgi turi uchun sintaktik xiazm xususiyati (teskari parallelizm) majburiy bo'lib, unga simmetriya bilan ikkilangan leksik takror qo'shiladi¹.

Xiazmning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lgan figuralar antiteza, anafora, inversiya, sintaktik parallelizm, teskari takror, tautologiya – tazod ham xiazm singari qo'shma gaplar orqali ifodalanadigan stilistik figuralardir.

O'zbek tilshunosligida sintaktik-stilistik vositalar haligacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida olinmaganligidan kelib chiqib, tilshunos olim A.Mamajonov o'zining bir qator ishlarida o'zbek tilshunosligida birinchi bor qo'shma gaplar orqali ifodalangan anafora, infora, epifora, gradatsiya, ellipsis, sanash usuli, antiteza, parallel konstruksiyalar, qo'shma gaplar sinonimiyasi kabi o'ta dolzarb masalalarni o'rta tashlagan va ularga o'ziga xos yondashish orqali tegishli yechimlar bergan².

Anafora – nainki nutqning bezagi, tashqi belgisi, balki ma'noni kuchaytirishga ham xizmat qiladigan muhim figuradir.

Yaxshiyam, bilaman yetti pushtimni,
Yaxshiyam, tug'ildim ota yurtimda.
Yaxshiyam, bolalar sen deb gapirmas,
Yaxshiyam, rafiqam ko'tarmas qadah.
Yaxshiyam, so'z o'ynab topmasdan boylik.
Yaxshiyam, bilaman halol mehnatni.
Yaxshiyam, bir kuni o'lsam do'stlarim
Karnay-surnay chalib, ichishmas aroq.

(A'zam O'ktam, "Yaxshiyam").

"Moi, dont les longs travaux ont acquis tant de gloire,
Moi, que jadis partout a suivi la victoire", (Corneille)

¹elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D17681535 [19.11.2023]

² Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. 1990. – Б. 26.

Il y a des petits ponts épatants/Il y a mon cœur qui bat pour toi
/ Il y a une femme triste sur la route.

(Guillaume Apollinaire, *Poème à Lou.*)

Un jour /Un jour, bientôt peut-être. / Un jour j'arracherai
l'ancre qui tient mon navire loin des mers (*Michaux, Clown*).

Vingt et trois qui donnaient le cœur avant le temps / Vingt et
trois étrangers et nos frères pourtant/Vingt et trois amoureux de
vivre à en mourir.

(Aragon, *Strophes pour se souvenir*).

Le limon se fendille, il grille et s'éparpille / Le limon s'épaissit
et devient une étoffe /Le limon s'éparpille et devient limitrophe.

(Raymond Queneau, *Petite Cosmogonie portative*).

Assonans. Assonans ham takrorning hosil bo'lishida katta
ahamiyatga ega. Bir-biriga yaqin bo'lgan unlilar takrori natijasida
paydo bo'ladi. Assonans nafis, larzakor tuyg'ularning satrlarga
"singishi"ga yordam beradi. Bu she'rga ohangdoshlik baxsh etadi.
A'zam O'ktam she'rlarida assonansga ham misollar topish mumkin:

O'ylar kelaver bosib paydar-pay,
O'zimdan o'tganin bilaman o'zim.

(A'zam O'ktam, "Nazorat").

"Je fais souvent ce rêve étrange et pénétrant".

(Paul Verlaine, *Poèmes saturniens*).

"Tout m'afflige et me nuit et conspire à me nuire".

(Racine, *Phedre*).

"Quelqu'un pleure sa douleur / Et c'est mon cœur".

(Émile Nelligan, *Quelqu'un pleure dans silence*).

Tavtologiya – (aynan bir ta'rif yoki so'zning boshqa so'zlar
bilan takrorlanish)ga yo'l qo'yilishi notiqning so'zlardan noo'rin
foydalanishi, tilining kambag'alligi yoki fikrini aniq ifoda etish
malakasining ozligidan dalolat beradi. Ammo tajribali notiq
tavtologiyani nutqning ta'sirchanligini oshirish, ifodaliligini
kuchaytirish vositasiga aylantira olishi mumkin. Taniqli tilshunos
olim A.Potebnya bu borada shunday deydi: "Bir so'zning o'zini

nutqda chuqurlashtirishi yangi obyektiv yoki subyektiv ma'no beradi"¹.

Masalan,

"O'tinamen yalinamen qochmangiz, qaytingiz!"

"Yutdim butun qayg'ularning, motamlarning og'usin". (Fitrat)

"Tentak bermay tentakka to'rin, qurimadi tentakning sho'rin".
(Erkin Vohidov)

Tavtologiya – adabiy normaga zid hodisa² bo'lib, xalq maqol va matallarida ma'noni kuchaytirish vositasi sifatida ko'p uchraydi.

Masalan: "Olim aytgani olam aytgani", "Ko'p yashagan ko'p bilmaydi, ko'p o'qigan ko'p biladi", "Ahmoqning ahmoqligi ham bosh og'ritadi, ham oyoq", "Yomon otga yol bitsa, Yoniga tursuq boylatmas, Yomon erga mol bitsa, Yoniga qo'shni yo'latmas, Yo'latsa ham tindirmas."

Tazod – san'ati zid ma'noli so'zlar asosida yaratilgan kuchli emotsional-ekspressiv va uslubiy vositadir. Tazodni adabiyotshunoslikka oid lug'atlarda ba'zan antiteza deb ataydilar.

Tilimdan bol tommas achchiq ham emas,

Yaraydi qalbidagin izhor etishga.

Uzunmas unchalik qiziq ham emas,

Yetadi bo'ynimdan tortib ketishga.

(A'zam O'ktam)

Ey ko'zimning qorasi – qizcham,

Ro'molcha to'qishdan ko'rayam

O'rgangil yarani bog'lashni,

Ey ko'zimning oqi – o'g'ilcham,

Ko'p yaxshi yer chopishing, biroq

Qabr qazmoqni-da o'rganib qo'ygil.

(A'zam O'ktam)

Takror – bu voqelikning yetarlicha to'lishi sharoitida tovushlarni, so'zlarni, morfemalarni, sinonimlarni yoki sintaktik tuzilmalarni takrorlashdan iborat nutqning shakli:

"Ular barabanlarni urishdi, barabanlarni urishdi!

Qahramonlarga shon-sharaflar! Shon-sharaf!"

¹ Потебня А. Мысль и Язык. Т.: Мирный труд. 1918. — С.100.

² Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma. — Tashkent: "Noshir", 2019. – B.155.

Takror va uning stilistik vazifasi haqida professor A.Mamajonov fikr yuritib, uning “fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror ko‘rinishlari borligini, bunday takror tiplari xalq og‘zaki ijodi materiallari, badiiy va publitsistik asarlar tilida juda keng qo‘llanishini bayon qilgan”¹.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko‘p qo‘llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o‘rganiladi. Parallelizm – (yun. *parallelos* – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi. Masalan:

Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti – bilolmaydi. (T.Murod “Otamdan qolgan dalalar” 85-bet).

“Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyish manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan eng mahsuldor va ta‘sirchan sintaktik birlik hisoblanadi”².

Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta‘sirchanligini boyitish bilan birga ma‘noni kuchaytirish va fikrning batafsil – atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq ma‘lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan:

Qo‘shchi kalondimog‘ – kalondimog‘ qadam bosdi. Kibor – kibor quloch otdi. Kerma qosh – kerma qosh boqdi. (T.Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” 125-bet).

Bu misolda qahramonning uch xil harakati bir xil shakllangan gaplarda ifodalangan, ya‘ni, **qadam bosmoq – quloch otmoq – boqmoq**. Quyidagi misolda esa bir harakat bilan bog‘liq ma‘lumotlar fondi parallel gaplarda kengayib boradi:

Tom bosh - adog‘ilab qadamladi. Vazmin - vazmin qadamladi. Olislarga dono - dono boqib qadamladi. Yoki: Qo‘shchi qo‘llari ketida, tag‘in qadam oldi. Mag‘ribga boqib qadam oldi. Mashriqqa boqib qadam oldi³. (T. Murod. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”)

¹ Мамажонов А. Қўшма гапларда антитеза // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. № 6 – Б. 27-30.

² Shu manba. – Б. 27-30.

³ <https://abiturtest.uz/mavzular/badiiy-matnning-sintaktik-xususiyatlari/>

O'zbek tili badiiy-poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda **inversiya** (o'zgargan so'z tartibi) alohida o'ringa ega. Inversiyaning gapdagi asosiy vazifasi badiiy matnda, ayniqsa, she'riy asarlarda muallif uslubiy maqsadining amalga oshishini ta'minlash, gap tarkibidagi biror bo'lakni alohida ajratib, ta'kidlab ko'rsatish orqali asosiy fikrning o'quvchi tomonidan tez va oson tushunilishiga erishishdir.

Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi:

Bolangni olib ketsang-chi! Ko'rmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o'tiripti! (A.Qahhor, Og'riqli tishlar, 23-bet).

– Tashla u toshni! – deb do'q qilib qoldi onam.

Ko'chaning o'rtasidan haydatib ketdim aravani. – Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? – deb qolsa bo'ladimi shunda¹. (Sh.Xolmirzaev)

She'riyatda esa ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ko'p ishlatiladi. Sh.Rahmonda inversiyaning original namunalarini uchratish mumkin:

Endi safsar kechalarda oq
mash'alalar tutib ulug'vor
kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor.

(Sh.Rahmon, "Adabiyot oralab" 54-bet)

Uxlolmaysiz sokin, bermalol,
Qarolmaysiz olamga g'amsiz.
Orom bermas baribir xayol:
Katta Yerda katta Odamsiz

(Sh.Rahmon, "Adabiyot oralab", 24-bet).

"Seul, s'élevant du niveau de la plaine, et comme perdus en rase campagne, montaient vers le ciel les deux clochers de Martinville"
(Proust).

Antiteza (antitezis – "qarama-qarshi qo'yish", "zidlash") deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi.

¹ Shu manba.

Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'rinadi. Masalan:

Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma!

(O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Bu misolda bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikkita tushuncha – **non va nom** zidlantirilyapti. Nega? Yozuvchi nima uchun bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'yyapti? Aslida non – hayotning, tiriklikning ajralmas bo'lagi. Bir parcha non topib yeyish uchun odamzod mehnat qiladi, ter to'kadi. Ammo hayotda o'sha bir parcha nonni topaman deb o'z nomiga, sha'niga dog' tushirayotganlar ham uchrab turadi. Non zarur, lekin nom undan ham muhim ekanligi mazkur misolda ta'kidlanmoqda. Haqiqatan ham, nonini yo'qotgan, uni qaytib topishi mumkin, lekin o'z nomiga, sha'niga dog' tushirsa-chi? Uni qaytib tiklab bo'lmaydi. Bu misoldagi "non"ni "hayot uchun kerak bo'lgan hamma narsa, moldunyo" ma'nosida ham tushunish mumkin ¹.Yoki:

Nodonlar davrasida kar bo'l. Donolar davrasida soqov bo'l... (O'.Hoshimov, Farzandlarimga o'gitlar).

Bu misolda antitezaning ifoda material sifatida nodon – dono, kar soqov birliklari keltirilgan.

Bolalikda dunyo keng-u kiyim tor. Keksayganda kiyim keng-u dunyo tor... (O'. Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Zidlanishni yuzaga keltirayotgan birliklar (bolalik – keksalik, keng – tor, keng dunyo – tor dunyo, tor kiyim – keng kiyim) xiazmatik konstruksiya shaklida kelib kontrastlikni yanada bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan ².

"Tout lui *plaît et déplaît*, tout le *choque et l'oblige*.

"Sans raison il est *gai*, sans raison il *s'afflige*"

(Nicolas Boileau-Despréaux):

¹ <https://abiturtest.uz/mavzular/badiiy-matnning-sintaktik-xususiyatlari/>

² Yuqoridagi manba.

“J'aime la liberté et languis en service,
Je n'aime point la cour et me faut courtiser.

(*Joachim du Bellay, Les Regrets.*)

“Il a l'air vivace et maladif” (*Victor Hugo, Les Misérables*).

“Je suis au cœur du temps et je cerne l'espace.”

(*Paul Éluard, L'amour la poésie*).

“L'une est moitié suprême et l'autre subalterne.”

(*Molière, L'école des femmes*).

E.M. Beregovskayaning fikriga ko'ra, invertatsiya qilingan, ya'ni qiyofasi o'zgartirilgan parallelizm o'zida sodda, sof sintaktik xiazmni namoyon qiladi¹. Umuman olganda, xiazmatik konstruksiyalar murakkabroq bo'ladi, u xarakteri bo'yicha asosan aforistikdir. Sintaktik parallelizm – bu reduplikator va takrorlanuvchi birlik sifatida sintaktik konstruksiyaning o'zi bo'ladigan sintaksis darajasidagi takror.

Un oiseau pour demesurer le ciel,

Une pluie pour delivrer les fleurs,

Un chat pour sourire en silence,

Une foret pour feconder le vent,

La mer pour partage les iles

Et un ami pour sa presence. (*Luce Guibaud*).

I.M.Astafyeva va I.R.Galperin² xiazmgaga teskari parallelizm deb ta'rif beradilar, ya'ni ular unda, birinchi navbatda, sintaktik parallelizm va inversiyani ko'radilar. M.D. Kuznes va Y.M. Skrebnev xiazmni parallelizm, ya'ni takrorlanuvchi elementlar sintaktik vazifalarining o'zgarishli takrori deb hisoblaydilar³. A.P.Skovorodnikov esa inversiya, takror va simmetriya tamoyillarini bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan sintaktik figura sifatida qabul qiladi.⁴

¹ Береговская Э. М. К теории фигур: семантико-функциональная характеристика хиазма // Известия АН СССР. Серия лит. и языка. 1984. Т. 43. № 3. С. 230.

² Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. -М.: Высшая школа, 1971. – С. 344. Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование. Автореф. дисс-канд. филол. наук. М., 1964. – С. 14.

³ Кузнец М.Д. Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. М.: Учпедгиз, 1960. – С. 84.

⁴ Сковородников А.П. Фигуры речи в современной российской прессе // Филологические науки. 2001. № 3. С. 74-82.

1.2. Jahon va fransuz tilshunosligida xiazm tadqiqi

Sintaksisning eng ko'p qo'llaniladigan ritorik figuralaridan biri xiazm hozirgi kunga qadar kam o'rganilgan bo'lib, "xiazm" termini faqatgina 19-asrdan buyon qo'llanilib kelmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda E.M.Beregovskayaning xiazmatik konstruksiyalarni ingliz, rus, nemis, ispan va qisman fransuz tillari misolida tadqiq qilgan alohida ishlari¹; V.S.Solovyevaning A.Blok ijodida xiazmlarning qo'llanilishiga doir dissertatsiyasi, shuningdek, O.Mamaziyayevning xiazm va gradatsiya haqidagi nomzodlik ishini aytish mumkin².

M.D.Kuznes va Y.M.Skrebnev xiazmni takroriy so'zlar orasidagi sintaktik aloqalarning o'zgarishi bilan birga keladigan oldingi jumlaning tuzilishi va leksik tarkibini takrorlashdan iborat bo'lgan o'ziga xos parallelizm sifatida izohlaydi³. Boshqacha qilib aytganda, ular uchun xiazm parallelizm va takrorlanuvchi elementlar sintaktik vazifalarining o'zgarishi bilan takrorlanishidir, ya'ni ikki parallel qatorda elementlarning joylashish ketma-ketligining o'zgarishi.

J.Dyubuaning lingvistik atamalar lug'atida bergan ta'rifida "xiazm iboraning antiteza hosil qiluvchi yoki parallellik o'rnatuvchi ikki simmetrik qismining inversiyasi sifatida tavsiflanadi". Xiazmatik tuzilma va undagi antitezaning fakultativligini, bu ta'rif xiazmni tashkil etuvchi asosiy mexanizm sifatida inversiya deb atalishini alohida ta'kidlaydi. Uning uchun "xiazm ikki qarama-qarshi juftlik yoki qarama-qarshilik va takrorlash, ikki o'xshashlikning o'zaro joylashishi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri va teskari so'z tartibiga ega bo'lgan binar tuzilma bo'lib, unda antiteza va takror bo'lishi mumkin"⁴

P.Bakrini xiazmda, bir tomondan, markaz yoki chekkalarida birikadigan, boshqa tomondan, esa bir xil tabiatga ega va bir xil

¹ Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. Смоленск, 1984. С. 50.

² Соловьева В.С. Хиазм в творчестве А. Блока: Автореф. дис. канд. филол. наук. М., 1982. – С. 24.

³ Кузнец, М.Д.; Скребнев, Ю.М. Стилистика английского языка. Л.: 1960. – С. 172.

⁴ Dubois J. Dictionnaire de linguistique, Paris Larousse. 1973. – P. 84

vazifalarni bajaruvchi elementlarning qarama-qarshi joylashgan ikki sintaktik kesishmalarni ko'radi (*AB-BA*)¹.

Ushbu figura haqidagi fikrlarni antik davr so'z ustalarining ishlarida ham topish mumkin: "Mazmuni jihatdan farqli bo'lgan ikki jumla shunday ketma-ketlikda qo'yiladiki, birinchisiga qarama-qarshi bo'lgan ikkinchi jumla birinchisidan kelib chiqadi, masalan: *"Yashash uchun yeyish kerak, yeyish uchun yashash emas"*. Bunday almashish so'z ustalari tomonidan antimetabola yoki kommutatsiya deb nomlangan².

Xiazm hodisasiga tilshunoslikka oid tadqiqotlarda quyidagicha ta'riflar keltirilgan: masalan, rus olimi A.P.Kvyatkovskiyning "Поэтический словарь" kitobida, "Xiazm (grekcha "chiasmus") ikki yonma-yon gapda (yoki so'z birikmasida) sintaktik parallelizm tarzida qo'llangan so'zlarning, ikkinchi gapda birinchi gapni tashkil qiluvchi qismlarning teskari joylashuvi yoki grekcha "X" (xi) harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy figuradir³.

V.I.Korolkov figuralar orasida birlashtiruvchi figuralar guruhida, ya'ni uning o'sha kichik guruhida xiazmga bog'liqlikka o'rin berilib, uni muallif "o'xshashlikni mustahkamlashga shakllangan figuralar"⁴ deb ataydi.

J.Dyubua va boshqalarda taklif qilingan tasnifga ko'ra xiazm qo'sh harakat natijasida hosil bo'lgan figuralar guruhiga kiradi. Bizningcha, bu taksonomik (turli tizimlarni tartibga soluvchi soha) tizimda uning o'rni bu yerda emas, balki joyini o'zgartirish yo'li bilan hosil qilingan figuralar sinfida joylashgandek tuyuladi.

Y.M.Skrebnev xiazmni sintagmatik sintaksis vakolatiga kiruvchi tuzilmalar doirasiga joylashtiradi. Agar Y.M.Skrebnev tomonidan qurilgan ichki mantiqqa amal qilsak, uning stilistik tizimi, unga ko'ra sintagmatik sintaksis paradigmaticdan farq qiladi, zero, u jumla tuzilishi, tarkibi va tarkibiy qismlarini joylashtirish muammolari bilan emas, balki unga rioya qilsak,

¹ Bacry P. Les figures de style et autres procédés stylistiques. 1992. – P. 170.

²<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D1%82%D0%B8%D0%BC%D0%B5%D1%82%D0%B0%D0%B1%D0%BE%D0%BB%D0%B0>

³ Квятковский А.П. Поэтический словарь. - М.: Сов. Энцикл., 1966. – С. 326.

⁴ Корольков В.И. Фигуры стилистические. М.; 1974-. - С.333-334.

matnni tashkil etuvchi jumlar ketma-ketligi bilan shug'ullanadi¹. Bu mantiq, so'ngra qo'shni yoki hatto ko'proq kontekstdan ajratilgan jumalarga qaraganda bir iborada tez-tez uchraydigan xiazm, bu paradigmatic sintaksis bilan ham bog'liq.

Ayniqsa, V.P.Moskvinning tizimdagi xiazm shakllari to'g'risidagi qarashi diqqatga sazovordir, u sintaktik figuralarga xiazmning kiritilishiga qat'iyan e'tiroz bildiradi. Uning uchun "xiazm takrorlashning bir turi bo'lib, uning shakllanishidagi asosiy nuqta umuman sintaktik tuzilma emas, balki gapdagi pozitsiyaning o'zgarishidir"².

Xiazm darajalararo xususiyatga ega, chunki uni yaratishda nafaqat sintaktik, balki boshqa lingvistik darajalarning elementlari ham ishtirok etadi. Shunga ko'ra, V.P.Moskvin tovushli xiazm grammatik jihatdan o'zgaruvchan xiazmni qo'llaydi, xiazmatik so'z birikmalarini esa antanaklaza bilan uyg'unlashgan xiazmatik takror sifatida izohlaydi.

V.P.Moskvin xiazm bilan bir qatorda takrorlashning pozitsion turlari sifatida anafora, epifora, simplok, ilib olish, halqa va antistrofni (boshqa holda epanod, aytilganlarni teskari tartibda takrorlash) hisoblaydi³.

1. V.P.Moskvin boshqa ko'plab tadqiqotchilar kabi sintaktik takror deb ataydigan xiazmda fakultativ va nima uchun uning so'zlar pozitsion takrorlashlar guruhiga mansubligi aniq emas, vaholanki, takrorlash majburiy xususiyat, deb hisoblaydi.

2. V.P.Moskvin leksik deb atagan xiazmda sintaktik vazifalar o'zgarishi muqarrar va shart (uning misolida ega almashtirilganda bevosita to'ldiruvchiga, bevosita to'ldiruvchi esa egaga aylanadi).

3. Xiazmatik so'z birikmasi sintaktik vazifaning o'zgarishini ham o'z ichiga oladi, shu jumladan, xiazm antanaklaza bilan uyg'unlashgan.

E.M.Beregovskaya xiazmning lingvistik tabiatini ko'rib chiqib, quyidagi ta'rifni taklif qiladi: "Xiazm – transformatsiya qiluvchi

¹ Кузнец, М.Д.; Скребнев, Ю.М. Стилистика английского языка. Л.; 1960. – С.143.

² Москвин, В.П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры: Общая и частные классификации. Терминологический словарь. - М.: Эдиториал. 2006. – С.104.

³ Shu manba:

sintaktik figura bo'lib, unda transform ham, dastlabki shakl ham berilgan. Transformatsiya bittadan uchtagacha operatsiyani o'z ichiga oladi: 1) dastlabki shakl elementlarini ko'zguli simmetriya prinsipi bo'yicha qayta qo'yish (teskari parallelizm); 2) sintaksis vazifalarini almashuvchi ikkilangan leksik takror; 3) polisemik so'z ma'nosining o'zgarishi yoki uning dastlabki shakli so'zlaridan birining omonim bilan almashishi"¹.

Fransuz tilida buyuk komediant Molyer ijodidan keltirilgan quyidagi misol o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi:

"Belle marquise, vos beaux yeux me font mourir d'amour"

Ou bien: **"D'amour mourir me font, belle marquise, vos beaux yeux."**

Ou bien: **"Vos beaux yeux d'amour me font, belle marquise, mourir."**

Ou bien: **"Mourir vos beaux yeux, belle marquise, d'amour me font".**

Ou bien: **"Me font vos yeux beaux mourir, belle marquise, d'amour."** (Moliere, Le Bourgeois gentilhomme, 65-page).

E.M.Beregovskaya esa xiazmning bunday turini *xiazmatik kalambur*, ya'ni so'z o'yini deb ataydi (xiazmatik kalambur deb ataluvchi namunalar E.M.Beregovskayaning "Ekspressiv sintaksis" nomli kitobida aytib o'tilgan).

Tilda ekspressivlik va emotsionallikning alohidalanishi Y.M.Galkina-Fedoruk tomonidan amalga oshirilgan, u ekspressiya emotsiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, deb ko'rsatgan². Shuning uchun ekspressivlik tushunchasi emotsionallik tushunchasidan kengroq, deb hisoblaydi. T.G.Vinokur "Funksionallik va emotsionallikka tegishli umumiylik, "ekspressiya" termini mazmuni yana shu bilan qulayki, mulohazada ushbu ikki belgi ko'p holatda qo'shma bo'lib chiqadi,³ deb ta'kidlagan.

¹ Береговская Э.М. К теории фигур: семантико-функциональная характеристика хиазма // Известия АН СССР. Серия лит. и языка. 1984. Т. 43. № 3. С. 230.

² Галкина-Федорук Е.М. Современный русский язык: лексикология, фонетика, морфология. Передняя обложка Либроком, 2009 – С.126.

³ Винокур Т.Г. О содержании некоторых стилистических понятий. 2018. – С. 320.

Ta'rif faqatgina xiazmning sintaktik strukturasini aniqlaydi, ya'ni ushbu hodisaning formal aspekti, uning semantikasiga e'tibor qaratmaydi.

Fransuz lingvistlari P.Laruss, M.Kresso, J.F.Felizonlarning fikriga ko'ra, "xiazm antitezani yaratishning eng ifodaviy usullaridan biri hisoblanadi"¹. Antiteza esa kalamburning binar strukturasini mavjud bo'lish yo'li bo'lib, unda komik effektga bir-biriga zid-zid bo'lgan ma'nolarning to'qnashuvi bilan erishiladi. Aynan shuning uchun biz xiazmni kalambur (tajnis, so'z o'yini) yasashning usullaridan biri sifatida ko'rib chiqamiz.

J.Dyubuaning qisqa lingvistik terminlar lug'atidagi qisqa izohda xiazm antitezani yuzaga keltiruvchi yoki parallel o'rnatuvchi jumlaning ikkita simmetrik qismlari inversiyasi sifatida tasvirlanadi².

1) *Ko'ryapsanmi, **tong otar! Otmoqdadir go'zal tong!*** (M.Ali).
(A) **tong** (B), **otar (otmoq)** (B1) **otmoqdadir (otmoq)** (A1)
(**tong**) AB/B1A1.

Bu yerda biz markaziy simmetriya sintaksisga ta'sir qiladigan misollarni keltiramiz.

Le passé me tourmente et je crains l'avenir. (Pierre Corneille, Citation 208-p).

Charles se sentait defaillir à cette continuelle répétition de prières et de flambeaux? Sous ces odeurs affadissantes de cire et de soutane. (Flaubert, Madame Bovary, P. 462).

Oxirgi misolda faqatgina "fe'l+ot" guruhidagi inversiya ko'rinmaydi: bu yerda otlar birlikda ikkita aniqlovchi bilan – ot bilan ko'plikda nom ikkita aniqlovchi bilan – birlikda ot bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

Misol uchun, Maksim de la Roshfukoning ushbu jumlasini keltirishimiz mumkin:

"Biz ko'pincha **sevgidan shuhratparastlikka o'tamiz**, lekin biz **shuhratparastlikdan sevgiga deyarli qaytmaymiz**. Bu yerda barcha atamalar otlardir.

¹ П. Ларусс. Le Grand Larousse-1960. Cressot.M. De la langue au style. 2019. – P. 438. Jean-François Phelizon. Vocabulaire de la linguistique. Roudil, 1976. – P. 280.

² Dubois J. Éléments de linguistique française. Paris Larousse. 1973. – P. 26-27.

Xiazmatik konstruksiya sodir bo'ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo'lmagan elementlari qanchalik ko'p o'ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning arxitektonikasi yorqinroq chiqadi, shunchalik butun konstruksiya simmetrikka aylanadi.

Il faut manger pour vivre et non pas vivre pour manger. (Socrate, repris dans L'Avare ou l'École du mensonge de Molière)

Les désespoirs sont morts, et mortes les douleurs. (Albert Samain, Printemps)

en temps de paix, les enfants enterrent leurs parents. en temps de guerre, les parents enterrent leurs enfants. (Herodote, Citations)

La guerre, c'est un massacre de gens qui ne se connaissent pas au profit de gens qui se connaissent, mais ne se massacrent pas. (Paul Valéry, Mauvaises pensées et autres)

Absence de preuve n'est preuve d'absence. (Axiome scientifique, Citations)

et l'on voit de la flamme aux yeux des jeunes gens. Mais dans l'oeil du vieillard on voit de la lumière. (Victor Hugo, La Légende des siècles)

Vivre simplement pour que d'autres puissent simplement vivre. (Gandhi, Citations).

Je ne songeais pas à Rose; Rose au bois vint avec moi. (Victor Hugo, Vieille chanson du jeune temps).

Un roi chantait en bas, en haut mourait un Dieu. (Victor Hugo, Booz endormi)

Aux espoirs indéfinis, aux charmantes inquiétudes. (Guy de Maupassant - Une vie. P-109)

Les jours les plus longs étaient trop courts pour lui, et les nuits les plus courtes trop longues (Vie de Frédéric Douglass, esclave américain, p-125).

Hozirgacha xiazm tadqiqi bilan juda kam sonli olimlar shug'ullangan, shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'zbek tilida xiazm hodisasi qiyosiy planda hali tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu bilan birga, turli xarakterli va turli davr, shu qatorda zamonaviy matnlardan olingan ko'plab misollar oldimizda jonli va qiziqarli hodisa turganidan dalolat beradi.

T.N.Senina va O.S.Axmanova xiazmni struktur parallelizmga qo'shishadi¹, P.Laruss, P.Rober² esa uni asimmetrik konstruksiyalar deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, xiazm bo'laklarining X shaklida joylashuvi va antitezani shakllantirish yo'llari bilan asimmetrikdir.

N.I.Formanovskaya xiazmni "so'z tarkibini ko'zgu bilan aks ettirish va kesishtirish" deb nomlaydi va figuraning o'ziga xos arxitektonikasi va ritmikasinini qayd qiladi³.

M.N.Kojina xiazm alohida gaplarni emas, abzaslar va abzaslar qatorini shakllantirganda bajaradigan funksiyalarini ajratadi, bu oshib borish va kulminatsiya effekti, undan tashqari, abzaslarni birlashtirish funksiyasidir⁴.

V.I.Korolkova tizimida xiazmga bog'liqlik, bog'lanish figuralari guruhiga, aynan esa muallif "o'xshashlikni kuchaytirishga asoslangan figuralar" deb nomlagan kichik guruhda joy ajratiladi. Xiazmni bunday lokalizatsiyalash *(cheklash, joylashtirish) e'tirozlar qoldirmaydi⁵.

Zamonaviy rus tili bo'yicha darsliklarda xiazm haqida quyidagilar aytiladi: "So'z qo'yilishining o'ziga xos figurasini xiazm o'zida namoyon qiladi.

Y.M.Skrebnev xiazmni sintagmatik sintaksisning kompetensiyasiga kiruvchi strukturalar doirasiga kiritadi⁶. Agar Y.M.Skrebnev tomonidan tuzilgan sintagmatik sintaksis paradigmasidagi gaplar strukturalari muammolar bilan, uning komponentlari tarkibi va joylashishi bilan berilmay, balki matnni tashkil qiluvchi gaplarning ketma-ketligi bilan berilishi asosida farq qilishida degan stilistik tizimning ichki mantig'iga ergashsak, ko'pincha qo'shilgan yoki kontekst bilan ajratilgan gaplarning

¹ Сенина Т.Н. К вопросу о понятии. Термин в современной лингвистике. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: 1966. – С. 508.

² Ларусс. Le Grand Larousse-1960. П. Робер. Le Petit Robert. 1967.

³ Формановская Н.И. Об употреблении в главном предложении соотносительного с союзом словом местоимения при придаточном дополнительном. – В кн.: Русский язык для студентов – иностранцев. – М.: 1962. – С. 238.

⁴ Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М.: 1977. – С.148-152.

⁵ Корольков В.И. Фигуры стилистические. - Т.: 1974. – С. 333-334.

⁶ Скребнев, Ю.М. Основы стилистики английского языка. - М.: 2002. – С. 221.

tarkibidan ko'ra bitta jumlaning ichida bo'luvchi xiazm paradigmatic sintaksisga ham taalluqli bo'ladi.

Ritorika bo'yicha zamonaviy adabiyotda aytiladiki, "xiazmni uch va halqa birikuvi sifatida qarash mumkin, sababi bitta element jumlaning eng boshida va eng oxirida takrorlanadi, ikkinchi element esa ushbu jumlaning qismlari orasining chegaralarida keladi"¹.

Xiazmatik konstruksiyalarning hind-yevropa tillari materialida qiyosiy tahliliga urinish E.M.Beregovskaya tomonidan amalga oshirilgan va ushbu hodisaga yetarli darajada ta'rif ham berilgan: "Xiazm – transformatsiya qiluvchi sintaktik figura bo'lib, unda transform ham, dastlabki shakl ham berilgan, transformatsiya esa bittadan uchtagacha operatsiyani o'z ichiga oladi:

1) dastlabki shakl elementlarini ko'zguli simmetriya prinsipi bo'yicha qayta qo'yish (teskari parallelizm):

2) sintaktik vazifalarning almashishli ikkitalik leksik takror;

3) polisemik so'z ma'nosining o'zgarishi yoki uning dastlabki shakli so'zlaridan birining omonimi bilan almashishi"².

Birinchi operatsiya sodda sintaktik xiazmni yaratish uchun zarur va yetarlidir, birinchi va ikkinchi operatsiyalar semantik murakkablashgan xiazmni yaratadi, uchala birga xiazmatik kalamburni yaratadi.

Izohning katta hajmliligi ajablanarli emas, chunki xiazmning tuzilishida bir nechta figuralar ishtirok etadi. Bu, eslab o'tilganidek, sintaktik parallelizm, inversiya, takror, antiteza, agar zarur bo'lgan taqdirda, ellipsis singari sintaktik va leksik ifodaviy vositalardir.

Z.I. Xovanskaya takrorlanuvchi qismlarning tashqi joylashuvini oldingi planga qo'yadi. U uchun xiazm bu – "ikkita moslikning xochsimon joylashuvi, bu xoh qarama-qarshi qo'yilgan juftliklar, xoh qarama-qarshilik va takror", ya'ni antiteza va takrorning

¹ Тимофеев Л.И. и Венгров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. М, 1963. – С. 122.

² Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. Смоленск, 1984. – С. 236.

imkoni bo'lgan to'g'ri va invertirlangan so'z joylashuvli binar konstruktsiya ¹.

P. Bakri xiazmda ikki sintaktik bo'laklarning xochsimon joylashuvini (AB-BA) ko'radi, ularni bir tomondan va yonlari bo'ylab, boshqa tomondan bir xil tabiatga ega bo'lgan yoki aynan bitta funktsiyani bajaruvchi elementlar markazida bog'laydi².

O.A. Krilova tomonidan kiritilgan va o'xshash yoki kombinatsiyalashgan turli xildagi vositalarni bitta jumla ichida birlashtirish natijasi bo'lgan stilistik usul³ deb mualliflar tushungan giperekspressiya tushunchasini qabul qilgan holda xiazmni unchalik ifodaviylik yoki ekspressivlik vositasi sifatida emas, balki takror, inversiya, antiteza, sintaksik parallelizm, ellipsisni turli kombinatsiyalarda jamlovchi giperekspressiv sintaktik-stilistik usul deb nomlash mumkin.

V.I. Korolkov figuralar orasida birlashtiruvchi figuralar guruhida, ya'ni uning o'sha kichik guruhida xiazmga bog'liqlikka o'rin berib, uni o'xshashlikni mustahkamlashga xoslangan figuralar, deb ataydi⁴. Xiazmning bunday lokalizatsiyasi e'tirozlarni keltirib chiqarmaydi.

Y.M. Skrebnev xiazmni sintagmatik sintaksis vakolatiga kiruvchi tuzilmalar doirasiga joylashtiradi. Agar Y.M. Skrebnev tomonidan qurilgan ichki mantiqqa amal qilsak, Y.M. Skrebnevning stilistik tizimiga ko'ra, sintagmatik sintaksis paradigmatic sintaksisdan farq qiladi, zero u jumla tuzilishi, tarkibi va tarkibiy qismlarini joylashtirish muammolari bilan emas, balki matnni tashkil etuvchi jumlar ketma-ketligini ta'minlaydi. Bu mantiq, so'ngra, qo'shni yoki hatto ko'proq kontekstdan ajratilgan jumalarga qaraganda bir iborada tez-tez uchraydigan xiazm bo'lib, u paradigmatic sintaksis bilan ham bog'liq⁵.

Tovush va ma'no o'rtasida motivatsion munosabat yaratish she'riyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, "poetik

¹ Хованская З.И. Стилистика современного французского языка. – М.:Высшая школа, 1984. – С.305.

² Басри.Р. Les figures de style et autres procédés stylistiques. 1992. – P. 432.

³ Крылова. О.А Лингвистическая стилистика. 2006. – С. 319.

⁴ Корольков В.И. Фигуры стилистические. - Т.; 1974. – С. 333-334.

⁵ Скребнев, Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М. Астрель, 2002. – С.221.

funksiya fikrlash uchun nima qiladi” degan savolni shu tariqa “tovush ma’noga qanday ta’sir qiladi” deb qayta shakllantirish mumkin. Sintaktik figura bo’lgan xiazm ushbu motivatsion munosabatlarni o’rnatishga yordam beradi. Xiazm yunoncha “xiazin” bo’lib, xi, X shaklida joylashadi, lingvistik birliklarni o’q atrofida teskari tartibda takrorlaydi. U paradoks figurasi sifatida emas, balki qurilish figurasi sifatida tasniflanadi, deydi¹ fransuz olimlari G-B.Lyusil va S.Jeneveva.

Poetika va ritorika lug’atlarida xiazm tuzilishi figuralar orasida tasniflanadi va elementlarning kesishgan tartibiga urg’u beriladi. Uning xoch tuzilishi ABBA qisqartmasi bilan qayd etilgan. “Xiazm teskari satrda takrorlangan bir xil so’zlar yoki so’zlar guruhlarini takrorlashdan iborat simmetrik figuradir”², deb yozadi A.More. Yunoncha “metabole”dan “o’zgarish, joy o’zgartirish” degan ma’noni anglatuvchi “antimetabola” figurasi³ atamalarni takrorlash bilan inversiyalash uchun ajratilgan.

Biroq mualliflarga qarab, “antimetabola” va “xiazm” o’rtasidagi munosabatlarning tavsifi diametrik ravishda qarama-qarshi bo’lishi mumkin. Shunday qilib, A.Syuami uchun antimetabola “xiazmning ibtidoiy shakli” bo’lsa, A.Rabatel uchun aksincha, xiazm (takrorlashsiz inversiya) antimetabola nisbatan kamroq cheklangan, uning butun tadqiqoti figuraning murakkabligi va uni chegaralash murakkabligini ko’rsatishga intiladi⁴. Antimetabolaning murakkabligi semantik bo’lib, asosiy qiyinchilik unga bag’ishlangan tadqiqotlarda uning ma’no ta’siriga ko’ra turli kichik tiplarni ajratish mezonlarini topishdan iborat.

1.3. O’zbek tilshunosligida xiazm hodisasining o’rganilishi

“Qisqa adabiyot ensiklopediyasi”da xiazm qo’shish figuralaridan biri va sintaktik parallelizmning turi sifatida qaralgan. “Xiazm – antitetik (qarshi qo’yish) parallelizmning stilistik figurasidir: ikkita

¹ Lucile G.-B., Geneviève S. Etudier les figures en context: quels enjeux? Pratiques, 2015. – P.165-166.

² Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2^e édition revue et augmentée. Paris : Presses Universitaires de France.1998. – P.118.

³ Suhamy, H..*Les figures de style*, 11^{ed}. Paris. Presses universitaires de France. 2010. – P. 74-75.

⁴ Rabatel A. Figures et points de vue en confrontation. Langue française. 2008. – P. 21-36.

parallel bo'laklarning qismlari ularda quyidagi ketma-ketlikda joylashadi: AB – B1A1 (***Do'stga dushman bo'lish oson, dushmanga do'st bo'lish qiyin***).

Ensiklopediya mualliflarining so'zlariga ko'ra¹, uning mohiyati muayyan konstruksiya birinchisining "ag'darilgan" ko'rinishini o'zida namoyon qiluvchi boshqasi bilan birikishida ekanligi aytiladi. Adabiyot ensiklopediyasining keyingi nashrlarida zamonaviy umume'tirof etilgan² izohni uchratish mumkin – xiazm, grekcha "xiazmos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "X" harfi ko'rinishidagi figuradir.

Xiazm strukturasi alohida sintaktik parallelizm usuliga tegishli. Ba'zida xiazmga sintaktik parallelizmning bir turi sifatida qaraladi: Nazmiy nutq uchun teskari parallelizm holatlari xarakterli, unda ikkinchi qism konstruksiyasining tarkiblari birinchi qismnikiga nisbatan teskari tartibda joylashadi.

Xiazm konstruksiyasida sintaksis va leksikaning integratsiyasini ko'rish mumkin, bu hodisaning boshqa nomi bo'lib, "antitetik parallelizm"ga xizmat qilmaydi. Antitezani sintaksisning leksik-sintaktik vositalariga qo'shishadi, uning mohiyati sintaktik struktura doirasida g'oyalarni kontrast (zid) qo'yishdir. Zid qo'yish qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi so'zlar, ya'ni antonimlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Antiteza geometrik to'g'ri sintaksis doirasida shoir, yozuvchining o'z o'quvchisi yuragiga yetib borish uchun imkoniyatlarini yana ham ko'proq oshiruvchi amaliy vositadir. O'z navbatida, xiazmatik konstruksiyalarning yorqinligi – antitezaning to'g'ri effekti hisoblanadi, agar sintaktik tartiblash she'rga ritm aniqligi, ohang, bo'g'in chiroyini bersa, kalambur effekti uchun xizmat qiladi. Xiazm asosan she'riy asarlar materialida uchrovchi, undan tashqari, faqatgina ritm va rifmani saqlab qolishga yordam beruvchi emas, balki barcha mualliflik yo'nalmalarini amalga

¹ Ярцева. В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Сов. энциклопедия, 1990. - 685 с.:

² Квятковский А. Поэтический словарь. М., 1966. - С.375. Mario P Glossary of linguistic terminology. Le Petit Robert, 1967. Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2e édition revue et augmentée. Paris: Presses Universitaires de France. 1998. - P. 118.

oshiruvchi, uning munosabati, bahosini saqlab qolishga imkon beruvchi konstruksiyalardan biri.

Badiiy tilning bosh spetsifik xususiyatlari – obrazlilik (tasviriylilik) va emotsionallik bo'lib, xiazm mazkur xususiyatlarni kuchaytirib namoyon etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi (obrazlilik), ayni paytda, badiiy adabiyotdagi tasvir quruq emas, u his-tuyg'ularga yo'g'rilgan (emotsionallik)dirki, shu tasvir orqali muayyan o'y-fikr, his-kechinma ham ifoda etiladi.

D.Quronovning fikriga ko'ra, tildan foydalanishda muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab umumodatiy normadan og'ish (ya'ni til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabatlarda qo'llash) natijasida yuzaga keladi va tasvirning jonli, ifodaning ta'sirli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida: fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (asindeton, polisindeton), leksik (arxaizm, dialektizm, jargon), semantik (troplar), sintaktik (inversiya, so'z takrori, sintaktik parallelizm, ellipsis, xiazm) sathlarda kuzatilishi mumkin¹.

“Adabiyotshunoslik lug'ati”da xiazmga quyidagicha ta'rif beriladi. “Xiazm (yun. chiasmus – yunon alifbosidagi X harfidan, ya'ni shu harf shaklida joylashgan) – teskari tartibdagi sintaktik parallelizm, misradagi so'z (bo'lak)larni teskari tartibda takrorlashga asoslangan stilistik figura”². Xiazm mohiyatan mumtoz she'riyatdagi tardi aks (q.) san'atiga yaqin turadi. Aksariyat hollarda xiazm she'rning ketma-ket keluvchi misralarida namoyon bo'ladi. Masalan:

Giloslar labingiz aksi bo'lgandek,

Labingiz aksidir bu bog'da **gilos**. (G'.G'ulom, Bog')

Yoki:

Sozim – mening **ovozim**,

Ovozim – mening **sozim**. (G'.G'ulom)

Tardu aks “teskari qilib takrorlash” ma'nosini ifodalab, she'rning birinchi misrasidagi keltirilgan ikki so'z yoki so'z

¹Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013 – Б.177.

² Yuqoridagi manba

birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib qaytarishdan iborat bo'lgan she'riy san'atdir. Bu xil qaytarish natijasida mazkur so'z yoki so'z birikmalari yana bir bor ta'kidlanibgina qolmay, ularning ma'nosi ham yangilanadi, misra mazmuni ham takomillashadi¹. Masalan, Bobur qalamiga mansub

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,

Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching

baytining birinchi misrasidagi "balo" so'zi mustaqil holda "ofat" ma'nosini, qaro so'zi esa sochning sifatini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi misrada bu ikki so'zning o'rnini almashtirilishi natijasida ularning mazmuni ham o'zgarib, "qaro" so'zi "balo" so'zining sifatlovchisiga aylanib bu so'zning ma'nosini yanada kuchaytirgan, har ikki so'z qofiyadosh bo'lganligi sababli takror zulqofiyatayn san'atini hosil qilgan. Boburning

Habib bo'lsa edi yo **raqib** o'lsa edi,

Raqib o'lsa edi yo **habib** bo'lsa edi baytida ikki so'z birikmasining o'rnini almashinib takrorlangan. Oqibatda shu birikmalardagi fikr ta'kidlanib, ularning ahamiyati kuchaytirilgan.²

Yuqoridagi fikrlarga tayanib xiazm va tardu aks aynan bir narsa deyish mumkin, biroq tardu aks - mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at bo'lsa, xiazm lingvistik hodisa sifatida tadqiq qilinadi. Nasrda teskari parallelizm, takror kabi stilistik figuralar ham xiazmni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. *Tardu aks* mohiyatan xiazmning o'zini ifoda etsada, janr bilan bog'liq farqli jihatlari ham mavjud. Xiazm - sheriy san'at tardi aks kabi faqatgina nazmda emas, balki, nasrda ham qo'llaniladi. Bu esa uning repertuari juda ham ko'pligini, hamda barcha janrlarda maksimal darajada qo'llanilganligidan dalolat beradi. Fransuz she'riyatida o'zbek she'riyatida bo'lgani kabi, tardi aks san'atining yo'qligi sababli bu figura universal sifatida fransuz tilida nasrda ham nazmda ham asarlarning ekspressiv-emotsionalligini oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Shuningdek, xiazm ba'zan o'zbek she'riyatida she'rning dastlabki misralaridan biridagi so'z (bo'lak)larni teskari tartibda

¹ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T: Sharq, 1998. – B. 89.

² Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T: Sharq, 1998. – B. 89.

joylashtirgan holda takrorlash asosida ham yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, M.Yusufning “Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom” satri bilan boshlanuvchi she‘rida birinchi band **“Yashash kerak, sevish shart emas”** misrasi bilan yakunlansa, oxirgi band **“Sevish kerak, yashash shart emas”** misrasi bilan yakun topadi. Bunda xiazm she‘r g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi muhim kompozitsion unsur vazifasini o‘taydi.

Ma‘lumki, xiazm strukturasi o‘ta aniqligi bilan ajralib turadi: **Xinolari tashlab ketgan tirnog‘ini, tirnog‘ining xinosiga vafosi yo‘q** (S.Sayyid, Bevafolek.). Uning izohi esa bunday aniqlikka ega emas, chunki o‘zining tashqi geometrik tekisligiga qaramay, murakkab lingvistik tabiatga ega. Ba‘zilar uni a‘zolari kesishuvchi ikkitalik antiteza deyishadi, ya‘ni unda antiteza va inversiyaning birikmasini ko‘rishadi. Boshqalar unga teskari parallelizm deb ta‘rif berishadi, ya‘ni unda birinchi navbatda sintaktik parallelizm va inversiyaning ko‘rishadi.

O‘zbek olimlaridan professor I.K.Mirzayevning lingvopoetika masalalariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida “Ushbu ishda, xiazm chap tomon qismidagi so‘zlar teskari tartibda joylashtirilgan binar struktura sifatida tushunilgan,” deya ta‘kidlaydi¹. I.Mirzayev qofiya ma‘nosining shakllanishi, ularning she‘r tuzilishi va arxitektonikasi, mazmuniga ta‘siri, uning leksik va morfologik vositalar yordamida ifodalanishi bilan bir qatorda, poetik sintaksis masalalari – she‘riy ko‘chim, kiritma, so‘z tartibi va xiazmning tarkibiy-vazifaviy xususiyatlarini lisoniy belgining asimmetrik dualizmi aspektida tahlil qilgan².

O.Mamaziyyayev esa tadqiqqa tortilayotgan hodisaga to‘xtalib, “Xiazm faqat qo‘shma gapni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita bo‘lib, unda qo‘shma gap birinchi qismidagi gap bo‘laklarining o‘rni (tartibi) ikkinchi qism bo‘laklari joylashuviga butunlay teskari holda bo‘lishi talab etiladi”³ tarzidagi ta‘rifni

¹ Мирзаев И.К. Проблемы лингвистической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф. дисс... д-ра филол. наук. -Т., 1992. – С. 23.

² Yuqoridagi manba

³ Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. номз...дисс.автреф.-Фарғона, 2004. –Б.15.

Nutqda xiazm usulida qurilgan gaplar o'zining ohangdorligi bilan ajralib turadi, shuningdek, o'quvchi yoki tinglovchini hushyor tortishga, fikrni uning ruhi, ongiga tez singdirish, ta'sir ko'rsatish, unga estetik zavq bag'ishlash, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

O.Mamaziyayev haqli ta'kidlaganidek, "xiazm stilistik takrorning alohida bir murakkab ko'rinishi bo'lib, u nutqning ohangdor, jarangdor, shu bilan birga jozibador bo'lishini ta'minlaydi, bir so'z bilan aytganda, nutq ko'rinishining sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi"¹.

A.Sobirovning fikricha: "Xiazm – gap bo'laklarining teskari takrori, u stilistik va lingvopoetik hodisa sifatida tadqiq qilingan, ammo she'riy nutqda sintaktik hodisa sifatida o'rganilmagan. Aslida she'riy matnda xiazmni misralarning teskari sintaktik takrori deyish mumkin, chunki xiazmni biz, eng avvalo, so'z tartibining o'ziga xos bir turi sifatida tushunamiz, uning birlamchi vazifasi gap bo'laklarini misralar bo'ylab joylashtirishdir". Bundan tashqari, so'z tartibi badiiy tasvir vositalarini hosil qilishda ham ishtirok etadi, jumladan, anafora, epifora, tasbe', tasdir, takrir, tardu aks, hatto tazod va tajnis kabi ayrim she'riy san'atlar misralarda so'z tartibining o'zgarishi asosida sodir bo'ladi"², – deya ta'rif beradi.

D.Sobirovaning ta'kidlashicha: "Xiazm bu faqat va faqat qo'shma gap orqali ifodalanadigan sintaktik-stilistik vosita bo'lib, uning birinchi qismidagi (komponentidagi) so'z tartibi ikkinchi komponentning so'z tartibiga butunlay teskari ifodalanadi, unda so'z tartibini tashkil etuvchi gap bo'laklari (ega, kesim, to'ldiruvchi va hol)ning joylashuvi ham bir-biriga teskari, zid bo'lib, u aynan shu komponentlar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarda nomutanosiblik va ziddiyatni aks ettiruvchi kommunikativ-pragmatik birlikdir"³.

¹ Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 6.

² Собиров А.Қ. Шеърятда сўз тартиби. – Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс...автореф. – Самарқанд: 2020. – Б. 20.

³ Собирова Д.А. Инглиз ва ўзбек тилларида қўшма гаплар орқали ифодаланувчи стилистик воситаларнинг чоғиштира тадқиқи (такрор, антитеза ва хиазм материали

*Kechqurun qaytaman yangi uyimga,
Uyim to'la hozir yangi buyumga.* (Mirtemir)

Xiazm asosan she'riy asarlar materialida uchrovchi, undan tashqari, faqat ritm va rifmani saqlab qolishga yordam beruvchi vosita emas, balki barcha mualliflik yo'nalmalarini amalga oshiruvchi, uning munosabatini, bahosini saqlab qolishga imkon beruvchi konstruksiyalardan biridir.

Xiazmatik konstruksiya sodir bo'ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo'lmagan elementlari qanchalik ko'p o'ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning arxitektonikasi yorqinroq chiqadi, shunchalik butun konstruksiya simmetrikka aylanadi.

Xiazmatik konstruksiyaning asosiy tarkibi sintaktik strukturalarning parallelizm figurasidir. Xiazm va poetik asarlarning mutanosibligini muhokama qiladigan konstruksiyani bevosita o'zi bilan ifoda qilish aniqroq bo'ladi: aforizmga aylangan mashhur kitobning ("Borliq prozasi yoki proza borlig'i") nomidan ibora yasab, xiazm: poeziya pragmatikasi, pragmatika poeziyasi, deyish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga izoh tariqasida shuni aytish mumkinki, xiazm – bu muallifning ustomonligini, u tomonidan stilistik vositalarni mohirona ishlata olishini namoyon qiluvchi ritorika yoki zamonaviy stilistikaning eng chiroyli, o'rinli, yorqin figuralaridan biri bo'lib, adresant (so'zlovchi) pragmatik niyatlarining poetik yasalishidir.

Boshqa tomondan xiazm asosan she'riy asarlar materialida uchrovchi, undan tashqari, faqatgina ritm va rifmani saqlab qolishga yordam beruvchi emas, uning munosabatini, bahosini saqlab qolishga imkon beruvchi konstruksiyalardan biri hisoblanadi.


Sirojiddin Sayyidning "Yangi tong" she'ridan quyidagi parcha tahlil uchun olindi.

O'zgarar dunyo mudom,
dunyoda odam o'zgarar,
O'zgarar odam bilan

bu ko'hna **olam, o'zgarar**. (S.Sayyid, Yangi tong)


Ushbu parchada bir nechta xiazmni uchratish mumkin:

1-xiazm birinchi misradagi **o'zgarar (o'zgarmoq)** va **dunyo** so'zlarining o'zaro o'rin almashinuvidan tuzilgan.




Ushbu misradagi *o'zgarar dunyo* qismida poetik janrga xos bo'lgan inversiya usuli qo'llangan. Bu o'rinda *o'zgarar* – kesim, *dunyo* – ega vazifasida kelayotgan bo'lsa, ikkinchi misradagi *dunyoda* – to'ldiruvchi (vositali), *o'zgarar* – kesim vazifasida kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu xiazmatik konstruksiyada *o'zgarar* so'zi sintaktik jihatdan bir qutbda joylashgan, *dunyo* so'zi esa leksik jihatdan ikkinchi perpendikulyar (qarama-qarshi) qutbdan o'rin olgan.

2-xiazm **odam** va **o'zgarar (o'zgarmoq)** so'zlari vositasida hosil bo'lgan.



She'rning bu qismidagi **odam-odam; o'zgarar-o'zgarar** so'zlarining o'zaro o'rin almashinuvi natijasida X (iks) shaklidagi joylashuv yuzaga kelgan. Bu gapda *odam* – ega, *o'zgarar* – kesim vazifasini, ikkinchi gapda esa, inversiya hodisasi orqali *o'zgarar* – kesim, *odam (bilan)* – to'ldiruvchi (vositali) vazifasini bajarmoqda.

3-xiazm **dunyo, o'zgarar, olam** so'zlari o'rtasida yuzaga kelgan.



Bu misrada esa, A va B nuqtalarda kesishgan **o'zgarar** so'zi hamda S va D nuqtalarda birlashgan **dunyo** va **olam** so'zlari yordamida xiazmatik konstruksiya yuzaga kelgan. Ushbu gapdagi *dunyo* va *olam* so'zlari aynan xiazmga xos takroriy qo'llanilmagan

bo'lsa-da, biroq ular ham semantik jihatdan bir xildagi ma'noni anglatadi, ham sintaktik jihatdan bir vazifani bajarib kelmoqda. Ya'ni, kesim-ega, ega-kesim shaklidagi semantik xiazm ham deyish mumkin. **O'zgarar** so'zi tarkibidagi **-ar** qo'shimchasi kelasi zamonni hosil qiluvchi qo'shimcha hisoblanib, u ham stilistik bo'yoqdorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, doimiy sodir bo'ladigan va takrorlanadigan ish-harakatlarni ifodalaydi. Shoir o'zi aytmoqchi bo'lgan fikr doimiy yuz berishini ko'rsatish maqsadida kelasi zamon hosil qiluvchi **-ar** qo'shimchasidan foydalangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi misollar orqali ifodalangan xiazmlardagi "o'zgarar" so'zi ikki sodda gap doirasida o'z o'rnini almashtiradi, sintaktik vazifasi o'zgarmaydi, barcha o'rinlarda kesim vazifasida qo'llaniladi. "Dunyo" so'zi esa o'z o'rnini almashtiradi, ba'zan o'z o'rnini ma'nodoshi "olam" so'ziga beradi, shu bilan birga, grammatik vazifasi ham turlicha bo'lganini kuzatish mumkin. Masalan, bir o'rinda ega, ikkinchi o'rinda to'ldiruvchi, yana boshqa o'rinda ega vazifasida qo'llangan. Misralardagi "odam" so'zi ham o'z o'rnini almashtirib kelgan, lekin sintaktik jihatdan o'zgarib, ega va to'ldiruvchi vazifalarini bajarib kelgani kuzatildi.

Il ya des **reproches** qui **louent** et les **louanges** qui **médisent** (La Rochefoucauld).

Til tiymoq kerakmi yoki **gapirmoq**,

So'zlamoq yaxshimi yoki **yashirmoq**? (Yusuf Xos Hojib, *Qutadg'u bilig* 95-bet).

Yuqoridagi ikkala tildagi misollarda ham qisman takrorlash yoki biror-bir tarkibiy qismni bir xil semantik maydonga tegishli so'z bilan almashtirish yoki hatto okkazonalizmdir. Bu misralardagi **til tiymoq** va **yashirmoq** so'zlari go'yo sinonim so'zlar sifatida kelmoqda. Aslida bu ikki so'zning semantikasiga nazar solinsa, til tiymoq bu gapirmaslik, ichida saqlash, ya'ni biror-bir xabarni aytishdan o'zini tiyish kabi ma'nolarni ifodalasa, **yashirmoq** esa biror-bir sirni ataylab yashirish, uni berkitish kabi ma'nolarni ifodalaydi. So'zlamoq va gapirmoq esa sinonim so'zlardir. Fransuzcha misolda ham xuddi shu holat kuzatiladi. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, ushbu figuradan foydalanishda,

soʻzlarni qoʻllashda uning sinonimi yoki bir maydonga tegishli muqobilidan foydalanish koʻproq yozuvchining mahoratiga bogʻliq ekanligini koʻrsatib keladi.

*Quand mon verre **est vide, je le plains:***

*Quand mon verre **est plein, je le vide.***

(les citations de Raoul Ponchon)

La mer** est forte comme **un coeur

Mon coeur** est doux comme **la mer

(Paul Verlaine, Retour 37-p)

***Necha** jonimgʻa mundogʻ **kecha** oʻlgay.*

***Kecha** jonimgʻa mundogʻ **necha** oʻlgay*

(Alisher Navoiy, Farhod va Shirin.)

Yuqoridagi oʻzbek va fransuz misollaridan koʻrishimiz mumkinki, birinchi gapdagi gap boʻlaklari ikkinchi gapning oxirida, birinchi gapning oxiridagi gap boʻlaklari esa ikkinchi gapning boshida kelyapti.

Xiazm shakllarning noodatiyligi bilan ajralib turadi. Ushbu ikkala tildagi misollarda ham leksik, ham sintaktik xiazmni koʻrishimiz mumkin.

Kuz chogʻi... tuproqlar **gezarib qoldilar**,

Gezarib qoldilar kuz chogʻi tuproqlar.

Soʻng damda yaproqlar **qizorib yondilar**,

Qizorib yondilar soʻng damda yaproqlar.

(Choʻlpon, "Xazon" 482-bet).

Soʻz tartibi oʻziga oʻxshagan sintaktik figuralarni, badiiy tasvir vositalarini hosil qilishda ham ishtirok etadi. Jumladan, ayrim sheʼriy sanʼatlarning misralarda soʻz tartibi oʻzgarishlari asosida sodir boʻlishiga mazkur bob tahlilida bir qator misollar keltirildi. Jumladan, anafora, epifora, tasbe, tasdir, takrir, tardu aks, hatto tazod va tajnis kabi badiiy hodisalarning misralarda sodir boʻlishini ham taʼminlaydi. Mazkur masala alohida tadqiq qilishni taqozo etadi.

Oʻzbek tilshunosligida xiazm va gradatsiya usuli O.Mamaziyyayev tomonidan keng tahlil qilingan:¹ Oldimda uyum-

¹ Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол.фан.номз...дисс... – Фарғона. 2004. – Б. 38.

uyum kitob, darslik; tevaragimda – **biri ilm uchun yashayotgan, biri yashash uchun ilm olayotgan** kimsalar; tashqarida esa, hayot atalmish beqiyos mo'jiza: charaqlagan quyosh, tip-tiniq osmon, top-toza havo, ko'zni qamashtiruvchi atlas ko'ylaklar – barno qizlar, o'ynoqi favvoralar, xushnag'ma qushlar. Ularni aynan hozirgidek namoyishda ko'rish menga hech qachon nasib etmaydi. (**"Atoiyning tug'ilgan yili"**).

Ushbu parchada ilm uchun yashayotgan, biri yashash uchun ilm olayotgan sintaktik parallelizmi leksik jihatdan qarama-qarshi tuzilgan xiazm usulida shakllantirilgan. Bunday shakldagi sintaktik parallelizmni qo'llash natijasida adib asarlarining badiiy-estetik vazifasini to'la ta'minlab, fikrini aniq va emotsional-ekspressiv ifodalay olgan.

Xulosa shuki, xiazm usuli nutqning eng jarangdor, hissiy-ekspressivligi kuchli, tinglovchi yoki o'quvchining nutq ko'rinishiga diqqatini tortadigan, alohida bir qiziqish uyg'otadigan stilistik figura hisoblanib, uning yordamida shaklan va mazmunan qarama-qarshi narsa yoki voqea-hodisalar ifoda etiladi.

Shuningdek, xiazm insonning doimiy uyg'unlikka, simmetriyaga bo'lgan¹ doimiy intilishini o'zida mujassamlashtirgan qandaydir darajadagi umumestetik kategoriya hisoblanadi.

Salbiy parallelizmida xiazm deyarli domiy usul hisoblanadi:

Yaxshilig' gar qilmasa, bori **yomonlig'** qilmasa,

Kim **yomonlig'** qilmasa, qilgancha bordur **yaxshilig'**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 10-bet)).

Parallelizm hissi odatda oraliq so'zlarining takrori bilan ishlatiladi:

Vahki, hajring o'ti **jismi notavonim** o'rtadi.

Natavon jismimg'a tushgan sha'la jonim o'rtadi.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 109-bet).

Xiazmlarda uning ikkinchi qismida konstruksiya tarkiblari konstruksiyaning birinchi qismiga nisbatan teskari tartibda bo'ladi. Uning izohi esa bunday aniqlikka ega emas, chunki o'zining tashqi geometrik tekisligiga qaramay, murakkab lingvistik tabiatga

¹ Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол.фан.номз...дисс... – Фарғона. 2004. – Б. 38.

ega. Ba'zilar uni a'zolari kesishuvchi ikkitalik antiteza deyishadi, ya'ni unda antiteza va inversiyaning birikmasini ko'rishadi. Boshqalar uni teskari parallelizm deb ta'riflaydi, ya'ni unda, birinchi navbatda, sintaktik parallelizm va inversiyani ko'rishadi.

Joh-u mol ahlida yo'q **mehr-u vafo**,
Bas menga **mehr-u vafo mol** ila **joh**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 12-bet).

Xiazmda ko'pincha urg'u konstruksiya bo'laklari tartibida joylashadi:

Oshiqlarga dunyoda xorlik, zorlik, **malomat**,
Malomatsiz, mehnatsiz **oshiq**man deb aytmasin.

(A.Yassaviy, "Devoni hikmat" 227-bet).

Bu yerda urg'u konstruksiyaning birinchi qismida pasayib boruvchi chiziqda, ikkinchi qismida esa – ko'tariluvchi. Teskari yo'nalish ham bo'lishi mumkin, bunda birinchi qismda urg'u ko'tariluvchi, ikkinchisida esa pasayib boruvchi chiziqda bo'ladi:

Ey meni **yoronlarim**, himmat tuting **imonima**,
Dushmanim **imonima** beradur **do'stlarim**.

(A.Yassaviy, "Devoni hikmat" 235-bet).

Sintaktik parallelizm – bu reduplikator va takrorlanuvchi birlik sifatida sintaktik konstruksiyaning o'zi bo'ladigan sintaksis darajasidagi takror. Ifodaviyligi aynan sintaktik tuzilmalarning takrori bilan erishilgan, tartib bo'yicha leksik takror quyidacha berilgan:

Menki **o'ldum** dahr eliga **oshnolig'** ranjidim,
Qilmag'aymen **oshnolig'**, gar Masih **o'lsun**, yana
Oshnolardin tilarmen aylasam **begonalig'**,
Qayda mumkin bo'lmog'im **begonalarga oshno**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 56-bet).

Biz o'ziga xos she'riy misralarni mos sintaktik shakllantirish sharofati bilan ijod qilinganini payqashimiz qiyin emas.

Yana A.Navoiydan misol keltiramiz:

Munglig' **boshim** ostidog'i **toshimnimu** dey?

Tosh ustidagi g'arib **boshimnimu** dey?

Hasrat suyidin ko'zimda yoshimnimu dey?

O'lmakdan sa'broq maoshimnimu dey?

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 77- bet).

Zahriddin Muhammad Boburga murojaat qilamiz:
Gahi **guldek yuzini** so'zluqdan izlasam,
Gahi shakkar kabi ul **yuzi gulning** la'lidin totsam. (Z.M.Bobur,
Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam...

Shoir Muhammad Yusuf antitezaning original variantini keltiradi:

Shunday bemorlar borki,
To'shakda mixlanib yotar benajot,
Uyalib ketasan **tuzalganingdan**.
Shunday shifokorlar borki,
Tug'ishgan akangday qaraydi senga,

Tuzalib ketasan **uyalغانingdan**. (M.Yusuf, Shifoxonada)

Yuqoridagi M.Yusuf ijodidan keltirilgan namunalarning har ikkalasida ham nafaqat xiazmatik konstruksiyalarni ko'rish mumkin, balki shu stilistik vosita orqali o'zbek mentalitetiga xos jihatlari ham namoyon bo'lgan. Ya'ni birinchi parchada odamzodning hayotida ko'p uchraydigan holatlar, arzimagan kasallikka ham vahima qilib, dod-voy qiladigan insonlarga qarata aytilgandek go'yo.

Shunday bemorlar borki,
To'shakda mixlanib yotar benajot,
Uyalib ketasan **tuzalغانingdan**.

Muhammad Yusuf o'zining "Oq tulpor" she'rida quyidagi xiazmatik jumlaning keltiradi:

Bormi bizdek oshiqlar,
Bahorimda kuz yig'lar.
Qizni o'psam ot yig'lar,

Otni o'psam qiz yig'lar. (M.Yusuf, "Oq tulpor" 140-bet).

Keyingi parchada o'zbek erkaklariga xos jihatlari ko'rsatilgan bo'lib, bu yerda aynan tulporning erkaklari uchun juda ham o'rni beqiyos hamda ular uchun bu jonivor or-nomus, shon-sharaf ramzi ekanligi, hatto uni xotin bilan teng darajada ko'rishini ushbu parchada buyuk shoirimiz juda ham chiroyli qilib tasvirlab bergan. Ikkinchi misrasida esa o'zbek xalqida rashk tuyg'usining juda ham kuchli ekanligi, ayniqsa bu tuyg'u ayollarga xosligini, o'z turmush o'rtog'ini hatto tulpordan ham qizg'anishini quyidagi misrada ko'rsatib bera olgan deyish mumkin.

Qizni o'psam ot yig'lar,
Otni o'psam qiz yig'lar.

Stilistikada yana bir ekspressiv vosita **oksyumoron** mavjud, qarama-qarshilik birinchi qarashda umuman valent bo'lmagan, ma'nosi bo'yicha bir-biriga butunlay zid bo'lgan so'zlarning birikuviga asoslangan usul, masalan: dahshat chiroyli, vahimali darajada xursandman, qomatga keltiradigan jimlik va boshqalar. Oksyumoron she'riyatda kam uchraydigan hodisa emas:

E.Vohidovdan misollar keltiramiz:

Ikki **qoshing** o'sma birlan
Bo'ldi juft nargisli **barg**,
Ikki **barging qoshida** men

Titragayman misli barg. (E.Vohidov, "Barg" 23-bet).

Shuningdek, yuqoridagi misolda xiazmgaga asos bo'lgan leksik birliklarning omonimik holati ham ko'zga tashlanadi. Xiazmgaga asos bo'lgan *qosh* (tana a'zosi) bu yerda qoshning o'sma surilgandagi chiroyini nargis gulining juft bargiga o'xshatgan bo'lsa, keyingi **barging qoshida** misrasida esa *qosh* (old) boshqa ma'noda kelganini ko'rish mumkin. Bunda shoir ikki **qoshing oldida** barg kabi titragayman demoqchi bo'lib, qizning **qoshi** tasvirini shu qadar mohirona boshqa bir tasvirga qiyos etgan.

A.Cho'lpon ijodida esa quyidagi xiazmatik oksyumoronni uchratamiz:

Sir deb saqlayinmi yo yelga **sochay**,
Sochilgan sochingday sochilsa **siring**...

(A.Cho'lpon, Bir tutam sochlaring.)

Vahki, hajring o'ti **jismi notavonim** o'rtadi.

Notavon jismimg'a tushgan sha'la jonim o'rtadi.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 109-bet).

Menkim **o'ldum** dahr eliga **oshnolig'** ranjidim,
Qilmag'aymen **oshnolig'**, gar Masih **o'lsun**, yana
Oshnolardin tilarmen aylasam **begonalig'**,
Qayda mumkin bo'lmog'im **begonalarga oshno**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 56 b.)

Ul **Katta shoirlarga qilmangiz havas,**
Sizga **havas qilsin katta shoirlar.**
Chunki she'r baxtiga ustozlar emas,
Muyassar bo'ladi ko'proq shogirdlar.

(E.Vohidov, "Yosh shoirlarga" 16-bet).

Ushbu kalambur ko'p ma'nolikka, ba'zida so'zlarning metaforik ishlatilishiga tayanadi. To'liq antonim deb bo'lmaydigan antonimlarga keltirilgan misol xiazm yorqinligi bo'yicha qolishmaydi:

Do'st **xato qilsin,**
Qatoridin **xato** lek, **qilmasin,**
Qilmadim bir ish agarchi
Men **xatolardan** bo'lak.

(E.Vohidov, "O'zbekim" 222-bet).

Ko'z yoshim ko'rganda **soy** ham
Sharqirab kulsa ne tong,
Bor mening ko'ksim aro
Toshqinki, hech bir **soyda** yo'q.

(E.Vohidov, "O'zbekim" 81-bet).

Uyquning **oxiri – o'lim.**
O'limning oxiri esa yo'q.
Irmoqning **oxiri – daryo.**
Daryoning dengiz.

(M.Yusuf, "Osmonning oxiri" 100-bet).

Konstruksiya ifodaviyligi va rifmani saqlab qolishning aniq misolida ellipsis imkon beradi, ellipsis – tiklash oson va atrofdagi kontekstdan tushunarli bo'lgan qaysidir gap bo'lagini ataylab tushirib qoldirish.

Gaplarning to'liq tarkibi saqlab qolinganda she'rning ritmomelodik strukturasi buzilishi mumkin, taqqoslaymiz:

Dildor, **kechir ko'rib qolganim** uchun,
Ko'rmaganim uchun **kechir** gohida...

(M.Yusuf, "Saylanma" 63-bet).

Koshki, bo'lsaydim **vafosiz**
Oshinlardan bo'lak,
Oshinlar yo'q, netay,
Bu **bevaf**lardan bo'lak.

(E.Vohidov, "O'zbekim" 225-bet).

Antiteza yuqorida keltirilgan misralar kabi bunchalik yorqin bo'lmasligi mumkin, lekin xiazmni yuzaga keltiruvchi qismlar, ikki gap orasidagi qarama-qarshi qo'yishning mavjudligiga shubha yo'q.

Lingvistik adabiyotda xiazmning xususiyatlariga bag'ishlangan qandaydir ishning mavjudligini ta'kidlaymiz, bu narsa fanning ushbu yo'nalishdagi bo'shlig'ini to'ldirishga qaratilgan urinishning muhimligini bildiradi. Ushbu ish – qiyosiy aspektda o'zbek va fransuz tillari xiazmatik konstruksiyalarini o'rganish ishida birinchi qadam.

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida xiazmning quyidagi izohini aytish mumkin: xiazm ham transformatsiya, ham dastlabki forma berilgan transformatsiya bo'luvchi sintaktik figura, transformatsiya bittadan uchtagacha operatsiyani o'z ichiga oladi:

- 1) elementlarni ko'zguli simmetriya prinsipi bo'yicha joylashtirish (qayta qo'yish) (teskari parallelizm);
- 2) sintaktik vazifalari almashishli ikkilik leksik takror;
- 3) polisemik so'z mazmunining o'zgarishi yoki so'zlarning birini uning omonimi dastlabki shakli bilan almashish.

Birinchi operatsiya sodda sintaktik xiazmni yaratish uchun zarur va yetarli, birinchi va ikkinchisi semantik murakkablashgan xiazmni yaratadi, uchala birga xiazmatik kalamburni yaratadi.

Xiazmatik konstruksiya sodir bo'ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo'lmagan elementlari qanchalik o'ng tomonda ko'p takrorlansa, shunchalik xiazmning shakli yorqinroq chiqadi, shunchalik butun konstruksiya simmetrik konstruksiyaga aylanadi.

Strukturaning maksimal simmetrikligi o'ng va chap qismlarning leksik to'ldirilishi kontekst bilan ajratilmagan, to'liq yoki deyarli to'liq mos keluvchi xiazmlarda nomoyon bo'ladi:

Biz o'zimizni yomon his qilganimizda shunday o'ylaymiz:

Qayerdadir kimgadir esa yaxshi. O'zimizni yaxshi his qilayotganimizda esa biz o'ylaymiz: **Qayerdadir kimgadir esa – yomon.** (So'zlashuv nutqidan)

Lekin biz ko'pgina holatlarda xiazmatik qolipning mukammal simmetriyasidan ba'zi bir chetlashlarni qayd etdik, sababi bu yerda oldimizda eng asosiy o'ziga xosliklaridan biri, D.S.Lixachyov ko'rsatganidek, to'liq bo'lmagan simmetrik tuzilma hisoblangan stilistik simmetriya turibdi: simmetriyaning har ikki a'zosi bir narsa haqida gapirayotgan bo'lsa ham, ammo turlicha ifodalamoqda.

Simmetriyaning ikkita a'zosidagi bunday nomutanosiblik poetik tasvirning ilmiy tasvirdan xarakterli farqi bilan bog'liq. Birinchisi, har doim bir muncha "noaniq": metafora "noaniq", metonimiya noaniq, har qanday badiiy obraz noaniq. U dinamik, har doim o'quvchi, eshituvchi yoki tomoshabin tomonidan to'ldiriladi. Ushbu his qilishdagi noaniqlik sharofati bilan san'at asari ma'lum darajada birgalikdagi ijodiy ish hisoblanadi. Shu sababli, san'at asarida oldimizga qo'yilgan qandaydir vazifani yechadigandaymiz.

Shu joyda umumiy qonuniyat paydo bo'ladi, uni J.Dyubua ritorikasida shunday shakllantiradi: ***"Aytish mumkinki, figuralarsiz poeziya yo'q"***.

Aytish mumkinki, affektiv sintaksis asosida yotuvchi xiazm simmetriya prinsipini maksimal darajada o'ziniki qiladi. Xiazmning ko'zga tashlanuvchi hashamdorligi, uning o'ynoqi, dinamik xarakteri va bir obrazlilikda ko'p obrazlilik imkoniyati so'z ijodkori uchun xiazmni o'ziga jalb qiluvchi figuraga aylantiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "xiazm" tushunchasi turli darajadagi murakkablikning uchta oson differensiyalangan turlarini o'z ichiga oladi. Eng oddiysi – sof sintaktik xiazm bo'lib, buning uchun faqat sintaktik parallelizm bilan birgalikda to'liq inversiya talab qilinadi. Bunday xiazmning o'ng tomoni sintaktik tuzilishida chapga simmetrik bo'lib, gapning barcha tarkibiy chap tomonini teskari tartibda takrorlaydi. Masalan:

a. ***Shodliksiz sevgi bo'lsa, qayg'usiz ayriliq bo'ladi.*** (Said Ahmad, "Kechikkan sevgi" hikoya);

b. *Bu havo shu qadar aks sado bersa, shunchalik vasvasaga soladi.* (O'. Hoshimov).

c. *Sur une barricade, au milieu des pavés
Souillés d'un sang coupable et d'un sang pur lavés
Un enfant de douze ans est pris avec les hommes* (Victor Hugo, *Sur une barricade, au milieu des pavés*, 246-p).

d. *On aime sans raison, et sans raison l'on hait* (Citation de Jean-François Regnard sur Aime, Raison et Hait).

Sintaktik xiazmning 2 qismi ham bir-biriga zid bo'lishi mumkin (*a, c, d*, misollari), ammo qolgan misollardan bu unchalik ham shart emasligi ko'rinib turibdi¹. Ushbu tur uchun xiazm va takrorlash ham shart emas (zero, misollarimizda *a* va *b* uni o'z ichiga olmaydi).

Semantik jihatdan murakkablashgan xiazmda yuqorida sanab o'tilgan tegishli belgilarga yana ikkitasi qo'shiladi: invertlangan elementlarda 2 marta leksik takrorlash va bu elementlar o'rtasidagi sintaktik vazifa almashinishi:

Eng yaxshi odam, asosan, o'z fikri va boshqa odamlarning his-tuyg'ulari bilan yashaydigan kishidir.

Eng yomon odam – boshqalarning fikrlari va o'zining his-tuyg'ulari bilan yashaydigan odam (Xalq hikmatlaridan).

On croit que le style y est une manière **compliquée** simple de dire des choses **simples**, alors que c'est une manière **simple** de dire des choses **compliquées** (Jean Cocteau, *On croit que le style est...*).

Bu yerda, ayniqsa, xiazmning ekspressiv salohiyati qanchalik kuchli ekanligi aniq ko'rinadi:

Mashaqqatning oxiri rohat,

Rohatning oxiri yana mashaqqat.

(M.Yusuf, "Osmonning oxiri")

Onalar qizlarin tanimay hayron,

Qizlari onalarin ismin unutgan.

(M.Yusuf, "Oqibat")

¹ Xiazm antiteza bilan birlashtirilgan hollarda, xiazmatik shakl unga o'ziga xos keskinlik va ma'nodorlikni beradi. "Von der Form des Chiasmus gewinnt die Antithese ihre schärfste Zuspitzung und ihren höchsten Glanz" [Schneider 1959: 410]. Ammo bu ikkinchi turdagi xiazm bilan ko'proq bog'liq.

Nedan ranjidingiz jon singillarim,
Qaboqlar uyuldi, chimirildi qoshlar.
Turkman tushunmay **tosh otsa**, chidadim,
Ammo yomon botdi siz **otgan toshlar**.

(M.Yusuf, "Sodda Muhammadman")

Bu gapning ma'nosi uni tashkil etuvchi leksemalarning ma'nolari yig'indisiga teng emasligi stilistik jihatidan o'qiyotganga ham ayon. Leksik takror qisman bo'lishi, ya'ni butun so'zga emas, balki faqat asosga ta'sir qilishi mumkin:

O'ngdagi qo'shnim... – xunuk chiroyli yoki chiroyli xunuk deyish mumkin bo'lgan zamonaviy ko'rinishdagi shaxs (Said Ahmad, "Hajviyalar" 94-bet).

Boshi tugaydigan **oxirning boshi** qayerda? (Ne'mat Aminov, "Yelvizak". 284-bet).

Mieux vaut **vivre sa mort** que de **mourir sa vie**. (Citation d'Hervé Bazin sur Vie, Bien et Vivant).

Va nihoyat, xiazmatik so'zlashuvda dastlabki 2 turni tavsiflovchi xususiyatlarga ma'no o'zgarishi qo'shiladi. Xiazmning chap tomonida bir aniq ma'noda qo'llangan ko'p ma'noli so'z uning o'ng tomonida boshqa ma'noda takrorlanadi:

*Bu dunyoda ikki baxtsizlik bor: **Pastda zulmatning kuchi**, / **Yuqorida esa kuchning zulmati***. (O'.Hoshimov, "Tanlangan asrlar" 118-bet).

Va pas croire que **le juste milieu y est le milieu juste** (Catherine Bugnard, La plaisante sagesse)

Poule: Brr... Il fait un froid **de canard**. **Canard:** Vous avez bien raison, j'en ai la chaire **de poule**. (folklor).

O'yin takrorlanuvchi elementning erkin va bog'liqlik ma'nolarining to'qnashuviga asoslangan. Boshqa hollarda xiazmatik so'z birikmasidagi takrorlash faqat rasmiy tusga ega: o'ng tomonda faqat tovush shakli, chapda ishlatiladiganga o'xshash tovush kompleksi takrorlanadi, lekin aslida bu butunlay boshqacha omonim so'z (ko'pincha omofon) yoki hatto paronim:

*Aytgancha, **kichik ahmoq** emassiz, garchi **ahmoqligingiz kichik*** (Said Ahmad, "Hajviyalar" 112-bet.).

Bu qandayin ko'rgulik savdo,
Do'ppi kiymay qo'ydi xaloyiq.
Boshqa **loyiq do'ppi** yo'qdir yo –
Bosh qolmadi **do'ppiga loyiq**.

(M.Yusuf, "Do'ppi" 168-bet).

Il ya des **toiles des maîtres et les mètres de toile** (Eugène Labiche, Courrier des théâtres).

Xiazmatik so'zlashuv murakkabroq shaklga ega bo'lishi mumkin, masalan, omonimiya, paronomaziya¹, qisman takrorlash bilan polisemiyaning qorishtirib yuborish natijasida kontaminatsiya hodisasi ro'y beradi, masalan:

*Biz **qalb yetishmovchiligidan ko'ra, yetishmayotgan qalbdan** azob chekamiz* (O'.Hoshimov, "Tanlangan asarlar" 335-bet).

Jak Preverning quyidagi misolida semantik jihatdan murakkab xiazm omonimik so'z bilan qorishtirilgan, ***est dans – aidant: La mort est dans la vie/la vie aidant la mort/ la vie est dans la mort/la mort aidant la vie*** (Jacques Prévert, Art abstrus). Eng keng tarqalgani – ikkinchi turdagi xiazm.

Shunday qilib, umuman olganda, AB/BA A va B ifodasining barcha uchta turi uchun: birinchi holatda, faqat xiazmning chap va o'ng qismlarida turli leksemalar bilan ifodalangan jumla a'zolari, ikkinchisida esa, leksemalarning o'ng va chap qismlarida sintaktik vazifalari o'zgarishi bilan takrorlangan hol, leksemalar (yoki leksemalarning ildizlari), uchinchi holatda, omonim yoki polisemik leksemalarning chap va o'ng qismlarida takrorlangan, sintaktik vazifalari va ma'nosining o'zgarishini anglatadi.

Xiazmning o'ng va chap qismlari go'yo asl shaklni ifodalaydi (*Chiroyli emas...*) va o'zgartiradi (... *lekin yetarlicha chiroyli*). Transform xiazmda natija sifatida emas, balki jarayon sifatida beriladi.

Antiteza geometrik to'g'ri sintaktik qurshovida shoir, yozuvchining o'z o'quvchisi yuragiga yetib borishi uchun imkoniyatlarini yana ham ko'proq oshiruvchi amaliy vositadir. O'z

¹ Sobirova N.K. Ingliz va o'zbek tillaridagi paronimlarning semantik-stilistik xususiyatlari. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. ...avtoref. – Toshkent: 2023. – B.14.

navbatida, gapga ustamonlik, xiazmatik konstruksiyalarning yorqinligi – antitezaning to‘g‘ri effekti, agar sintaktik tartibga solish ritm aniqligi, ohangi, bo‘g‘in chiroyini bersa, kalambur effekti uchun xiazm leksik vositalarning ishtirokini taqozo etadi.

M.T.Abdupattoyev xiazmga quyidagicha ta’rif bergan: “Xiazm nutqning turli shakllarida, turli uslub va janrlarda sintaktik sath hodisasi sifatida yuzaga keladi va qurilmalarning semantik-sintaktik strukturasini ham belgilaydi”¹. Xiazmni voqelantiradigan sintaktik qurilmalarning tuzilishi va funksional tarkibi turlicha bo‘lgani tufayli xiazm nutqda kontakt yoki distant holatdagi qurilmalarda kuzatilishi mumkin. Biroq kontakt yoki distant holatda kelishidan qat’i nazar, poetik nutqqa ekspressiya olib kira oladi va yuklatilgan uslubiy vazifani to‘laqonli bajaradi:

Men – Siz,

Siz – Men va Samo,

Tangri sizni ko‘p ko‘rdi². (Iqbol Mirzo, Seni kuylayman, 125-bet).

Xiazmatik konstruksiya sodir bo‘ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo‘lmagan elementlari qanchalik ko‘p o‘ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning arxitektonikasi yorqinroq chiqadi va butun konstruksiya simmetrikka aylanadi.

¹ Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент. 1998. – 130 б.

² Yuqoridagi manba.


II BOB. O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZM HODISASINING STRUKTUR-SEMANTIK TARKIBI

2.1. O'zbek va fransuz tillarida xiazmning morfo-sintaktik tavsifi

Chog'ishtirilayotgan tillarda xiazmatik konstruksiyalarning morfo-sintaktik, struktural-semantik modellarini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa bo'lib, unda ham xiazmning shakllanishida gap tarkiblarining o'zaro munosabatlari asosiy rol o'ynashini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu ma'noda xiazmli qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi sintaktik bog'lanish turlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi, vaholanki, bunday holatlarda quyidagi to'rtta mantiqiy-semiotik variantlarni ko'rib chiqamiz. Barcha aforistik xususiyatga ega binar bayonotlarga o'xshab, xiazmlar to'rtta mantiqiy-semiotik invariantlarga bo'linadi:

IMPLIKATSIYA

Birinchi invariant obyektlar va ularning xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi:¹



*Quand on n'a pas **ce que l'on aime**, il faut **aimer ce que l'on a***
(Roger de Rabutin, comte de Bussy,).

Tu existes par tes liens. Tes liens existent par toi. (Antoine de Saint-Exupéry, Citadelle)

*Partout où **il y aura beaucoup de machines pour remplacer les hommes, il y aura beaucoup d'hommes qui ne seront que des machines.*** (Louis de Bonald)

*Nafaqat **karlik soqovlikka, balki soqovlik ham karlikka** olib boradi: jim turishni bilganlar, odatda eshitishni bilmaydilar*
(Sh.Xolmirzaev, "Tanlangan asarlar" 114-bet.).

Men senga tegmay,

Sen menga tegma. (E.Vohidov, "Sen menga tegma")

¹ Xiazmli modellarda "M" – Gapning birinchi qismlari; "N" – ikkinchi qismlari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi belgi vazifasida kelgan.

*Sevgim mening, men bilmagan, **mening sevgim**.*

(M.Yusuf, Ay yuzingni bir ko'rmadim).

***Manga sen-u senga men bo'ldik** armon,*

Endi seni izlab qaydan toparman...

(M.Yusuf, Armon)

Men uning qanotin silarman ma'yus,

U mening kaftimni silar mehribon.

(M.Yusuf, Kapalak qo'limga qo'nadi bir kun...)

Mashqda **qiyin** – jangda **oson**, mashqda **oson** – jangda **qiyin**
(A.Suvorov, Tarix).

On n'aime pas une femme pour ce **qu'elle dit** ; on aime ce **qu'elle dit** parce **qu'on l'aime**. (A.Morua, On n'aime pas une femme pour...)

Yuqoridagi o'zbekcha va fransuzcha misollarda, xiazmning birinchi gap qismlari ikkinchi qismiga mantiqan bog'langan hamda uni to'ldirib, o'zaro yaxlit fikrni ifodalab kelgan.

PREFERENSIYA

Ushbu mantiqiy-semiotik invariant tashkil etuvchi xiazmlar ikkita obyektни qiyoslashni ifodalaydi, bunda ulardan biriga ustunlik beriladi:

M > N

*Il est bien plus beau de **savoir quelque chose de tout** que de **savoir tout d'une chose**.* (De Blaise Pascal, Discours sur les passions de l'amour)

*Do'zax aytur: "Man ortuq, **tarso juhud** manda bor,*

***Juhud tarso** oldida turluk azob-so'zon bor".*

(A.Yassaviy, "Devoni hikmat"230-bet).

***Oshiq**larga dunyoda xorlik, zorlik **malomat**,*

***Malomatsiz** mehnatsiz **oshiq** man deb aytmasin.*

(A.Yassaviy "Devoni hikmat"227-bet.)

***Turklar xatti** nasibing bo'lmasa, **Bobur** ne tong,*


***Boburiy xatti emasdur, xatti sig'noqi** durur.*

(Bobur, Ruboiylar va g'azallar)

Ushbu invariantlarda esa xiazmning ikkala gap qismlaridan birining ustunligi, ya'ni biridan ikkinchisining ustunligini ko'rish mumkin. Masalan, bir narsa haqida hamma narsani bilishdan ko'ra, hamma narsa haqida biror narsa bilish juda chiroyli. Ushbu misolda hamma narsa haqida biror narsa bilish juda chiroyli degan fikrga ustunlik berilyapti. Bundan ko'rinib turibdiki, xiazmning biz bilmagan juda ko'p invariantlari bor.

KONTROPOZITSIYA

Ushbu mantiqiy-semiotik invariant kontrast, ya'ni qarama-qarshilikni aks ettirgan xiazmlarda namoyon bo'ladi:



En petite cheminée on fait grand feu, et en grande petite feu.
(proverbe)

Le sot dit ce qu'il sait, mais le sage sait ce qu'il dit. (proverbe)
Il suffit d'un gramme de merde pour gâcher un kilo de caviar.
Un gramme de caviar n'améliore en rien un kilo de merde.
(Citation de Roland Topor sur Rien, Merde et Caviar)

Buyuklar oldida – kichik, kichiklar oldida – buyuk. (maqol)
Past haqiqatlar va baland yolg'onlar bo'lmaydi, faqat baland haqiqatlar va past yolg'onlar bo'ladi (O'.Hoshimov. "Tanlangan asarlar" 54-bet).

Quyidagi misoldan ko'rinib turibdiki, xiazmning birinchi gap elementlari ikkinchi gap qismlariga butunlay teskari fikrni ifodalab keladi, go'yo antiteza kabi, ammo bu invariantda fikrlar qarama-qarshiligini aks ettiradi.

Ayol kishi hech qachon u uchun qilinayotgan harakatlarni sezmaydi. Ammo u uchun qilinmayotgan harakatlarni doim sezadi (O.Yoqubov, "Ulug' va sadoqatli muhabbat" 124-bet).

Bu yerda *u uchun qilinayotgan harakatlarni sezmaydi* jumlasiga *u uchun qilinmayotgan harakatlarni doim sezadi* jumlasini kontrastni yuzaga keltirgan. Bir qarashda ular mantiqan bir-birini to'ldirib kelgan, birinchisiz ikkinchisi hech qanday mantiqqa ega emas.

EKVIVALENSIYA

Ushbu mantiqiy-semiotik invariantga obyektning o'ziga xos o'xshashligini aniqlovchi xiazmlar kiradi:

$$M = N$$

*Et nous sommes encore tout mêlés l'un à l'autre. / Elle à **demi vivante et moi mort à demi**.* (Victor Hugo, Voilà longtemps que celle avec qui...)

*Qui **craint de souffrir**, il **souffre déjà ce qu'il craint**.* (Michel de Montaigne, Qui craint de souffrir, il souffre...)

Nafas olayapman – demak sevaman! Men sevayapman – demak yashayapman! (Suqrot)

Yuqoridagi misolda esa ikkala gap ma'nosi turlicha bo'lsa ham, bir ma'noda ifodalangandek. Masalan; **nafas olish** bilan **sevish** holati bir-biriga yaqin, go'yo birisiz biri mavjud bo'lolmaydigandek.

Xuddi shu invariantga ikki tomonlama taqqoslashlar ham kiradi:

*Un héros avec **une langue** acérée est comme une épée, et **une épée** est aussi tranchante et tranchante qu'**une langue**.* (dans la tête de Cyrano de Bergerac)

*Ayol **yopinchig'iga**, go'yo **sirlariga bekingan**. **Yopinchig'ida**, **sirlaridagi kabi bekingan**.* (O'.Umarbekov, Xatingni kutaman)

***Cette fleur** nest pas sortie du sable /comme **ce verre** / **Ce verre** n'est pas sorti de terre/ comme **cette fleur**.* (Jacques Prévert, Fleur Mercredi)

***La mer** est forte comme **un coeur** / **Mon coeur** est doux comme **la mer**.* (Paul Verlaine, Œuvres posthumes).

Yuqorida aytib o'tilganidek, ma'no orttirilishi, gipersemantizatsiya sodda sintaktik xiazmda namoyon bo'ladi. Vazifalar almashinuvi yo'q, faqat o'rin almashinuvi bor. Bunga misol tariqasida A.Navoiy asarlaridan quyidagi xiazmatik konstruksiyalarni keltiramiz:

- 1) Menkim **o'ldum** dahr eliga **oshnolig'** ranjidim,
Qilmag'aymen **oshnolig'**, gar Masih **o'lsun** yana.

Oshnolardin tilarman aylasam **begonalig'**,
Qayda mumkin bo'lmog'im **begonalarga oshno**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 56-bet)

2) Hur yo'q, yo'q, ne hur, balki pari,
Ne **pari balki** ofati bashari.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 152-bet)

3) Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumroh?
Dedi: **majnun** vatanidin **qayda** ogoh!

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 148-bet)

Xiazmatik tuzilma ham initsial, ham final ibora ma'nolarini boyitadi. Leksik to'ldirish bo'yicha mutloq bir xil bo'lib, semantik ravishda ular faqat qisman moslashadi. Ko'rinadiki, ikkinchi misolda ikkita xiazm mavjud bo'lib, bular semantik jihatdan bir-birini to'ldirib kelgan.

Ba'zi hollarda xiazm qandaydir gaplar, iboralar, sentensiyalar va maqollarning rivojlanishi sifatida vujudga keladi. Alfred de Vineda Bualo xabarlaridan keltirilgan sitataning xiazmatik o'zgaruvchanligini kuzatish mumkin:

*Rien **n'est beau que le vrai**, dit un vers respecté: / Et moi, je lui répons sans la crainte d'un blasphème: / **Rien n'est vrai que le beau, rien n'est vrai sans beauté.** (Alfred Musset Charpentier - Poésies nouvelles)*

Keyingi misolda frazeologik sentensiyalarning yo'q bo'lib ketishi yuzaga keladi: "Qachongacha mahorat? Mahorat – uzoq muddatga..."

"Shoir bo'lmasliging mumkin, lekin fuqaro bo'lishga majbursan":/ Shoir bo'lishga majbur emassan, / Ammo tanqidchi ham bo'lolmassan.

Odatda san'at bilan shug'ullanadigan mutaxassislar *"San'at qurbonlik talab qiladi"* iborasini tez-tez ishlatishadi, ammo bu iborani semantik jihatdan yana ham rivojlantirish mumkin: *"Fan qurbonlikni san'atdan kam darajada talab qilmaydi. O'zi nima qurbonlik talab qilmaydi? Faqat qurbonlargina hech nima talab qilmaslar"*.

Ba'zida bunday transformatsiya butun boshli gapga yumoristik xarakter beradi, masalan, restoranning reklamasida:

*Si vous ne voulez pas **vivre pour manger, mangez au moins pour me faire vivre.***

Xuddi shunday ta'sir bilan yumorist Alfons Alle maqolni transformatsiya qiladi:

Partir, c'est mourir un peu... Mais mourir c'est partir beaucoup... Bu usulda paydo bo'lgan xiazmlarda ma'no orttirilishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ba'zi hollarda, xiazmning bir qismi semantik jihatdan ortiqcha bo'lib, boshqa asosiy qismlarga modal ohang berish uchun ishlatiladi. Protogorning mashhur *"Mashg'ulotsiz san'at yo'qdir, san'atsiz mashg'ulot ham yo'q"* gapida birinchi qism (*mashg'ulotsiz san'at yo'qdir*) alohida olinsa, ma'nosiz bo'lib qoladi, umuman olganda u chap tomonga e'tiborni jalb qilgan holda muhim vazifani bajarib, uning ma'nosini modallik bilan boyitadi.

Bitta xiazmatik ko'rinish uchun bu mantiqan ortiqcha va nointellektual bo'lib, emotsional ma'lumot yoki ziddiyatning o'zi, ya'ni xiazmning qismi emas, balki butun xiazmatik tuzilma bo'lib chiqadi. Bu xiazmning ma'nosi ushbu so'zma-so'z ifodaga tushadi: "Ma'lum bir shaxs ikki ish bilan yomon (talab darajasida emas) shug'ullanadi (ikki mutaxassislikka ega)". Va iborada shaklning ortiqchaligi gapga, nutq obyektiga nisbatan subyektning istehzo ohangini beradi.

Xuddi shu qolip hozirda nisbatan zamonaviy parodiyada muvaffaqiyatli ishlatilgan: Maslahatlarimni mayli tinglama,/ Lekin, gaplarimdan aslo ikkilanma./ Rejissyorlar ichra – zo'r shoirsan,/ Shoirilar ichra – zo'r rejissyorsan.

Xiazmatik shakl nafaqat ma'no orttiradi, balki parodiya qilish asosi sifatida ishlatiladi. Aynan shu sifatda xiazm, K.Roshforning "Les Roses pour Morrison" romanida universitet sxolastikasi bilan to'lgan filolog talaba nutqining parodiyasida aks etadi:

*Vous croyez qu'il **va mourir**? – ça dépend s'il signalait le signifié de l'existence ou le signifiant de l'**existé**. (Jacques Ricot, Dans Philosophie et fin de vie)*

XIX asrda bir fransuz komediyasida qoyilmaqom aks etganidek, bor-yo'g'i uch muhim so'z bilan bunday fikrni tushuntirib bersa bo'lar ekan: *"Pour une année où **il y a des***

pommes, il n'y a pas de pommes: mais pour une année où il n'y a pas de pommes, il y a des pommes" (Anicet Bourgeois et d'Ennery "La Fille du paysan").

Semantik-grammatik aktualizator rolini qarshi qo'yiladigan birlik va ko'plik yoki o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni o'zi ichiga olishi mumkin:

Qui a une femme, a toutes les femmes; qui a toutes les femmes, n'a pas de femme. D'autres ont planté ce que je mange, je plante ce que d'autres mangeront.)

Xiazm juda ko'p morfologik modellarga ega. Xiazmatik munosabatlar gapning har xil turdagi bo'laklariga xos. Shu kabi to'rtta umumiy holatni ta'kidlab o'tamiz:

(1) Bir grammatik kategoriyada leksemalar orasida xiazmatik operatsiya bajarilishi:

$$N_1 \longleftrightarrow N_2$$

Fan bilan mehnat ikkovlon qo'l berishgan, ittifoq, Erkin-erkin yayrashib ijod etar ***mehnat va fan!*** (Cho'lpon)

Le pouvoir de l'amour et l'amour du pouvoir. (Citations de William Gladstone)

Quand on cède à la ***peur du mal***, on ressent déjà le ***mal*** de ***la peur***. (Pierre Augustin, Le Barbier de Séville)

$$V_1 \longleftrightarrow V_2$$

Je ***crains*** ce que je ***veux et veux*** ce que je ***crains***. ("Le crime fait la honte et non pas l'échafaud." (Thomas Corneille, Le Comte d'Esse)

Topmoq yo'qotmoqdir, yo'qotmoq topmoq. (M.Yusuf, Onajon)

$$Pr_1 \longleftrightarrow Pr_2$$

Biz ulardan kulsak, ichida Ular bizdan kuldi.

Bu kasallikni yo'q qilmasak, Juda uyat bo'ladi. (E.Vohidov, "Uyalchanglik" 102-bet).

Personne ne **me** connaît mieux que **toi**/
Personne ne **te** connaît mieux que **moi**. (Paule
Eluard, *La vie immédiate*).

Men senga tegmay,
Sen menga tegma. (E.Vohidov, "Uyalchanglik"
125-bet)

Adj₁ ↔ Adj₂

Il dit qu'elles les bestioles) lui ressemblent:
alternativement **obscures et lumineuses,**
lumineuses et obscures. (Montherlant, *La*
Reine morte, p. 209).

A jeune homme - vieux cheval, à cheval
jeune - vieil homme. (maqol)

Yigitga **og'ir** narsa ham **yengil** tuyular,
Keksaga **yengil** narsa ham **og'ir** tuyular.

(maqol)

Prep₁ ↔ Prep₂

Je suis **pour** tout ce qui est **contre et contre** tout
ce qui est **pour**. (Pierre Dac, Citation)

O'zbek tilida predloglarning mavjud emasligi,
ularning o'rnini kelishiklar bajarib kelganligi
sababli bu strukturaga misollar aniqlanmadi.

(2) Xiazmatik operatsiya turli grammatik
turkumdagi leksemalar bilan turli birikmalarda
uyg'unlashadi:

N ↔ Pr

Je suis de cette **foule**. Cette **foule** est de **moi**
(Saint-Exupéry, *Vol de nuit*)

*Alvido kuz shitirlashi, / **men daraxtzorda** emas,
daraxtzor menda. (Xurshid Do'stmuhammad, *Donishmand Sizif*,
148-bet)*

N ↔ V

Tel croit *guiller Guillot* que *Guillot le guille*.
(poverbe)

Adj ↔ V

*On ne saurait être **sage** quand **on aime**, ni **aimer***
*quand on est **sage**.* (Publius Syrus, Citations)

Katta shoirlarga **qilmangiz** havas,
Sizga **havas qilsin katta** shoirlar. (E.Vohidov, "Yosh shoirlarga" 45-bet).

Adv ↔ Adj

Ayant usé **le vieil empire**, les hommes, sans le
connaitre, réclamaient **l'empire nouveau**. (Saint-
Exupéry, Citadelle, p. 309)

N ↔ Adj

Yomonning yaxshi so'zidan,

Yaxshining yomon so'zi yaxshi. (maqol)

(3) Turli grammatik kategoriyalarning bir ildizli leksemalari xiazmatik munosabatlarni hosil qiladi: ko'pincha – ot va sifat.

Biroq sen qo'lingdan tutmoqchi bo'lgan otang va onangga so'z bermay, mustaqil pildirading. Men sening shu ondagi siymongda **Ulug'vor Insonni** va **Insonning Ulug'vorligini** ko'rdim, hayrat aralash quvondim, ko'nglimga huzurbaxsh taskin indi... Dunyoga, mening dunyomga ma'no bag'ishlading, o'g'lim!. (U.Hamdam, "Yolg'izlik" 76-bet).

Quand la *vérité* n'est pas *libre*, la *liberté* n'est pas *vraie* (Jacques Prévert, Citations)

Point de beauté profonde sans profonde sensualité (Maurois, Roses, p. 184)

et c'était attendrissant de voir ces bêtes, ces bêtes libres dans *la libre étendue* (Mentheriant, Pasiphat, p. 111)

Elle n'était pas seulement force pure; elle était également *pure signification* (Le Porrier, Demoiselle, p. 88).

Puisque c'est maintenant seulement que m'apparaît *la clef de route véritable et la véritable signification* (Saint-Exupéry, Citadelle, p. 82).

Bu yerda boshqa modellar ham mavjud:

V ↔ N

Shariatda tajriddur **dunyasini tark etmak**,

Tark etmayin dunyoni Haqni suydin demasin.

Tariqatda **tan jonin tark etmagi** tajriddur,

Tark etmayin tan jonni tajrid bo'ldin demasin.

(Ahmad Yassaviy, "Devoni hikmat" 227-bet).

V ↔ Adv

Après avoir **généralisé universellement** et **universalisé généralement**, / il passa à l'examen du monde (Daninos).

Je **m'entétai doucement**, et **doucement** on **me refuse** (Green, Partir, p 276)

Oz ekib ko'p olganni dehqon derlar,

Ko'p ekib oz olganni hammol derlar. (maqol)

Il salissait partout, dit-elle, **riant à demi, à demi s'excusant** (Mandiargues, Muste, p. 26).

Yashirin xotira **jimgina jazolaydi** / **Sokin** vijdon **yashirin jazolaydi**. (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi" 67-bet).

Adv ↔ V

Mais quand on voit quelqu'un **se dresser si théatralement** pour si **théatralement crier** pitié, on se dit. (Conchon, Apprenti, p. 237).

Bu so'lim maskan o'zining xursand qiluvchi zerikishi va **zerikarli xursand qilishi bilan ma'lum** (To'lqin Eshbek, hikoyalar, 52-bet).

(4) Xiazm konversiya asosida

N ↔ Adv

ham quriladi:

Il ne suffit pas de **faire le bien**, il faut encore **le bien faire**. (De Denis Diderot, Citations)

N ↔ Adj

Qu'est-ce qui est vrai? Allez vous y retrouvez parmi **le faux vrai, le vrai faux**, le vrai vrai et le faux faux (Citations de Armand Salacrou). Certains se font de la **poésie** une **idée si vague** qu'ils prennent **ce vague pour l' idée** même de la **poésie**. (Citation de Paul Valéry sur Poésie, Font et Idée)

Unda yomonlikka nisbatan yaxshi xotira va **yaxshilikka nisbatan yomon xotira bor edi** (Tohir Malik, "Odamiylik mulki" 345-bet).

Yuqorida keltirilgan barcha misollardan ko‘rinib turibdiki, sintaktik nuqtayi nazardan xiazm shakllarning noodatiyligi bilan ajralib turadi. U nominativ gapning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi; aloqa yoki hatto distant (uzoq) interpozitsiya (o‘ziga xos joylashuv) ga ega ikkita oddiy doira ramkasida; parataktikada bog‘lovchilar bilan va bog‘lovchilarsiz; barcha turdagi ergash gaplar bilan gipotaktikada (ko‘pincha boshqalarga qaraganda ergash gaplar, izohlovchi, shartli va temporal ergash gaplar); parataksisni gipotaksis bilan uyg‘unlashtirgan gaplarda ham uchraydi. Bunday holatda, ichida tarkibiy qismlar o‘rni almashgan chegara bo‘lib ot so‘z turkumi, fe‘l guruhi, sodda gap, bosh va ergash gap, bosh va ergashgan gaplardan iborat komplekslar xizmat qiladi.

Sintaktik vazifalar almashinuvida xiazm hosil qiladigan sintaktik munosabatlar yoki morfologiya shakli o‘zgarishi bilan murakkablashtiriladigan elementlar bo‘lishi mumkin. Xiazmatik munosabatlar ikkita alohida gap bo‘laklari orasida bo‘lgani kabi butun gaplar orasida ham mavjud bo‘ladi.

Xiazm quriladigan sintaktik modellar ko‘lami juda keng. Eng ko‘p uchraydigan modellar quyidagilardir:

S ↔ C.O.D	<i>Etikdo‘z pishiriq pishirishi, / pishiriqchi esa etik yamashi falokat</i> (M. Do‘st Muhammad). Tout homme sait que <i>les autres</i> se trompent en le jugeant, mais non qu’il se trompe en jugeant <i>les autres</i> (Citations de Paul Valéry sur Poesie).
-----------	--

S ↔ Attr	<i>Tarbiyachi mansabdor shaxs emas, lekin u mansabdor shaxs bo‘lsa, demak u tarbiyachi emas.</i> (“Pedagogika,” darslik) Le roman est <i>l’histoire</i> du présent, tandis que <i>l’histoire</i> est le roman du passé. (De Georges Duhamel, Essai sur le roman).
----------	---

S ↔ C.O.I	<i>Bog‘chalar – otlarga emas, otlar – bog‘chaga</i> (maqol). <i>Toutes pour tous et tous pour toutes./Chascune pour chascun commune/Et</i>
-----------	--

chascune commun à chascune. (Guillaume, Roman de la Rose, 218-p).

Xiazmning 3-turida xiazmatik soʻz oʻyini (kalambur)da, baʼzida qandaydir morfologik va sintaktik modellar qismining ongli “sinishi” hosil qilinadi. Masalan: $N_1 - N_2$ birikmasi chap qism oddiy xiazmatik transformatsiyasidan oʻng qismga $N_2 - N_1$ ni beradi, soʻz oʻyinida boʻlsa, toʻsatdan $Prep_1 (N_2) - N_1$: “*Sanʼat yaqin, yoki yaqin sanʼatmi?*” (Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati). Yoki boshqa “sinish” modeli: *assimiler les gens de bien à bien des gens.* (Pierre Daninos, Citations)

Koʻpincha tashqi, fonetik va grafik simmetriya saqlanib qolingan hollarda morfologik va sintaktik (keyinchalik semantik ham) simmetriyalar buziladi. Xiazm qoidaga koʻra binar, lekin uning yanada murakkab shakllari uchrab turadi. Noyob shakllarga quyidagi tizimli turlar kiradi:

1. **UCH AʼZOLI XIAZM** – uch element sintaktik vazifalar bilan almashinadi. Masalan:

2. Quand la **mort** lui parle de **l’amour**, /**la vie** frémit./
Quand la **vie** lui parle de la **mort**,/ **l’amour** sourit. Le **critique** **insulte l’auteur**: on appelle cela de **la critique**. **L’auteur insulte le critique**, on appelle cela de **l’insulte**. (Jacques Prévert, citations)

Bir koʻzgu yuzini Kunga qaratgan,

Kun ziyosi yuzda porlagan koʻzgu.

Bir koʻzgu – koʻzlarga ziyo taratgan,

Ziyoni koʻzlarga yorlagan koʻzgu.

Ot pashshalarni haydash uchun dumi boʻlishini xohlaydi; pashshalar esa dumsiz ot boʻlishini xohlaydilar. (N.Aminov, “Yelvizak” (234-bet).

3. **ZANJIRLI XIAZM** – bir xatboshi chegarasida kamida ikkita mustaqil xiazm tematik tarzda birlashadi: **Aqlli** va **ahmoqning** orasida birgina farq bor: birinchisi, **koʻp oʻylaydi** va **kam gapiradi**, ikkinchisi, **koʻp gapiradi**, lekin hech qachon oʻylamaydi. Birinchisining tili **hamisha aql doirasida**, ikkinchisining esa **aql doirasidan tashqarida** (Said Ahmad, “Hikoyalar”).

La *justice* sans la *force* est impuissante: la *force* sans *justice* est tyrannique. La *justice* sans *force* est contredite parce qu'il y a toujours des méchants la *force* sans la *justice* est accusée. Il faut donc mettre ensemble la *justice* et la *force*, et pour cela faire que ce qui est *juste* soit *fort*, ou que ce qui est *fort* soit *juste* (Blaise Pascal, Justice force, 193-p).

3. IKKILAMCHI XIAZM – bir konstruksiya bilan quyidagi ifoda asosida birlashtirilgan ikki parallel leksik juftlardan iborat: *AB/CD//BA/DC*: *Ayolsiz erkak, tanasiz bosh; Erkaksiz ayol, boshsiz tana* (maqol).

Shuni aytish lozimki, xiazmda morfologik va sintaktik shakllarning milliy o'ziga xosligi deyarli sezilmaydi. Ulardan u yoki bu tilning o'ziga xosligi o'zini namoyon qiladi – ingliz so'zlarining o'ziga xosligi bir grammatik kategoriyadan ikkinchisiga shaklini o'zgartirmasdan o'tishi yoki fransuzcha sifat-aniqlovchilar semantikasining aniqlanayotgan otga nisbatan post- yoki prepozitiv bog'liqligi: *Un saint triste est un triste saint* (Jean Le Bon). Bunday holatlar bizning materiallarda bor-yo'g'i 0,5% ni tashkil etadi. Universal morfo-sintaktik modellar ustunlik qilyapti.

Xiazmatik tizimda amalga oshayotgan morfo-sintaktik shakl turlari, garchi ko'rsatkichlarining o'ta qiyinligiga qaramasdan, o'z moslashuvchanlik va yangiliklarga yengil ko'nikuvchanligini saqlashini izohlaydi.

2.2. O'zbek va fransuz tillaridagi xiazmlarda simmetriya va asimmetriya

“Simmetriya” grekcha “proporsionallik”, “mutanosiblik” degan ma'noni bildiradi. “Ushbu tushuncha asimmetriya tushunchasi bilan birikadi va u bilan birlik hosil qiladi. Simmetriya har doim asimmetriya bilan taqqoslangani uchun ham chiroyli ko'rinadi. P. Merle ta'kidlaganki: “bu tushuncha bizning ongimizda juda erta paydo bo'lgan: 3.5 yoshidayoq bola odamchalarni chizib, ya'ni o'z ongidagi o'ziga o'xshashlar modelini tasvirlay turib o'z chizmasida inson figurasini simmetrik berishga harakat qiladi”¹.

¹Merle P. Dictionnaire du français branché.1994. – P. 232.

Simmetriya tushunchasi asimmetriya tushunchasi bilan ma'lum yaxlitlikni yuzaga keltirib birikadi. E.M. Beregovskayaning so'zlariga ko'ra, "simmetriya doimo asimmetriya bilan taqqoslangani uchun ham chiroyli ko'rinadi. U asimmetriyasiz oddiy va bir xil bo'lib qolgan bo'lardi"¹. Til materiyasini tashkil qiluvchi faktor sifatida simmetriya o'tgan asrning birinchi choragidayoq tushunib yetilgan. Olimning fikricha, lingvistik faktorlarda simmetriya asimmetriyasiz mantiqsiz; simmetriya nutqda paydo bo'lganda taxminiy bo'ladi; har qanday simmetrik sintaktik konstruksiya, hatto u morfologik ifodalangan bo'lmasa ham, qandaydir markazga ega bo'lishi kerak, kutilmagan nutq asosan asimmetriyaga tortadi².

Onalar qizlarin tanimay hayron,
Qizlari onalarin ismin unutgan.

(M.Yusuf, "Oqibat" 64-bet)

Sevgim mening, men bilmagan, ***mening sevgim***,
Ko'zing shahlomidi sening, xumormidi?

(Muhammad Yusuf, "Oson emas")

Bu yerda boshqa variantlar bo'lishi ham mumkin. Odatda bu simmetriya deyarli sezilmaydi, ammo xiazmda u kuzatiladi, chunki u o'rin almashtirish bilan ajralib turadi.

Xiazmatik tuzilma paydo bo'ladigan leksik fon uning simmetriyasini kuchaytirishi mumkin: chap tomonning tarkibiy qismlari zid bo'lmagan holda o'ngda qanchalik ko'p takrorlansa, xiazmning qurilishi shunchalik yorqinroq bo'ladi, butun tuzilma shunchalik nosimmetrik bo'ladi. Masalan:

Je serai pour toi l'unique au monde. Tu seras pour moi l'unique au monde. (citation Antoine de Saint-Exupéry).

Men ham edim sendek, sen ham bo'lasan mendek. (O'zbek xalq maqoli)

Il n'est pas l'homme si sage ***qu'il ne commette parfois de sottise, ni de sot qui ne fasse aucune acte sensé.*** (Roman de Renart, Citations)

¹ Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. Смоленск, 1984. – С. 34.

² Yuqoridagi manba.

Tuzilmaning maksimal simmetrikligi ikkinchi turdagi xiazmlarda namoyon bo'ladiki, unda kontekst bilan ajratilmagan o'ng va chap qismlarning leksik to'ldirilishi to'liq yoki deyarli to'liq mos keladi: Oldimda uyum-uyum kitob, darslik; tevaragimda – ***biri ilm uchun yashayotgan, biri yashash uchun ilm olayotgan kimsalar***; (“Atoiyning tug'ilgan yili”).

Que les peuples seront heureux ***quand les rois seront les philosophes, ou quand les philosophes seront rois*** (Denis Diderot, Philosophe). ***Une vie ne vaut rien, mais rien ne vaut une vie***. (Citations De André Malraux)

Simmetrik xiazmatik qolip ongimizga shunchalik aniq singdirilganki, u ushbu qolipdan turli tarkibiy va semantik og'ishlarga yo'l qo'yadi, shunga qaramay, yaxlitlikni xiazm sifatida qabul qiladi. Xiazmatik qolipdan og'ishlar quyidagicha:

1. Xiazmning o'ng tomoniga qo'shimcha elementlar qo'shib, uni “aralashtirish”:

Pascal combattait ses ***maux de tête*** avec des problèmes de géométrie. Moi, je combattais la géométrie ***en faisant semblant d'avoir des maux de tête***. (Bernard).

2. Ellipsis, ikkilamchi elementlarning tushirib qoldirilishi:

Avant de me marier j'avais six théories ***sur la meilleure façon d'élever les enfants***: à présent ***j'ai six enfants et plus aucune théorie***. (De John Wilmot, Citations). *Uzoqdagi qarindoshingdan yaqindagi qo'shning afzal* (ko'p tarqalgan hazil).

1. Konstruksiyaning bir qismini sintaktik sinonim bilan almashtirish:

Men qo'qqisdan ***shahanshohlik tekkan gadodek garang-u, gadoga aylangan shoxdek tajangman***. (Ulug'bek Hamdam, “Yolg'izlik”). ***Quand la vérité n'est pas libre, la liberté n'est pas vraie***. (Jacques Prévert, Citations)

2. Ba'zi elementlarning grammatik shaklini o'zgartirish:

Il faut ***vivre*** comme on ***pense***, sans quoi l'on finira par ***penser*** comme ***on a vécu***. (Paul Bourget, Citations). Konstituent (yasovchi)ni ma'no jihatdan unga yaqin bo'lgan boshqa so'z bilan almashtirish.

*Och, axir, ochgilkim ko'ksingni,
Bir nafas o'zimni unutay,
Unutmoq butunlay o'zlikni,
Oh, shundan najotim men topay*

(Cho'lpon. Ishq yo'li – B.423)

Xiazmda semantik simmetriyaning **bes** darajasi haqida quyidagilar ma'lum:

1) Identifikatsiya – leksik takrorlash.

Mon pays *ardent, fier et libre*, est attire par le vôtre, *libre, fier et ardent*, Le général de Gaulle, France-Soir, 18 mars 1964).

*Nechakim qildim vafo ko'rdum jafo,
Nechakim ko'rdum jafo qildim vafo.*

(Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari)

2) To'liq muqobillik – olmoshlarni almashtirish.

Siz dunyoni almashtira olmaysiz!

lekin u ham sizni almashtira olmaydi... (E.Vohidov)

Otim mendan g'arib-u – men undan g'arib.

3) To'liqsiz muqobillik – sinonimik almashtiruv.

Il y a de *la peine* oisive et du loisir qui est *labeur*. (Les tragiques par Theodore Agrippa d'Aubigne)

Yomon, agar *sen haqingda g'amxo'rlik qiladigan* hech kim bo'lmasa. Undan ham yomon, agar *sen g'amxo'rlik qiladigan* hech kim bo'lmasa.

4) Taxminiy o'xshatish – xiazmning biror-bir tarkibiy qismini u bilan bir xil ma'noga ega bo'lgan so'z bilan almashtirish yoki qisman takrorlash.

Il y a des *reproches* qui *louent* et les *louanges* qui *médisent*
(François de La Rochefoucauld, citations)

*Yomon bosh ko'tarsa, yaxshi bitadi,
Ezgular bek bo'lsa, yomon yitadi.*

(Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig" 87-bet).

5) To'liq semantik noekvivalentlik – fonetik muqobillik bilan qoplanadigan omonim almashtirish.

Le bifteck peut se définir de deux façons: viande que *les restaurateurs font cuire* ou *cuir que les restaurateurs* font viande. (Maurice Edmond Sailland, Citations).

*To tuzdi Navoiy oyati **ishq**,
Ishq ahli aro **navo** bo'lubtur.*

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani"142-bet).

Tuzilish uning barcha alohida bo'g'inlarida sezilar ekan, hech bo'lmaganda qandaydir bo'g'in yetishmayotgani yoki almashtirilgani sezilib tursa, xiazm paydo bo'ladi. Tuzilmaning yaxlitligi buzilishi bilanoq, xiazm yo'qoladi.

Quyidagi misraga mos keladigan xiazm bilan bir xil ma'noga ega bo'lib tuyuladi, lekin xiazm mavjud emas, chunki bunday strukturaviy qo'shilishda super ma'no, xiazmatik shakl tomonidan yaratilgan gipersemantizatsiya butunlay yo'qoladi.

Xiazmatik konstruksiya sodir bo'ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning tarkibiy qismi bo'lmagan elementlari qanchalik ko'p o'ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning tuzilishi yorqinroq chiqadi, butun konstruksiya simmetrikka aylanadi.

Aytish mumkinki, affektiv sintaksis asosida yotuvchi xiazm simmetriya tamoyilini maksimal darajada o'ziniki qiladi. Xiazmning ko'zga tashlanuvchi hashamdorligi, uning o'ynoqi, dinamik xarakteri va bir obrazlilikda ko'p obrazlilik imkoniyati so'z ijodkori uchun xiazmni o'ziga jalb qiluvchi figuraga aylantiradi.

Murakkab xiazmni yaratish uchun bir necha sintaktik amallar qo'llaniladi. Lekin har bir holatda aniq simmetriya o'qi mavjud bo'ladi. Simmetriya o'qi bog'lovchi (bog'lovchili so'z) yoki davomiy uzoq sintaktik pauza bilan ifodalanadi (grafik jihatdan u nuqta, vergul, nuqtali vergul bilan ifodalanadi).

- o'ng va chap fe'l valentligi :

- sintagmaning 2 elementini bog'lovchi:

Cette jeune fille est **jolie de loin, mais loin de jolie.**

(proverbe)

- sintagma ichidagi so'z bo'limi:

*faqat men yolg'izman, lekin mening hayotim men bilan va eng tubida achchiq sovuq – **o'limni anglash yoki anglashning o'limi***

- bosh gap bilan ergash gap orasidagi chegara:

S'il n'est pas condamné parce qu'il est coupable, il est coupable parce qu'il est condamné. (Anatole France, L'Île des Pingouins.)

Bu yerda boshqa variantlar bo'lishi ham mumkin. Odatda bu simmetriya deyarli sezilmaydi, ammo xiazmda u kuzatiladi, chunki u o'rin almashtirish bilan ajralib turadi.

Biz o'zimizni yomon his qilganimizda: "Qayerdadir kimdir o'zini yaxshi his qilyapti", - deb o'ylaymiz... Va o'zimizni yaxshi his qilganimizda: "Qayerdadir kimdir o'zini yomon his qilyapti", - deb o'ylamaymiz.

Shunday qilib, AB/BA A va B ifodasining barcha uch turi uchun: birinchi holatda, faqat xiazmning chap va o'ng qismlarida turli leksemalar bilan ifodalangan jumla a'zolari, ikkinchisida esa, leksemalarning o'ng va chap qismlarida sintaktik vazifalari o'zgarishi bilan takrorlangan hol, leksemalar (yoki leksemalarning ildizlari), uchinchi holatda, omonim yoki polisemik leksemalarning chap va o'ng qismlarida takrorlangan, sintaktik vazifalari va ma'nosining o'zgarishini anglatadi.

Ko'p hollarda xiazmatik qolipning ideal simmetriyasidan ba'zi bir og'ishlarni aniqlaymiz, chunki bu yerda stilistik simmetriyaga ega bo'lamiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri simmetrik konstruksiyaning to'liq emasligi: simmetriyaning ikkala a'zolari ham, garchi ular bir xil narsani anglatssa-da, boshqacha ko'rinishda bo'ladi.

Simmetriyaning ikkala a'zosi mos kelishining bunday noto'g'riligi she'riy va ilmiy tavsif o'rtasidagi xarakterli farq bilan bog'liq. Birinchisi, har doim biroz "noaniq"; metafora "noaniq", metonimiya "noaniq", har qanday badiiy obraz "noaniq". Bu o'ziga xos turdagi san'atdagi "noaniqlik": u dinamik, har doim o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin tomonidan to'ldirib boriladi. Ana shu "noaniqlik" tufayli badiiy asarni idrok etish ma'lum darajada hamkorlik ijodidir. "Biz san'at asarida go'yo oldimizga qo'yilgan ma'lum bir vazifani hal qilyapmiz"¹, deb to'g'ri ta'kidlagan Beregovskaya.

¹ Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. Смоленск, 1984. – С. 50.

Tuzilish uning barcha alohida bo'g'inlarida sezilar ekan (hech bo'lmaganda qandaydir bo'g'in yetishmayotgani yoki almashtirilgani sezilib tursa, xiazm paydo bo'ladi. Tuzilmaning yaxlitligi buzilishi bilanoq, xiazm yo'qoladi: *u qurbaqaga uylangani – ertak edi, zero u malika bo'lib chiqdi, aslida esa – aksincha* (Ranevskaya).

Bu ibora mos keladigan xiazm bilan bir xil ma'noga ega bo'lib tuyuladi, lekin xiazm mavjud emas, chunki bunday strukturaviy qo'shilishda super ma'no, xiazmatik shakl tomonidan yaratilgan gipersemantizatsiya butunlay yo'qoladi¹.

Xiazmga o'xshash badiiy uslub – bu contrepèterie, qo'shni so'zlar yoki so'z birikmalaridagi tovushlar yoki bo'g'inlarni qayta joylashtirish, ularning ma'nosini o'zgartirish usullardir – deydi Beregovskaya²:

Plus que poli pour être honnête / Plus que poète pour être honni (Robert Desnos, Citations). Les Jeux de la Foi ne sont que cendres auprès des Feux de la Joie. (Jacques Prévert, Citations).

Biz sevamiz va suyamiz, choy qoshiq - / qoshiqli choy

Xiazmni konkretlashtirish (yoki boshqacha tarzda akrofonik almashtirish) bilan taqqoslash ular orasidagi chegara qayerda joylashganligini aniqlash imkonini beradi va xiazm samarali sintaksis arsenaliga kiradi, uni tashkil etuvchi simmetriya esa mustaqil ma'noga ega bo'lgan birliklardan – so'zlardan yoki so'z ildizlaridan iborat.

Xiazm mavzusida juda qiziqarli maqola yozgan B.Y.Norman kontrepetriyani sharhlaydi va ingliz tilidan kelib chiqqan "spunerizm" atamasini ishlatadi. "Atama, o'z navbatida, bu stilistik vositadan zaruriy foydalanishni anglatmaydi, balki tovushlar, bo'g'inlar almashinishi yoki o'zgarishi bilan o'xshashlikni anglatadi hamda pretsedent sifatida so'zlarning sintaktik almashinishlarini,

¹ "Une séquence signifiante qui est avec la première dans un rapport de chiasme, rapport du miroir, de la réflexion, lion de produire un redoublement du premier signifié, une copie tirée à l'envers, dégage un sens nouveau. Le double n'est ni le même ni le contraire, il est l'autre". Lyotard, 1971 – P. 289.

²Береговская Э.М. Shu manba. 26-bet.

ya'ni xiazmni, "sintaktik inversiyani" ongli qo'llashning psixologik asosidir"¹.

U muhim ma'lumotlarni keltiradi: "Demak, nutq aktining real holatida, ya'ni biz qachon tilning tasodifiy o'zgarishini va sintaktik teskari shaklni o'zgartiruvchi qaysidir ijtimoiy estetik maqsadlarni ko'zlaganini aniqlashimiz har doim ham oson bo'lmaydi". Va u quyidagi fikrni yanada rivojlantiradi: "Umuman olganda, sintaktik teskari shakl, albatta, deyarli adabiy vosita emas, balki ona tilining sodda grammatikasiga xos bo'lgan umumiy mexanizmning bir qismidir"².

Buni nafaqat so'zlovchining grammatikasiga xos bo'lgan umumiy mexanizmning bir qismida, hattoki xiazm misollariga duch kelganda oddiy o'quvchining estetik qoniqishi, shuningdek, bunday dizaynlarni yaratishda faol ishtirok etishida ham namoyon bo'ladi.

2.3. O'zbek va fransuz tillari mikro va makro kontekstidagi xiazm

Xiazm mavjud bo'lgan semantik yuklamasiga ko'ra umumiy va xususiy turlarga bo'linadi. Umumiy hisoblangan mavzu va rema (bitta gap doirasida, qo'shni yoki hatto distant joylashgan gaplarda) vazifalarni o'zgartirishga asoslanadi:

Nous aimons ceux qui nous admirent, et nous n'aimons pas toujours ceux que nous admirons. (François de La Rochefoucauld, Citations)

Oqil chindin o'zga demas, ammo barcha **chinni** ham demak **oqil** ishi emas. (A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 16-bet).

Ko'zni o'z aybingdin olma va o'zgalar aybig'a ko'z solma! (A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 20-bet).

Vafosizda hayo yo'q, **hayosizda vafo** yo'q. (A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 12-bet).

¹ Норман Б.Ю. Хиазм в структуре фразы славянской предпосылки функции. 2001. – С. 251.

² Норман Б.Ю. Хиазм в структуре фразы славянской предпосылки функции. 2001. – С. 251.

Mahalliy yoki yetarli ravishda ahamiyatga ega bo'lmagan tarzda, faqat mavzu doirasida yoki faqat rema ichida ochib beriladi. Bu yerda semantik ma'noning og'irligiga qarab ma'lum bir iyerarxiya ham mavjud. Iyerarxiyaning har bir keyingi bosqichiga o'tish bilan semantik yuklama ham kamayadi.

1. Xiazm butun remani egallaydi. Ushbu turdagi mahalliy xiazm – rema deyarli umumiy qiymatga teng:

Le mystère de la femme est qu'elle soit, à la fois, ***si faible et si forte***: et celui de l'homme, qu'il soit, à la fois, ***si fort et si faible***. (Gilbert Cesbron, Citations)

La soupe aux choux se fait dans la marmite, dans la marmite se fait la soupe aux choux. (Le Bidois L'inversion, p. 400).

**Xuroson badandur, Hiri – jon anga,
Hiri – jon, badandur Xuroson anga.**

(Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari)

Yomonni yaxshi qilish – dononing ishi, **Yaxshini yomon** qilish – nodonning ishi. (Maqol)

2. Xiazm butun mavzuni egallaydi – biz uni “tematik xiazm” deb ataymiz:

A jeune femme et vieux mari, des enfants: à vieille femme et jeune mari, des querelles. (Maqol)

Muncha **mehnat aro bu fursat** ila,
Muncha **fursat aro bu mehnat** ila.

(A.Navoiy, “Sab’ ai sayyor” 12-bet).

3. Xiazm remaning (periferik-rematik) qismida joylashgan:
Dame souris trotte/ **Noire dans le gris** du soir... Dame souris trotte / **Grise dans le noir** (Paul Verlaine, Impression fausse).

*Yuzum bo'sag'anga **sursam** ne yaxshi **ayshdurur**,
Inoyat et eshigingda bu **ayshni surayin**.*

(Z.M.Bobur, ruboiy).

4. Xiazm mavzu qismiga qaratilgan (periferik-tematik):
“Xiazm – matn” munosabatini ko'rib chiqishda masalaning yana bir jihatini e'tiborga olish zarur: umumiy matnda xiazmning o'rne va semantik salmog'i katta.

Il est évident que **l'arme de la critique** ne saurait remplacer **la critique des armes** la force matérielle ne peut être abattue que par la force matérielle; mais la théorie se change, elle aussi, en force matérielle, dès qu'elle pénètre les masses.

La théorie est capable de pénétrer les masses dès qu'elle procède par des démonstrations, et elle fait des démonstrations dès qu'elle devient radicale. Être radical, c'est prendre les choses par la racine. Or pour l'homme la racine, c'est l'homme lui-même. (traduction Jules Molitor)

O'z-o'zini ta'minlaydigan xiazm orasida hazil miniatyuralar ham uchrab turadi. Masalan: **“Do'stning xotini xotinning do'stidan afzal”** ataylab bo'lak-bo'lak bo'lib, baribir to'liq bir butunlikni ifodalovchi oddiy iboralar bo'lishi mumkin yoki yaxlit ifodalar bo'lishi mumkin. Masalan: **“Kitob ostida sichqoncha / Qo'ltiq ostida kitob”** yumoristikasi kabi.

“Xiazm – matn” guruhiga mansub quyidagi turlar lirik yoki tarbiyaviy xarakterga ega:

Nous construirons le monde / Qui nous le rendra bien / Car nous sommes au monde / et le monde est à nous. (Eugène Guillevic, Citations)

Pour l'Allemagne, **la critique de la religion** est terminée pour l'essentiel, et la critique de **la religion** est la condition de **toute critique**. (Karl Marx, La religion est l'opium du peuple)

O'zbek tilidagi maqol: **“Yomonlikka xizmat qiladigan yaxshilik yomonlikka aylanadi. Lekin yaxshilikka xizmat qilgan yomonlik yaxshilikka aylanmaydi”**.

Xiazm ko'proq yoki kamroq hajmli matnga kiritilgan bo'lsa, umuman olganda, biroz semantik vaznga ega. Mavzuni ishlab chiqishda umumiy, rematik yoki tematik xiazmlar mumkin bo'lgan variantlarni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni sanab o'tishlari mumkin, masalan, turli xil siyosiy arboblarning ushbu birgina hazilomuz tavsifida:

“Quatre types d'hommes politiques; ceux qui pensent et agissent, ceux qui pensent sans agir, ceux qui agissent sans penser, et ceux qui ne pensent ni n'agissent”. (Jules Moch, citations)

Shuningdek, ular mavzu yoki motivning yakuni sifatida natija, xulosaning aforistik ifodasi bo'lishi mumkin. Bunga bir necha misollar:

Kulgilining bitta, ehtimol kamtarona, ammo shubhasiz afzalligi bor: u har doim haqiqat. Bundan tashqari, bu kulgili, chunki bu haqiqat. Boshqacha qilib aytganda, hamma haqiqat kulgili emas, lekin hamma kulgili narsa haqiqatdir (Iskander)

Ko'proq yoki kamroq kengaytirilgan kontekstga kiritilgan xiazmning semantik og'irligi, xiazm-pointe, iboraning "asosi" bo'lib, mavzuning rivojlanishini mohirona amalga oshirganda sezilarli darajada oshadi:

Qu'on parle mal ou bien du fameux cardinal, / Ma prose ni mes vers n'en diront jamais rien. / Il m'a fait ***trop de bien*** pour ***en dire du mal*** / Il m'a fait ***trop de mal*** pour ***en dire du bien***. (Pierre Corneille, Sur le cardinal de Richelieu)

Bu yerda kontekst bilan bog'lanish (keng ma'noda – matn sifatida ham, vaziyat sifatida ham tushuniladi) yanada yaqinroq. Bir tomondan, bunday xiazm kontekstdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi, ikkinchi tomondan, bunday xiazmdan mahrum kontekst juda xiralashadi, chunki xiazm uning semantik markazidir.

L'homme qui, dans ***la réalité*** imaginaire du ciel ou il ***cherchait*** un surhomme, n'a trouvé que le reflet de lui-meme, ne sera plus enclin à ne trouver que son apparence, le non-homme la ou il cherche et est forcé de ***chercher sa réalité*** véritable.

– Si vous saviez, comme mon mari est exigeant! Le matin il faut que je me lève la première et que je lui ***apporte son café au lait***. – Moi, c'est bien pire: le mien, je me demande si bientôt je ne devrai pas lui ***porter son lit au café*** (blague).

Dialog rivojlanishida kutilmagan ta'sir turli kommunikantlar o'rtasida taqsimlangan umumiy xiazmning bir ibora ichida joylashganligida ham sodir bo'ladi:

Maria et moi, nous n'avons pas su supporter qu'on insulte un mort. On a donné aux gens l'occasion de se racheter. – Hum, dit le notaire, ***les forcer à faire une bonne action pour des motifs sordides...*** -... vaut mieux, à notre idée, que de les laisser pour de

belles raisons commettre une saloperie. (Bazin) Mariya bilan men o'lgan odamning haqoratiga chiday olmadik. Odamlarga o'zlarini qutqarish imkoniyati berildi. – Xum, dedi notarius ularni yomon sabablarga ko'ra xayrli ishga majburlab. — Bizningcha, yaxshi sabablarga ko'ra ahmoqona ishlar qilishga yo'l qo'ygandan yaxshiroqdir.

Dialogda teskari vaziyat ham bo'lishi mumkin: xiazmning chap qismi (bir kommunikaning iborasi) o'ng tomondan kontekstning sezilarli bo'lagi bilan ajratilgan (boshqa kommunikaning iborasi):

1) - Je vais vous rendre, reprit Rastignac qui défit promptement un sac et compta cent quarante francs à madame Vauquer. – ***Les bons comptes font les bons amis***, dit-il à la veuve. Nous sommes quittes jusqu'à la Saint-Sylvestre. Changez-moi ces cent sous. – ***Les bons amis font les bons comptes***, répéta Poiret en regardant Vautrin. (Honoré de Balzac, *Le Père Goriot*).

2) Botir G'ulomovich, – dedi u, hayajondan duduqlangan holda. – **Nimadan siz bunchalar mashhursiz, portfelingiz esa unchalik emas?** – Uch bolakay javob kutib og'izlarini ochib qolishdi. Domla o'ylanib qoldi, tarbiyachisi Hosila opa bo'lsa, qizargan holda o'girilib oldi. Botir G'ulomovich navbatma-navbat sochi tekislangan uch bolakay boshini silab chiqdi, tarbiyachisi Hosila opaning esa qo'lini qattiq siqib qo'ydi. – O'kinma, bo'talog'im, – dedi u. – **Portfelim zo'r bo'la turib, o'zim unchalik bo'lmasam bundan yomoni bo'lmasdi.** (N.A'zamov).

Xiazmda o'ng va chap tarafdagi qismlar har xil bo'ladi, fransuzcha matnda ularni 17 ta so'z ajratib turadi, o'zbekcha matnda esa 41 ta so'z. Birinchi holatda, xiazm maqolning rivojlanishi sifatida tuzilgan va uning o'ng, urg'u tushadigan qismi guvoh emas, balki sahnada guvoh bo'lgan ikkinchi darajali personajning izohli tub ma'no beradigan jumlasini sharhlaydi. Ikkinchi holatda esa xiazm tashkil etadigan ikkala ibora ham uning asosiy qahramonlari o'rtasidagi kommunikativ harakatlarni aks ettirib, qahramonning gapiga singdirilgan xiazmning "urg'u"li o'ng tomoni go'yoki sahnaning eng muhim mazmuni, ya'ni dunyoqarashini ifodalaydi.

Lekin bu ikkala bir-biriga o'xshamaslik holatiga ham qaramay, xiazm yaxlit bir butun sifatida qabul qilinadi va uning qismlari distant munosabatlari o'ziga xos ta'sirni kuchaytiradi, ma'lum darajada effekt bo'lib xizmat qiladi.

Le fondement de la critique irr  ligieuse est celui-ci: **l'homme fait la religion, ce n'est pas la religion qui fait l'homme**. La religion est en r  alit   la conscience et le sentiment propre de l'homme qui, ou bien ne sait pas encore trouv  , ou bien s'est d  j   perdu. Mais l'homme n'est pas un   tre abstrait, ext  rieur au monde r  el. L'homme, c'est le monde de l'homme, l'  tat, la Soci  t  . (Marx, d'ap  s les traductions de J. Molitor, 2018).

Muloqotdagi xiazm ikki kommunikant o'rtasida taqsimlangan barcha hollarda, matndagi iboralarning uzoq yoki yaqin joylashuvidan qat'i nazar –xiazmning chap tomoni dastlabki xiazm strukturasining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinmaydi. Faqat matndagi o'ng, invertlangan qismlarining ko'rinishigina o'quvchi yoki tinglovchini orqaga qaytishga va dastlabki shaklni xiazmatik butunlikka kiritishga majbur qiladi.

Periferik-rematik va periferik-tematik xiazmlarga kelsak, ularning yaxlit matndagi semantik vazni kamroq bo'lsa, matnning o'zi shunchalik katta bo'ladi. Ko'pincha ular faqat ma'noviy bezagini namoyon etadi.

Sxematik ravishda xiazmning yaxlit matn bilan aloqasi quyidagicha ko'rinadi: bir kichik matnda yoki katta matnning bir bo'lagida bir nechta xiazmlarning to'planishi – uch a'zoli, zanjirli yoki ikkilamchi xiazm kabi kam uchraydigan hodisa tasvirlangan.

Xiazmlarning to'planishi she'riy uzoqlashish vositasi sifatida ishlatiladi. Uchta xiazm, ya'ni ikkita umumiy va bitta rematik xiazm to'qnashadi, masalan, Tristan Korberning "Epitafiya" she'rida o'zini topa olmagan odamning grotesk (bo'rttirilgan) obrazi yaratilgan.

(Peintre: il jouait de la musette:/ Et musicien: de la palette)
g  chant **bien le mal, mal le bien**) :

(Il mourut en s'attendant vivre/ Et v  cut en s'attendant mourir). Tasvir bu "la'natlangan" shoir Tristan Korberga juda xos.

Badiiy matnlarda eng keng tarqalgan xiazmda yaxlit badiiy obrazning o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa

G.V.Stepanovning quyidagi jumlasini tavsiflaydi: “Alohida til birliklarining butun matnga bo‘ysunishidan iborat, ammo bu birliklarning mustaqil, ixtiyoriy ravishda ta’minlangan mazmuniy boyligi bilan uyg‘unlashadi”¹.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, xiazmning matn yaratuvchi roli bevosita uning mikro va makro kontekstdagi o‘rni va konsentratsiyasiga, shuningdek, matn hajmiga ham bog‘liq.

2.4. Xiazmning rasmiy darajalari va funksional turlari

Grammatiklar va leksikologlarning bizgacha yetib kelgan ta’riflarining barchasida xiazm “kesishish” figurasi sifatida ta’kidlanadi. Ammo ta’riflarning chiroyli muvofiqligi tanlangan misollarning xilma-xilligini tahlil qilishga to’sqinlik qilmaydi.

Birinchi navbatda 3 xil xiazmni ko‘rib chiqish va ularni muhim faktlar asosida guruhlariga ajratish lozim.

1) Leksemalarning kesishishi ikkita qutbli iboraning tarkibiy qismlari o‘rtasida amalga oshiriladi.

a) *Marouzeau: une robe blanche et deux blanches mains.*

b) *Morier: une cruauté malicieuse et une inhumaine raillerie.*

Ikkala misolda ham ot / sifat guruhi bo‘lib, bu xiazmatik tartibga solingan bo‘lishiga qaramay, bir farqni ta’kidlab o‘tish lozim: Maruzo keltirgan misolda ham xiazm qismlari o‘rtasida “qisman o‘xshashlik” mavjud bo‘lib, unda bir xil sifatlar takrorlanadi. A.More misolida esa faqat “kategorik o‘xshashlik” bor. Bundan ko‘rinib turibdiki, xiazmning “turli darajalari” mavjud².

2) Qismlarning kesishishi jumlaning funksional qolipida ikki a’zo o‘rtasida amalga oshiriladi.

3) Ikki gapning barcha a’zolari xiazmdan tashkil topgan.

Le Grand Larousse: “Un roi chantait en bas, en haut mourait un Dieu.”

¹ Степанов.Г.В.Теоретическая грамматика испанского языка. Морфология и синтаксис частей речи. 1974. – С.73.

² https://tsuull.uz/sites/default/files/matn_nazariyasi_istiqbollari_ozbekiston_til_va_madaniyat_2023_3.pdf

Z. Bekturodova/ Xiazmning rasmiy darajalari va vazifaviy turlari. 2024. – B. 193

Le Bidois (L'inversion, p. 400): "La soupe aux choux se fait dans la marmite.

dans la marmite se fait la soupe aux choux".

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, birinchi misolda kategorik o'xshashlik, ikkinchisida, qisman va oxirgisida, mutlaq o'xshash xiazmlardan tashkil topgan gaplar.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, xiazmning rasmiy darajalari variantlarga juda boy va ularning batafsil tavsifiga murojaat qilib, quyidagi tahlillar asosida ko'rib chiqish lozim.

- 1) funksional tahlil
- 2) munosabatlar tahlili
- 3) rasmiy tahlil
- 4) pozitsion tahlil.

Eng birinchi navbatda xiazmni funksional jihatdan ko'rib chiqib, chog'ishtirilayotgan tillarda umumiy va farqli jihatlarini aniqlash lozim. Agar xiazm ritorik figura ekanligi rost bo'lsa, u ma'lum bir monotoniyadan qochish uchun tanlangan.

*"Une robe **blanche** et deux **blanches** mains"*. Maruzoning bu misolida qisman o'xshashlik mavjud deyish mumkin, ya'ni ikki iboraning faqatgina bitta qismida xiazm sodir bo'ladi. Struktur jihatdan xiazmatik konstruksiya sodir bo'lgan, ammo to'laligicha emas.

Shunga qaramay, ma'lum grammatik vazifalarni ifodalash uchun uni ishlatish talab etiladi.¹

Masalan... Et **l'armée accuse les marchands**. Et **les marchands accusent l'armée**. (Saint-Exupéry, Citadelle, p. 150).

Bu misolda esa ikki iboraning bir xil tarkibida ham xiazm sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Demak xiazmlarni funksional jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin.

- a) ritorik xiazmlar
- b) grammatik xiazmlar
- s) semantik xiazmlar.

Funksional tahlilni ko'rib chiqib, xiazmatik tartibni qabul qiluvchi qismlarlar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlar

¹ Yuqoridagi manba

turlarini o'rganishda munosabatlar tahlili quyidagi to'rtta asosiy turga ajratiladi.

A) **Sintagmatik xiazmlar** (ikkita qutbli sintagmaning tarkibiy qismlarining kesishishi).

masalan, pas de *beauté profonde* sans *profonde sensualité*, Maurois, Roses, p. 184.

Yomon bosh ko'tarsa, *yaxshi* bitadi, *ezgular* bek bo'lsa, *yomon* yetadi. (Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig" 87-bet).

Chog'ishtirilayotgan tillarda sintagmatik xiazmlar tahlilga tortilganda, ikkala misolda ham sintagmaning tarkibiy qismlarida kesishish mavjudligi, ammo fransuzcha misolda sintagmaning faqatgina bitta elementi *profonde* so'zi sifat bilan otlar esa *beauté* va *sensualité* so'zlari bilan ifodalanganligini ko'rsatib keladi. Bu ikkala ot vazifasida keluvchi so'z ham mavhum tushuncha bo'lib, insonning hissiyotlarini tasvirlovchi vositalardir, ammo bitta kategoriyaga mansub emas. Sintagmaning xiazm hosil qiluvchi barcha a'zolari ot so'z turkumidan tashkil topgan bo'lib, kesishish hosil qilgan, ammo faqatgina *yomon* so'zi xiazmatik shaklni qabul qilgan. *Yomon, yaxshi, ezgular*, bularning barchasi insoniylikni belgilovchi vositalar hisoblanadi va bular xiazmning yanada ekspressiv-emotsionalligini kuchaytirishga xizmat qiladi.¹

B) **Gap strukturali xiazmlar** (gapning barcha a'zolari xiazmdan tuzilgan) masalan...,

Tout sourit au Voyageur et le Voyageur sourit à tout, Balzac, IV, p. 14)

Taku toz erdi qishu yoz anga,

Qishu yoz erdi taku toz anga.

(Alisher Navoiy, *Saddi Iskandariy*.)

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.

Ikkala misolda ham butun bir gapning barcha a'zolari xiazmdan tashkil topgan bo'lib, ularni ko'p a'zoli xiazm ham deyish mumkin. Gap strukturali xiazmlar o'zining ohangdorligi, soddaligi, yodda saqlab qolish imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi. Bu xiazmlar ko'proq tez aytishlar, maqollarga xos bo'lib, ularni ko'proq paremik birliklarda uchratish mumkin.

¹ Yuqoridagi manba

D) **Ketma-ketlik xiazmi** (ikkita gap ikkita ketma-ketlikni qabul qiladi: progressiya-inversiya yoki inversiya-progressiya,

Masalan..., *La fermeté* vient quand vient *l'accoutumance*. Montherlant. Rose. p. 560).

Irmoqning **oxiri** – **daryo daryoniki** – dengiz. (M.Yusuf, “Osmonning oxiri” 100-bet).

Tiriklik nimadir, nimadir **o’lim**. (Yusuf Xos Hojib, “Qutadg’u bilig” 108-bet).

Ikkala misolda ham gap bo’laklari bir kategoriyaga mansub. *La fermeté* – *l'accoutumance* va **tiriklik** – **o’lim** leksemalari shakl va mazmuni jihatdan bir kategoriyaga mansub va ikkala tilda ham ot vazifasida kelganligi bilan xarakterlidir.

3) Rasmiy tahlil xiazmning tarkibiy elementlari o’rtasidagi o’xshashlikning turli xil rasmiy darajalarini belgilaydi. Bularning uch asosiy turini ajratib ko’rish mumkin:

a) Mutlaq o’xshashlik (*jeune femme / femme jeune*)

Aqlsiz-jahlli, jahlsiz-aqlli. Ikkala misolda mutlaq xiazmni ko’rish mumkin. Ya’ni grammatik sintaktik jihatdan mutlaq o’xshashlikka ega.

b) Qisman o’xshashlik (*beauté profonde / profonde sensualité*)

Xiazmning bu turida qisman o’xshashlik mavjud, ya’ni gapning bittagina elementi **profonde** so’zi takrorlanib, xiazmni tashkil qilgan hamda kesishish figurasi shakllantirilgan.

d) Kategorik o’xshashlik (*joli pied / taille souple*).

Bu misolda sintagmaning birorta elementi takroriy emas, ammo qanday qilib buni xiazmga kiritishimiz mumkin, degan savol tug’ilishi tabiiy. Biroq bu misolda xiazmning shartlari asosida majburiy shakllangan xiazm mavjud emas, gapning birorta qismi ham takroriy emas, biroq kategorik jihatdan **joli pied / taille souple** xiazmni tashkil qiladi **joli – souple** va **pied – taille , pied – taille** so’zlari ot vazifasida kelib, ikkalasi ham insonning tana a’zosini, **joli – souple** bu ikkala sifat esa inson tana a’zosining chiroyli va egiluvchan ekanligini aniqlab kelmoqda va kategorik jihatdan xiazmni tashkil qilmoqda. O’zbek tilidagi misollar tahlilga tortilganda qisman va kategorik o’xshash bo’lgan xiazmlar mavjud emasligi aniqlandi, fransuz tilida esa xiazmning turli darajalaridan

foydalangan holda, ayniqsa, xiazmning majburiy shartlarisiz, grammatik, semantik xiazmlarga o'xshamaydigan ritorik turidan ham foydalanilganligi namoyon bo'ldi.¹

4) Holatiga ko'ra tahlil, ya'ni pozitsion tahlil. Bir xil qismlarning xiazmatik tuzilishdagi o'rnini tavsiflash uch xil holatda amalga oshiriladi.

a) Simmetrik holat A1-N/NI-AI (*jeune femme /femme jeune*)

b) Markaziy holat NI-A/A1-N2 (*beauté profonde / profonde sensualité*)

c) Periferik holat A-N/N2-A (*nouvel amour /chagrin nouveau*)

Yuqoridagi biz ko'rib chiqqan mulohazalar xiazmatik tuzilmalarning rasmiy va haqiqiy murakkabligini ko'rsatadi. Xiazm – til hodisasi sifatida tuzilish konstruksiyasiga binoan qisman yoki kategorik jihatdan bir xil tarkibiy elementlarni erkin qabul qiladigan har qanday ketma-ket tuzilmadir.

A1) **N-Adj¹/ Adj¹ - N2**

“*Point de beauté profonde sans profonde sensualité*” (Maurois, Roses, p. 184), et c'était attendrissant de voir ces bêtes, ces bêtes libres dans *la libre étendue* (Mentheriant, Pasiphat, p. 111) Ritorik xiazm usulining aksariyati yuqorida ta'kidlanganidek, shakllarda namoyon bo'ladi va majburiy teskari takrorni qabul qilmaydi. Ushbu misollarda ham faqatgina markazdagi bir xil qismlar takroriy kelgan va shakliy jihatdan xiazm deyish mumkin, ammo o'zbek tilida bunday xiazmlar mavjud emas.

A2) **Adj1 - N1/ Adj2**

Ayant usé *le vieil empire*, les hommes, sans le connaitre, réclamaient *l'empire nouveau* (Saint-Exupéry, Citadelle, p. 309).

Ko'z yoshim ko'rganda soy ham,

Sharqirab kulsa ne tong.

Bor mening ko'ksim aro,

Toshqinki, hech bir soyda yo'q.

A3) **V1-Adv1/Adv2-V2**

Je *m'entétai doucement*, et *doucement* on me refuse (Green, Partir, p 276) Mais quand on voit quelqu'un *se dresser si théatralement* pour si *theatralement* crier pitie, on se dit. (Conchon,

¹ Yuqoridagi manba

Apprenti, p. 237). Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, bu shakl fe'l1-ravish/ravish-fe'l2 ni o'z ichiga olgan. Shu paytgacha ko'rib chiqqan misollarimizda asosan ot-fe'l yoki ot-sifat o'zaro xiazmni tashkil qiluvchi elementlar edi, ammo yuqoridagi fransuzcha misolda fe'l va ravish o'zaro funksional o'rin almashib xiazmni tashkil qilmoqda. Shuni ham ta'kidlab ketishimiz lozimki, ritorik xiazmlar mutlaq erkinlikka ega bo'lib, ular grammatik, semantik xiazmlarga o'xshab majburiy takrorlarni qabul qilmaydi va shu jihatdan o'zbek tilidan farq qiladi.

A4) Adv1-V1/V1-Adv2

la demarche qui n'a pas *encore abouti* et qui *n'aboutira jamais*. (Saint-Exuperu, Citadelle, p. 166).

Oz ekib, ko'p olganni dehqon derlar,

Ko'p ekib, oz olganni hammol derlar. (Maqol)

A5) Adj-Adv./Adv-Adj2

Le reste de la ville *laide ici, ici jolie* manque de cohésion. (Beauvoir Choses, p. 667),

2) V1-Comp. prep.1/Comp. prep.1-V2

Et le village *montait vers l'équipage* et *vers lui s'ouvrait* (Saint-Exupery, Vol, p21)

Quant aux Russes, *ils ont cessé de vendre depuis deux ans*, et *depuis deux ans également* la demande privée *a augmenté*. (Le Monde hebd. No 1025, p. 10).

V. Periferik holatda bir xil qismlar.

B1) Adj1-N1/N2-Adj1

Nouvel amour, chagrin *nouveau*. (Balzac, 11, p. 771).

Mais l'on n'a jamais vu *pareil entêtement, ni vol pareil*, dit Grandet.. (Balzac III, p. 606).

B2) Adv1-Adj1./Adj2-Adv1

une incessante, profonde et commune rumeur, à *demi animale* et *humaine à demi*. (Kessel. Cavaliers. p. 144).

2. Kategorik o'xshashlik.

Adj1-N1/N2-Adj2

une grande brune, l'œil vif et bien coupé, *joli* pied, taille *souple*? (Balzac, p. 1053).

Adv1-Com.prép1/Comp.prép.2-Adv2

L'univers qu'il va créer, *d'abord en lui, sur la toile ensuite...* (Le Monde hebdomadaire, No 1036, p. 9).

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, chog'ishtirilayotgan tillarda ritorik xiazmlar ko'pincha qisman o'xshashlik darajasiga ega ekanligi, bunda bir xil qismlar markaziy o'rinda turishini bildiradi, lekin kamdan-kam qo'llanilsa-da, boshqa variantlar (kategorik o'xshashlik, periferik holatlar) ham mavjud.

Ammo shunga amin bo'ldikki, ritorik xiazmlar mutlaq o'xshashlikka ega emas va bunday xiazmlar o'zbek tilida deyarli uchramadi.

S) Ikki qatorli xiazmlar quyidagi sintaktik qurilishga ega bo'lganligini kuzatamiz.

Murakkab jumalalarda bosh va tobe gap, ba'zan ikkita tobe yoki ikkita yonma-yon kelgan gaplar o'z a'zolarining ketma-ket tuzilishiga nisbatan xiazmatik tartibga solingan bo'ladi.

1. Ikki asosiy yonma-yon joylashgan gap.

Le jour passe, et retombe l'élan. (Cl. Roy. La Dérobée. p. 87).

Le jour, le hibou se terre dans l'ombre, mais la nuit sort le renard. (Le Monde hebdomadaire. p. 1029.).

2. Ikki to'ldiruvchili ergash gap.

Il leur semblait d'abord que *leurs sensations se découplent*, que *s'amplifiaient* à l'infini *leurs facultés* de voir et de sentir... (Perec, Choses, p. 93).

3. Ikki aniqlovchili ergash gap.

En face de lui s'est arrêtée une petite lille, cinq ans à peine, *dont les cheveux sont blonds et dont brune est la peau.* (Mandiargues, Marge, p. 125).

4. Bosh ergash gapli ergash gap – ikkita ergash gap.

La fermeté vient quand vient l'accoutumance (Montherlant, Rose, p. 560). *Quand venait le soir, quand les réverbères s'allumaient*, l'angoisse du retour me prenait. (Peuchemaurd, Nuit, p. 50).

je souffre comme eux.... non parce que *nous sommes devenus* sionistes ou israéliens, mais parce que *monte en nous un sentiment irrésistible de solidarité.* (Le Monde, N 1018, p. 6).

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ritorik xiazmlarning variantlarida qismlarining xiazmatik joylashuvi aniq grammatik vazifani bajarmasdan, "xilma-xillikka intilish, evfonik(ohangdorlik) yoki ekspressiv uyg'unlikka intilishni kuzatish mumkin. Ritorik xiazmlar ko'proq fransuzcha misollarda aniqlandi va shu jihatdan xiazmning turlari turli tillarda turlicha qo'llanishi ma'lum bo'ldi.

Grammatik xiazm – ikkita ibora yoki ikkita gapning tarkibiy elementlari aniq grammatik vazifani ifodalash uchun xiazmik tuzilmani tashkil qiladi. Funksional jihatdan parallel bo'lgan ikkita frazemaning tarkiblari "ikki ish-harakatning yoki ikkita holatning muntazam almashinishi", deb atalishi mumkin bo'lgan narsani ifodalash uchun xiazmatik tartibni qabul qiladi. Ikki gapdagi butun leksemalarining xiazmatik tashkil etilishi esa ekspress "jarayonning funksional o'zgarishi" uchun majburiydir. Shuningdek, qo'llangan so'zlar bir xil grammatik xususiyatga ega bo'lsa, (ikkita ot, ikkita sifat, ikkita qo'shimcha va boshqalar) xiazm grammatik deyiladi. Misol tariqasida, Maksim de Laroshfukoning ushbu jumlasini keltirish mumkin:

Biz ko'pincha *sevgidan shuhratparastlikka* boramiz, lekin biz kamdan-kam hollarda *shuhratparastlikdan sevgiga* qaytamiz, bu yerda barcha atamalar otlardir.

Rasmiy jihatdan grammatik xiazmlar simmetrik holatda bo'lgan qismlarning mutlaq o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

Le père Grandet reeardait alternativement *l'acte et sa fille sa fille et l'acte*. (Balzac, 111, p. 62).

Kichikning kattasi bo'lguncha, (to'ldiruvchi+ega +kesim)

Kattaning kichigi bo'l. (to'ldiruvchi+ega +kesim)

(*Maqol*, 466-bet).

Mehmon mezbonga aziz, (ega+to'ldiruvchi+ot-kesim)

Mezbon – mehmonga. (ega+to'ldiruvchi)

(*Maqol*, 166-bet).

Yuqoridagi misollar tahlilidan kelib chiqib, yana shu jihatga e'tibor qaratish kerakki, xiazm usulida ko'pincha ega to'ldiruvchi bilan, aniqlovchi esa kesim vazifasidagi so'z bilan o'rin almashadi.

Adj1-Adj2 /Adj2-Adj1

Il dit qu'elles les bestioles lui ressemblent: alternativement *obscur* et *lumineux*, *lumineux* et *obscur*. (Montherlant, La Reine morte, p. 209).

Yigitga **og'ir** narsa ham **yengil** tuyular,

Keksaga **yengil** narsa ham **og'ir** tuyular. (*Maqol*)

Ushbu keltirilgan misollar sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gap yoki ergash gapli qo'shma gaplardan iborat bo'lib, gapning xiazmatik qismlari sifatlardan iborat. Fransuzcha misoldagi *obscur* va *lumineux* sifatlari, shuningdek, o'zbek tilidagi **og'ir** va **yengil** sifatlari ham antonimlardan iborat bo'lib, bir qarashda antitek xiazmga ham misol bo'ladi.

à va de predloglari bilan kiritilgan ikkita bosh to'ldiruvchi ham "muntazam almashinish"ni ifodalash uchun xiazmatik tuzilmani qabul qiladi.

la conversation animée et tenue à voix basse, **d'oreille à bouche, de bouche à l'oreille**, (Honoré de Balzac, La Peau de chagrin, p. 215).

Avec quel bonheur ne fit-elle pas les solennelles présentations *du vicomte au chevalier, du chevalier au vicomte*. (Honoré de Balzac, La Vieille Fille. p. 300).

Ushbu misolni faqatgina fransuz tiliga xos deyish mumkin. Chunki o'zbek tilida predloglar mavjud emas va ularning vazifasini kelishiklar bajaradi. Shuningdek, ular fransuz tilidagi predloglar kabi mustaqil qo'llanilmay, otlar va olmoshlar bilan birikib, ularning aniqlovchisi bo'lib keladi.

Semantik xiazm – agar atamalar bir xil semantik maydonga ega bo'lsa, semantik xiazm deb ta'rif berish mumkin. Semantik xiazm qismlarning mutlaq o'xshashlik darajasiga ega bo'lgan simmetrik joylashuvi bilan tavsiflanadi.¹

Il n'était plus *un jeune homme*, bien qu'il fût encore *un homme jeune*... (Maupassant. Contes 1. p. 1066).

une autre Paule, passionnément préoccupée de sa beauté et passant difficilement du rang *de jeune femme* au rang *de femme jeune*;.. (Sagan, Brahms, p. 11).

¹ Yuqoridagi manba

Shuning uchun semantik xiazm haqiqiy majoziy farqni ko'rsatib keladi. Ko'rsatishning iloji bo'lmasa-da, bu yerda qonun qiymatiga ega bo'lgan qat'iy qoida ko'rinadiki, bu sifatlarning aksariyati otdan keyin qo'yilganda o'zlarining tegishli ma'nosini saqlab qoladi va undan oldin kelganida hosila yoki ko'chma ma'noni oladi (Le Bidois, Sintaksis II, pp. 82-83).

Ya'ni, nafaqat estetik g'amxo'rlik bilan bog'liq bo'lgan va grammatik vazifani bajarmaydigan, balki xoch shaklidagi ikkita sintagma semantik nyuanslarni ochib beradi. Bunga misol qilib, Gyugoning "*Un roi chantait en bas, en haut mourait un Dieu*" misrasida joylashuvga asoslangan ikkita atama (yuqorida) ta'kidlangan. "*Dieu*" va "*roi*", bu ayniqsa yuqori raqamlarga ishora qiladi. Keyinchalik bu yaqinlashuv "*chantait*" va "*mourait*" fe'llari o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan yo'q qilinadi, bu xiazm tomonidan ruxsat etilgan ta'sir. Xiazm ham grammatikdir, chunki "*en haut*", "*en bas*" bir xil tabiatdagi atamalar, shuningdek, "*roi*" va "*Dieu*".

III BOB. O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZMNING STILISTIK FUNKSIYALARI

3.1. Xiazm stilistik universalisiya sifatida

Xiazm maksimal stilistik erkinlikka ega. Uni stilistikaning barcha nutq shakllarida uchratish mumkin. Ushbu chegarada unga janr, kompozitsion va tematik ziddiyatlar mutlaqo begona. Adabiyotshunoslar kompozitsiyadagi xiazm asosini ba'zi keng ko'lamli epik asarlarda qo'llaydilar. Masalan, T.Y.Avtuxovich xiazmatik qolipni F.Sologubning "Kichik jin" romanida uchratgan.¹

Lekin badiiy nutqda xiazmning yaqqol timsoli, ya'ni stilistik ta'sirini xuddi shu ifoda asosida qurilgan matndan qidiradigan bo'lsak, ularni kichik she'riy matnlardan qidirish maqsadga muvofiqdir. Ikki misrali xiazmning misoli sifatida Erve Bazening "Corollairement" she'rini keltiramiz:

Le bien d'autrui se supporte mal,

Le mal d'autrui se supporte bien...

O'zgalar muvaffaqiyati qiyinchilik bilan o'tkaziladi,

O'zgalar qiyinchiligi muvaffaqiyat bilan o'tkaziladi.

Ba'zilar juda chuqur, ba'zilar esa unchalik bo'lmagan inson tabiatiga xos bo'lgan armon tuyg'usi mavjud, vaholanki, falsafiy maksimal ko'rinishda ifodalangan bu konversiyali ideal xiazmda xiazm tuzilishiga aloqasi bo'lmagan bir dona ham ortiqcha so'z yo'q.

Toping qani Qo'qonidan suratini,

O'zbek quvdi, **uyg'ur** ko'mdi **Furqatini**.

Furqat uyg'ur deganim yo'q, berayin sharh,

O'z bolasini o'zi ko'msin deyman bir xalq.

(Muhammad Yusuf)

Ul Katta shoirlarga qilmangiz havas,

Sizga havas qilsin katta shoirlar.

Chunki she'r baxtiga ustozlar emas,

Muyassar bo'ldi ko'proq shogirdlar.

(E.Vohidov, Katta shoirlar)

¹ Автухович Т.Е. Античная риторика. - Гродно, ГрГУ, 2003. – С.62.

Cho'lponning "Galdir" she'rida xiazm yanada erkinroq va obraz shaklda boshqa falsafiy umumlashtirishni, ya'ni tolerantlikning zaruriyatini ifodalaydi:

Men dutor **birlan tug'ishgan**, ko'hna bir
devonaman,
Ul **tug'ishgonim bilan** bir o'tda doim
yonaman.

(Cho'lpon, "Galdir" 518-bet.)

Xiazm lirik tonallikda ham zo'r jaranglaydi. Bu haqida Mariya Fransuzskayaning (XII.asr) mohirona va sodda xiazm konstruksiyasi yoki Jak Preverning tanlab, murakkab ovozli namunasi va kutilmagan o'yin asosida qurilgan xiazmini misol qilish mumkin:

Mais si l'on veut les séparer
Le coudrier meurt promptement,
Le chèvre feuille mêmement.
Belle amie, ainsi est de nous:
Ni vous sans moi ni moi sans vous.
C'est comme cela que je te vois
Pays ***fou*** des arbres ***sages***
Pays ***sage*** d'herbes ***folles***
Paysage, paysage.

Ahmad Yassaviy hazratlarining quyidagi she'rlarida kontekst bilan bo'lingan xiazm lirik qahramonning qayg'usini his qilishda muhim solishtirish bo'lib kiradi:

Oshiqlarga dunyoda xorlik, zorlik, **malomat**,
Malomatsiz mehnatsiz **oshiq** man deb aytmasin.

(A.Yassaviy, "Devoni hikmat")

Yosh shoir Shafolat Termiziyning she'rida hazilomuz, ammo chuqur falsafiy fikrlar quyidagi xiazmatik konstruksiyalar bilan berilgan:

Pashshalar qora fikrlar kabi, menga tinchlik bermaydi:
Chaqadi, g'ing'illaydi, faqir boshim ustida hech tinmaydi!
Qora fikrlar pashshalardek, tun bo'yi menga tinchlik bermaydi:

Chaqadi, ezadi, faqir boshim ustida aylanib, hech tinmaydi!

(Shafolat Termiziy, To'rtliklar)

Xiazmatik konstruksiyadan iborat bo'lgan Z.M.Boburning lirik miniatyurasi eng samimiy hislarni – parishonxotirlik va sevgi yoki do'stlikdagi umidsizlikdan kelib chiqqan azoblarni yaxshi ifodalaydi:

Ul pari **ishq**ida Bobur jon berib, ey **ahli ishq**,
Ishq atvorini **ishq ahlig'a** mushkul qilgudek.
Olg'ali jonimni hijrong'a havola qildi yor,
Qo'yma hijrong'a, ajal, jonimni ol, Tengri uchun.

(Z.M.Bobur, ruboiylar)

She'r arxitektonikasi shaffof: bir xiazm uning asosini tashkil qiladi, boshqasi – chegaralarini. Oddiygina tajriba o'tkazsa bo'ladi, ya'ni she'rni 2 xiazmli qiladigan ikkinchi qismini olib tashlash. Barcha so'zlar aytilgan bo'lsa ham, she'riy ma'no beradigan tushunarsiz og'riq, parishonxotirlik, qalb notinchligi kabi hislar ketganligi kuzatiladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk so'z ustalari o'z ijodida o'ta nuqtadonlik va nafis didlilik bilan ajoyib xiazmatik konstruksiyalar yaratganlar. Ular yaratgan xiazmatik qurilmalar odatdagi xiazmlarga nisbatan strukturasi jihatdan murakkabroq tuyuladi, ammo o'quvchi uchun tushunarli birikmalardir, masalan:

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki **sevmak Ondin** ortuq bo'lmas,
Ondin seni ko'p **sevarmen**, ey umri aziz.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 75-bet).

Shunday murakkab tarkibli xiazmatik jumlaning A.Navoiyning quyidagi misralarida kuzatamiz:

Ham **jis**mingga za'f bo'lsa, **jonim** sadqa,
Ham **jon**ingga **jismi** notavonim sadqa.
Sarvingg'a shikast o'lsa, **ravonim** sadqa,
Yo'q-yo'qki, **sanga jon-u jahonim sadqa**.

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 75-bet).

Yoki bo'lmasa, quyidagi misolga ham bir e'tibor qarataylik:
Munglug' **boshim** ostidog'i **toshimnimu** dey?

Tosh ustidagi g'arib **boshimnimu** dey?
Hasrat suyidin **ko'zimda yoshimnimu** dey?
O'lmakdin **sa'broq maoshimnimu** dey?

(A.Navoiy, "Navoiy gulshani" 77-bet.)

Quyidagi misrada xiazmatik qurilmaning ikki qismi ham jarangdorlikni oshirish uchun uch bosqichli chegara hosil qiladi.

Oq edi – qizil bo'ldi,

Qon qizartirdi.

Qizil edi – oq bo'ldi.

O'lim oqartirdi.

(To'lqin Eshbek)

Ushbu xiazm qiyin lingvistik tarkibga ega: "oq" va "qizil" transformada takrorlanib, boshqa gap bo'lagiga o'tib ketadi va o'z ma'nolarini o'zgartiradi: siyosiy mutanosiblik – tana rangi.

Aytib o'tish lozimki, Z.Bobur ko'pincha murakkablashtirilgan noyob modellarni qo'llab, xiazmga stilistik usuldek yondashadi, masalan:

Garchi oshiq lozimi **olamda rasvoliq** turur,

Ishq aro Bobur kibi **rasvoi olam** bo'lmasin.

Yordin ozor ko'nglum ichra behad bordur,

Ey xush **ko'ngil, anga ne yor-u ne ozordir.**

(Z.M.Bobur, ruboiylar)

Jon jononag'a **qovshurg'on**, qizin **qo'ldin** topshirg'on,

Qo'l qovshurub yolg'or on Abo Bakri Siddiqdur.

(A.Yassaviy, Devoni hikmat)

Xiazm shok samarasining yaratilishida ham bu nozik shakl o'ta me'yoriy bo'lmagan leksik to'ldirish bilan to'qnashganida ishtirok eta oladi. Bunday holatni O'tkir Hoshimovning matn qismini tashkil etuvchi aforizmida ko'rish mumkin:

Holatimiz rasvo, lekin sen o'zing **rasvo bo'lsang – holatni ayblama.**

(O'.Hoshimov)

Sintaktik tizimning latofati kontrast bo'ylab vulgarizmning qo'polligini ko'rsatadi. Boshqa hollarda xiazmatik tuzilmani qo'llashdan, hatto oddiy xiazmatik tuzilma bo'lsa ham, uni mualliflik neologizmi holati bilan to'ldirsa bo'ladi, buni so'z ustasi, tarjimon olim G'aybullar As-Salomning quyidagi hazilomuz

satrlarida kuzatamiz va bu misolda xiazmgga asos bo'lgan leksik birliklarning omonimik holati ham ko'zga tashlanadi.

It insonning do'sti,

Insonning do'sti it bo'lsa-chi ?

(G'.As-Salom, "Ey umri aziz" 72-bet).

Birinchi misrada *it* (hayvon) – insonning do'sti sifatida talqin qilinadi. Sababi mentalitetimizda *it* insonning do'sti sifatida talqin qilinadi. Ba'zan xalq orasida *it vafo-xotin jafo* degan gaplar ham yuradi. Ammo ikkinchi misrada esa butunlay teskari ma'no do'sting it bo'lsa-chi, ya'ni *it* (itfe'l shaxs) fe'lli, xudbin bo'lsa kabi o'xshatish orqali it so 'zining omonimik xususiyatlarini ochib bera olgan.'

Xiazm nafaqat bir asar matnida, balki alohida muallifning butun ijod kontekstida ham uchramasligi mumkin. Biroq ko'plab yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida antiteza, takror, sintaktik parallelizmdan, ya'ni ma'no jihatdan murakkab xiazmlar, hatto undan ham ko'proq xiazmatik birikmadan foydalangan va buni muvaffaqiyatli rivojlantirishga erisha olgan.

Xiazm badiiy asarlarda kam uchraydigan shakl bo'lishiga qaramasdan, universaldir, chunki unda ma'lum bir til tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari ba'zan tadqiqotlarimiz jarayonida ko'rsatganimizdek bo'ladi. Umuman olganda, xiazmning tuzilishi shaffof va har qanday tuzilishdagi tillarda o'xshash va boshqa tillarda ham xiazmni shakli jihatdan bemalol farqlashimizga imkoniyat yaratadi, ya'ni xiazmni butunlay notanish tilda ham vizual tarzda aniqlash oson.

Xiazm mukammal tarjima qilinadi (xiazmatik so'z birikmasidan tashqari tarjima qilish qiyin, chunki u so'z birikmasi bo'lgani uchun xiazmatik emas). Ushbu tuzilishda turli tillar o'rtasidagi farqlar juda aniq namoyon bo'lmaydi, lekin ularda umumiy bo'lgan narsa, Yakobsonning fikriga ko'ra, dunyo tillarining yagona modeli turli xil versiyalari sifatida talqin qilishga imkon beradigan narsa "inson tili"dir¹.

¹ Якобсон Р.Я. Работы по поэтике: Переводы / Сост. и общ. ред. М.Гаспарова. –Москва: Прогресс, 1987. – С. 99-132

Xiazm ham universaldir, chunki uning funksiyalari chegaralarni, stilistik cheklovlarni bilmaydi. U so'zlashuv nutqida, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodida, maqollar, matallar, tez aytishlar, topishmoqlar, xazil-mutoyibalar shaklida qo'llanadi. Bu kabi janrlarda xiazmning qo'llanishi tillararo madaniyatni, ya'ni lingvokulturologik jihatlarini ham namoyon qilishga yordam beradi. Ma'lumki, lingvokulturologiya lisoniy madaniyat bo'lib, bu har bir millatning turmush-tarzi, urf-odatlar, an'analarida o'z aksini topadi. Masalan, fransuz va o'zbek millatining bir-biriga o'xshamaydigan va biri-birini takrorlamaydigan o'z madaniyati bor. Quyidagi misollarda o'zbek va fransuz mentalitetiga xos ayni jihatlar ko'zga tashlanadi.

Kelin bo'ldim – qaynonamga yoqmadim. Qaynona bo'ldim – kelinimga yoqmadim. (o'zbek xalq maqollari, 255-bet).

O'zbek xalqi uchun qaynona-kelin munosabatlari har doim birlamchi hisoblanadi hamda bu munosabatlar natijasida yuqoridagi kabi maqollarning yuzaga kelish parametrlari shakllanadi. Darhaqiqat, qaynona va kelin munosabatlarida doimo nizolar yuzaga keladi, natijada kelin bo'lganida qaynonasiga, qaynona bo'lganda esa keliniga yoqmasligini ko'rsatib, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga ishora qilinadi. Shu maqolning davomi sifatida yana bir misolni keltirish mumkin.

**Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r,
O'g'ling yomon bo'lsa, kelinigdan ko'r.**

(o'zbek xalq maqollari, 265-bet).

Ushbu misolning ham asl mohiyati qaynona-kelinga borib taqaladi. Sababi agar o'g'il odil bo'lsa, ya'ni ushbu misrada aytilganidek ***“Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r”***, onasini ham, ayolini ham bir xil darajaga qo'ysa, birini biridan kam ko'rmasa, hech qachon bu ayollar o'rtasida muammolar kelib chiqmasligini ushbu maqol misolida ko'rish mumkin. Maqolning keyingi misrasida esa ***“O'g'ling yomon bo'lsa, kelinigdan ko'r”***, butunlay teskari mulohaza ifodalangani asrlar davomida shakllangan shu kabi maqollarda o'z aksini topgan.

**Yaxshi xotin olib bersang yigitga,
Ming kuni bir kun bo'lib o'tar.**

Yomon xotin olib bersang yigitga,
Bir kuni ming kun bo'lib o'tar. (maqol)
Erdan – xato, xotindan – uzr,
Xotindan – xato, erdan jazo. (maqol)

Darqaiqat maqollar har bir millatning turmush tarzi, yillar davomida shakllanib kelayotgan urf-odatlar, xalqning tajribalari asosida yuzaga keladi. Yuqoridagi ikkala maqolda ham faqatgina o'zbek millatiga xos jihatlarni ko'rish mumkin, ya'ni bu misollarda er-xotin munosabatlari shu darajada qisqa fikr orqali ifodalanganiga qaramay, butun bir oilaviy muammolarni ikki misra orqali to'laligicha yoritilganini ko'rish mumkin.

Sinonimiya asosida qurilgan xiazmatik birikma misolini fransuz xiazmatik birikmasini Tamise (Temza) va Seine (Sena) gidronimlari qatnashgan omonimiya asosida ko'ramiz:

- J'ai inventé un système pour la purification de l'eau qui va contenter à la fois les gens de Londres et ceux de Paris. Suppose un siphon qui reunit et la Tamise et la Seine...

- Alors?

- Alors, **les eaux de Seine** seront **tamiseés** et **les eaux** de la **Tamise** seront **saines**.

Bu yerda so'z birikmalari o'yinida omofonlar ham (Siene – saine “sog'lom, toza”) omograflar va hatto paronimlar ham (tamiser fe'lidan olingan sifat-dosh tamise “tozalangan”, na semantik, na etimologik jihatdan hech qanday bog'liqligi bo'lmagan Temise “Temza” bilan bog'lanadi) aniqlangan.

Shuningdek bu misolda nafaqat omonimik, paronimik jihatlari balki fransuz madaniyatiga xos jihatlari ham ko'zga tashlanganini ko'rish mumkin. Sena va Temza daryolari haqida fikr yuritilganda bu faqatgina Fransiya davlatidagi ulkan daryolarni yodga soladi. Bundan tashqari bir qancha fransuzcha misollardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xiazmlar nafaqat stilistik vosita sifatida tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlarida yangicha qarashlarni shakllantirishga balki, lingvokulturologiya sohasida ham ayrim manbalarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Per Kornel o'z asarida keltirib o'tgan, har ikkala misolda ham aynan fransuz mentalitetini aks ettiruvchi xiazmatik konstruksiyalarni ko'rish mumkin. Masalan:

Qu'on parle mal ou bien du fameux cardinal
Ma prose ni mes vers n'en diront jamais rien :
Il m'a fait trop de **bien pour en dire du mal**,
Il m'a fait trop de **mal pour en dire du bien**.

Vers sur le cardinal de Rechelieu composés à l'occasion de la mort du cardinal. (Pierre Corneille, Poésies diverses)

Yuqoridagi misolda ham faqatgina Fransiya davlatida joriy qilingan lavozim (Cardinal – papa maslahatchisi) haqida gap boradi va bu boshqa davlatlarga xos bo'lmagan tomonlarini ko'rsatadi.

Bu kabi ko'p ishlatiladigan hazillar ham mavjud:

*Soch to'kilishining ikki yo'li bor: **ahmoq sochlar aqli boshdan to'kilsa, aqli sochlar esa ahmoq boshdan to'kiladi**.*

Bu hazilomuz misolimizda o'yinqaroq xiazm "shakllantirish" darajasigacha yetkazilgan, chunonchi, xiazmning tarkiblari sifatida so'zlar ma'nosidan mahrum bo'lmagan komplekslar (shuningdek, o'zbek tiliga tarjima qilinganda ham ma'nosidan deyarli mahrum bo'lmagan so'zlar), chunki bu komplekslarda grammatik ma'no bor. Kitobiy tilda bunday xiazmatik o'yinning aksi – yumoristik rasmga yozilgan yozuvlar bo'ladi. Masalan:

- *Itinigiz o'g'limni tishlab olibdi. Ma'naviy zararni qoplashingizni talab qilaman!*

- *Mayli, unda o'g'lingiz ham itimni tishlasin.*

Ammo o'z-o'zidan paydo bo'lgan (spontan) nutqda nafaqat umummilliy nutq jamlanmasi ma'lum bir tilni yaxshi biladigan har bir kishi ixtiyoriga qo'yadigan to'liq takrorlanadigan tayyor xiazmatik ifodalarni, balki nutq harakati paytida yaratilganlarni ham topish mumkin. Sevimli ayiqchasini quchoqlagan to'rt yoshli bolakay o'zining g'oyat do'stona his-tuyg'ularini shunday ifodalaydi: "*U men uchun ayiqcha, men esa uning uchun ayiqcha*". Kundalik nutqda oliy darajada aks etgan his-tuyg'u hissiy jihatdan to'yingan shaklni qidiradi va uni xiazmda topadi.

Xiazm, ko'rsatganimizdek, badiiy nutq uchun juda xarakterlidir. "U faqat shakllardan foydalanadi, deb aytishning o'zi

kifoya emas – u ular bilan birga yashaydi”¹ xiazmga murojaat qilib, uning barcha tarkibiy qirralarini, ushbu tuzilma yashiradigan eng yaxshi semantik va hissiy nyuanslarning barcha imkoniyatlarini ta’kidlaydi, aniqrog’i, ochib beradi.

Xiazm nafaqat badiiy nutqda, balki kitobiy nutqning barcha qat’iy diapazon (ko’lam)larida uchraydi. Bu yerda umumiy ko’rinish paydo bo’ladi, u Dyubua ritorikasida quyidagicha ifodalanadi: “Shaklsiz she’r yo’q, deyishimiz mumkin. Lekin she’rsiz shakllar borligi aniq”.

Diniy matnlarda. Ey ko’ngil! Sen Alloh meni sevadimi, sevmaydimi, deb qiziqyapsanmi? Xo’sh, buning o’lchovi bormi, bor bo’lsa, nimadan iborat? Sen Allohga qalban naqadar bog’liqsan? Allohga bo’lgan ishqing qay darajada – o’lchov mana shudir. Bilkim, **sening Allohga bo’lgan muhabbating Allohning senga bo’lgan muhabbatidir.** Bu insonning botinidagi tuyg’ularga bog’liq. Ana shu tuyg’ular maydonga kelsin, qalb nurlansin, deb zikr qilinadi. Zero, Allohning **“Bas, Meni eslangiz, Men ham sizlarni eslayman”**, degan va’dasi bor. “Bu amal naqadar go’zal”²

Bitta **birodaringni** shu darajada yaxshi ko’rginki, bir kun kelib senga **dushman** bo’lib qolishi mumkin, sen **dushmaningni** shu darajada yomon ko’rginki, bir kun kelib **do’st** bo’lib qolishi mumkin.

Quiconque est **né de Dieu, ne commet pas le péché** parce que la semence de Dieu demeure en lui et **il ne peut pecher** puisqu’il est **né de Dieu.**

Celui qui **verse le sang de l’homme**, par **l’homme** son **sang sera versé.**³

Drôle d'immeuble situé **boulevard Pasteur**

C'est dans cet immeuble que demeure le **pasteur Boulevard.**

Yuqoridagi ikkala tildagi misollardan ham ko’rinib turibdiki, xiazm bu sof sintaktik stilistik vositadir. Hattoki diniy matnlarda ham xiazm tinglovchiga yetkazilayotgan fikrni aniq va tushunarli tarzda yetkazishga hamda ularning xotirasida saqlanib qolishiga

¹ Dubois J. Éléments de linguistique française. Paris Larousse. 1973. – P. 26.

² Tohir M. Odamiylik mulki. Toshkent, 2021. – B. 48.

³ De la Bible. P. 118.

imkon yaratadi. Shuningdek, chog'ishtirilayotgan tillardagi muqaddas kitoblardagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, ikkala tilda ham Allohning buyuk ekanligi hamda uni tanigan hech bir inson gunohga qo'l ura olmasligi aytib o'tilgan va lingvokulturologik jihatdan bir-biriga qardosh bo'lmagan tillarda ham umumiy jihatlar borligini ko'rsatadi.

Ilmiy matn. C'est l'énoncé de *la réalité* qui suggère à l'allemand le **jugement**. C'est l'énoncé du **jugement** qui rappelle *le réel*. Disons que l'allemand va du fait à l'idée et que le français va de l'idée au fait. **(Malblanc)** O'zbek tilidagi ilmiy matnlarda xiazmatik konstruksiyalar uchramadi.

Siyosiy graffiti. "Quand *l'assemblée nationale* devient un *théâtre bourgeois*, tous *les théâtre bourgeois* doivent devenir *des assemblées nationales*".

(1968-yil may oyida isyonkor talabalar tomonidan bosib olingan Odeon teatri devoridagi yozuv).

Kitobdagi yozuv. Je ne sais pas si **je ne suis pas libre** parce que **je ne suis pas heureux**, ou si **je ne suis pas heureux** parce que **je ne suis pas libre**. (*dans Breathless, livre de Jean Luc Godard*)

Menga **do'stligi** har qanday **adovatdan** ko'ra ko'proq berilgan va men uchun har qanday **do'stlikdan** ham **adovat** aziz bo'lgan sen (Yeseninning Erenburgga taqdim etilgan "Ajralish" to'plamiga bag'ishlanishi).

Voltaire disait à une actrice : «Le diable au corps! Mademoiselle, le diable au corps!» faisant à tout artiste une nécessité de cet hôte infernal. eh bien! nous ne serions pas étonné que M. Offenbach n'eût pris trop à la lettre ce diable précepte. Il y a du diable dans ce petit homme grêle et grelottant s'il n'est pas le diable lui-même, le diable jouant du violoncelle. (G.Desnoiresterres)

Gazetadagi maqola. Gazeta maqolalarida ham xiazmni ko'rishimiz mumkin. Har qanday sarlavha singari, ular mavzuni oldindan ko'rish vazifasini bajarib, o'quvchilarni idrok etishga tayyorlash uchun o'zlaridan keyingi matnning mazmunini qisqartirilgan shaklda ifodalaydilar.

Obscurité de syntaxe et syntaxe d'obscurité chez Mallarmé – Ferré, "*Roman des origines et origines du roman*" – Robert

“Virtual haqiqatmi yoki haqiqiy virtuallikmi”?

Sarlavhalar. Ahamiyatliligi bo'yicha bularning barchasiga yaqin bo'lgan o'z-o'zini ta'minlaydigan xiazm – xiazm-sarlavhalari. Ammo xiazmatik shakl mavzuni alohida ko'rinishda taqdim etishga imkon beradi va shu bilan o'quvchini qiziqtiradi.

Jozibali rahbar yoki rahbarning jozibasi. (Q.Yo'ldoshev, “Jilovlanmagan tafakkur mahsuli” 479-bet)

Culture du pouvoir, pouvoir de la culture.

Tous pour un, un pour tous. (A.Dumas, Les trois Mousquetaires 1844) ushbu fransuz asari sarlavhasidagi misol o'zbek tilidagi ***“Bir kishi ming kishi uchun, ming kishi bir kishi uchun”*** (*o'zbek xalq maqollari, 80-bet*) degan o'zbek xalq maqoli bilan semantik-stilistik jihatdan deyarli bir xil. Ikkala tildagi misollarda ham xiazm chaqirish, undash ma'nolarini ifodalab kelmoqda, ya'ni jang paytlarida bu askarlar tomonidan shior sifatida aytib kelingan.

Epitafiya. ***Dunyo undan yuz o'girmasdan oldin dunyodan yuz o'girgan kishi baxtiyordir*** (yosh vafot etgan Muhammad Sulton uchun qurilgan Go'ri amir maqbarasiga kiraverish lavhasidagi yozuv).

Dostonlarda. Bizga ma'lumki, dostonlar har bir xalqining, millatning azal-azaldan imon-e'tiqodi, or-nomusi, do'stga sadoqatining va sof muhabbatining ulug'lanishini yorqin ranglarda aks ettirib keladi.

Uzoq yerdan yaxshi ***tulpor chopilmas,***

Chopilmayin xasa ***tulpor*** sovulmas.

(*Kuntug'mish dostoni, 65-bet*)

To'ram o'ldi, go'daklarim o'lmasin,

Hech kimsa dunyoda ***menday bo'lmasin,***

Menday bo'lsa, bu dunyoga kelmasin,

Menga solgan bunday qayg'-u alamdi,

Bu yolg'onda hech bandaga solmasin.

(*Kuntug'mish dostoni, 83-bet*)

Bo'ston bo'lib **yotibdi cho'llar**,
Cho'llar yotibdi chorva-mollar,
Butun cho'lni joylagan Qo'ng'irotd ellar,
Bachchalikda ko'rgan joylar.

(*Alpomish dostoni, 53-bet*)

Xalq qo'shiqlari.
Yuzingni qizil deydilar
Qizil yuz ukam ey, yor-yor.
Ko'rsat yuzingni men bir ko'ray,
Jonim ukam ey yor-yor.

(*Xalq qo'shiqlari*)

Aforizm. La société est composée de deux grandes classes: ceux qui **ont plus de dîners** que **d'appétit que de dîners**. (Nicolas de Chamfort, Citations).

La franchise ne consiste pas à **dire** tout ce que **l'on pense**, mais à **penser** tout ce que **l'on dit**. (Hypolite de Livry, Citations).

Les chanceux sont qui arrivent à tout. Les malchanceux, ceux à qui tout arrive.

"L'amitié finit parfois en amour, mais rarement l'amour en amitié" . Do'stlik ba'zan sevgi bilan tugaydi, lekin kamdan-kam hollarda sevgi do'stlik bilan tugaydi. (les citations de Charles Caleb Colton)

Aforizmlarni voqelikdagi munosabatlarni aks ettiruvchi, ularning nomuvofiqligi, ziddiyatli tomonlarini ko'rsatib beruvchi, individual hayotiy tajriba natijasida shakllanadigan yaxlit matnlar deb hisoblash mumkin. Aforizmga moyil fikr, albatta, xiazmning tayanch nuqtasida o'zini sinab ko'radi. Bularni yuqoridagi misollarda ham ko'rish mumkin.

Reklama. "Il y a **des époques sans chansons** et **des chansons sans époque**".

"Des **infos justes** et pas **juste l'info**." (*France info*)

Les mots justes pas des mots. (*La Croix*)

Tout le monde y est capable de fabriquer un véhicule électrique mais qui sera capable de fabriquer un véhicule électrique pour tout le monde? (Renault Z.Y).

Ce n'est plus *la pêche* qui donne *la Truite*, c'est *la Truite*, qui donne *la pêche* (La truite)

La tranquillité d'une *assurance* et *l'assurance* d'être *tranquille*. (Jean Claude Puerle fondateur de User).

Une voiture de **course pour la route**.

Une voiture de **route pour la course**...(w.w.w.auto-pub.net)

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda hayotimizni reklamalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular esa ohangdor, tinglovchini o'ziga tortadigan jozibador, shuningdek, so'zlovchi aytayotgan har bir fikr ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'ladiki, undagi pragmatik mazmun tinglovchiga tushunarli bo'lishi lozim. Yuqorida reklama matnlaridagi misollardan ko'rinib turibdiki, xiazm ifodalayotgan sintaktik birlik kuchaytirish, ehtirosli va musiqaviy qilish, shu tarzda tinglovchilar va tomoshabinning diqqatini jumlaning tegishli qismlariga qaratishdir.

Ko'rgazmali targ'ibot. Un arbre peut donner *des milliers d'allumettes, une allumette* peut détruire des *milliers d'arbres*. (o'rmondagi plakat).

Si vous ne voulez pas vivre pour manger, manger au moins pour me faire vivre. (entrée du restaurant)

Bu yumoristik xarakterli xiazm tarjimada ko'proq *Yeyish uchun yashash emas, yashash uchun yeyish kerak*, degan o'zbek maqoliga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tarjima jarayonida na ma'no va nainki, xiazmatik konstruksiya buzilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Latifalar. Mais je n'ai pas dit que les nouilles étaient trop salées, j'ai dit que dans le sel il n'y avait pas assez de nouilles "Pour une année où il y a des pommes, il n'y a pas de pommes: mais pour une année où il n'y a pas de pommes, il y a des pommes" (Anicet Bourgeois et d'Ennery "La Fille du paysan".)

Maqollar. Xiazm o'ziga xos bir butun matn bo'lishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, kelib chiqishi turli xil bo'lgan maqollarda jamoaviy hayot tajribasini to'g'ri va lo'nda ifoda etishiga taalluqlidir:

Bilgan kishi **bildim** demas,

Bildim desa, **bilgan** emas. (Maqol)

Maqollarda xiazmatik tuzilish juda barqaror. U turli tillarda o'xshash maqollarni qayd etadi.

Nous aimons ceux qui nous admirent, et nous n'aimons pas toujours ceux que nous admirons.

Qui a une femme, a toutes les femmes: qui a toutes les femmes, n'a pas de femme.

D'autres ont planté ce que je mange, je plante ce que d'autres mangeront.

Xiazm yanada kengroq ma'noda ham universal: bu hodisa faqatgina ekspressiv sintaksisga xos emas. Xiazm analogiyalarini musiqalarda ham topish mumkin. Musiqiy jumla, bir ovozda asosiy ohang bo'lib yangrab, akkompanement bo'lib yangraydigan boshqa ovozga o'tib ketadi. Funksiyalar almashinuvi bilan o'ziga xos qayta joylash hosil bo'ladi. Bunday holatlarni D.Shostakovichning "Uzoq ayriliq oldidan" qo'shig'ida uchratish mumkin:

Xiazm ma'lum darajada umumiy estetik kategoriya bo'lib, insonning uyg'unlikka, simmetriyaga bo'lgan abadiy istagini o'zida ko'rinish shakllaridan biri sifatida mujassamlashtiradi.

Xiazmning jozibali bezagi, uning "o'yinqaroq", dinamik fe'li va bir xillilikdan xilma-xillik yarata olishi so'z rassomi uchun yanada e'tiborni tortadigan qilib qo'yadi. Ammo har bir kuchli ta'sirga ega vosita kabi kam miqdoriy kuchni talab qiladi.

3.2. Xiazm va komik vaziyat

Komik samaraga erishishda xiazm ishtiroki to'liq bo'lishi uchun xiazmning ushbu vazifasida paydo bo'lgan janrlarni qisqacha ko'rsatib o'tamiz. Xiazm komik vaziyatni yaratish uchun xos bo'lgan barcha janr turlari bilan bimalol aloqaga kirisha oladi.

Xiazmni keng tarqalgan hazillarda ko'plab uchratish mumkin. Masalan, mashhur "Kavkaz asirasi" filmida, **"Yashash yaxshi! Yaxshi yashash** undan ham yaxshi" kabi oddiygina hazil gap orqali xiazmni yuzaga keltirgan. Xiazm komik perifrazaga kirib, laparlarda ham paydo bo'ladi:

Shirin bo'lib **o'tirardi ayvonda**

Ajib bir **ifoda bilan yuzida.**

Ifodalangan edi yuzida,

Nechun **o'tirardi u ayvonda.**

La différence entre un artiste et une paire de chaussures, c'est que l'artiste doit pouvoir **partir** avant de **lasser**, tandis que les chaussures il vaut mieux les **lacer** avant de **partir**. (Philippe Geluck, Citations)

Xiazmatik konstruksiyaga juda samarali hisoblangan kichik yumoristik janrlarga karikatura tagidagi yozuvlarni ham misol keltirish mumkin. Namuna keltiramiz:

- Mais non, chérie, je ne dis pas qu'il y a trop **de sel dans les nouilles**, je dis qu'il n'y a pas assez **de nouilles dans le sel**.

Komik samarani amalga oshirish uchun qo'llaniladigan janr ko'pincha epigramma bo'ladi. Mana oddiy misol:

U va xalq orasida nima farq bor?

"Xudo biz bilan!" – deb yozadi u.

"Xudo uni asrasin!" – deymiz biz.

Yoki Volter tomonidan kompozitor Gretri qasri qoidalari haqida yozgan epigrammasida dunyo buyuklari eshaklar bilan solishtiriladi:

La cour a dénigré les chants,

Dont Paris a dit des merveilles.

Hélas! Les **oreilles des grands**

Sont souvent **de grandes oreilles**.

Xiazm faqat ma'lum bir sabab yoki bir aniq insonga qarshi yozilgan epigrammalarda paydo bo'lmaydi. U umumlashtiruvchi epigrammalarda ham shakllanadi, Masalan,

Boy va chiroyli hurliqoga

Sovchi qo'ydi **ahmoq va nodon**,

Ahmoqni uning ko'zlari rom etdi

Pul dardida edi ul **nodon**.

Ul hurliqo haqida hech narsa bilmay,

Faqat shuni aytolsam kerak:

Ahmoq bo'lsa nodonga tegar,

Nodon bo'lsa tegar ahmoqqa.

Ikkala holda ham matndagi xiazma o'rni epigramma oxiridagi nuqta. Bu epigramma-epitafiyalarga ham tegishlidir. Masalan:

Ayanchli, kulgili holda yotardi sarmast

Gohida o'rnidan ham tura olmasdi.

*Vinoni tortdi u, toki
Vino uni tortmagunicha.*

Xiazm komik samarasini beradigan vositasi sifatida noodatiy janrlardan masalni misol keltirsak bo'ladi. Mana shunday bir "noodatiy" holat Jan-Pyer Kerloshning "Poésie malpolie" masalida kuzatiladi:

Une petite malotruë
aimant fort les gros mots,
Elle en dit un si gros
que le gros mot
la mangea toute crue.

Moralité

*Si les petites filles
aiment les gros mots,
les gros mots aussi
aiment les petites filles.*

Ko'rib chiqilgan holatlarga ko'ra, xiazm har qanday janrda komizm katolizatori ko'rinishida paydo bo'ladi. Komik samara berishi jihatidan xiazmga yondashilsa, u qanday qilib komik samara berishining barcha tanish bosqichlari bilan yaxshi oshirilishini ta'kidlab o'tish lozim. Bu Erkin Vohidovning to'rt misrali hazil she'ridagidek oddiy yumor bo'lishi mumkin:

Bolalarni shaytonlardan qo'rqitmangiz,
Bobov keldi, deb ko'rpaga berkitmangiz,
To ulg'ayib, duch **kelganda "bobov"larga**,
O'xshatmasin itdan qo'rqqan soqovlarga.

(E.Vohidov, To'rtliklar)

Hazil bu yerda arziyas ma'lumotni talqin qilishning to'liq jiddiyligidan va "**bobov**"larning (shaytonlar, itlar) harakatlarida bolalarga xos bo'lgan qandaydir ma'noni topish istagidan yuzaga keladi. Aniq mantiqiy tuzilishiga ega bo'lgan xiazm, u mavjud bo'lmagan va bo'lishi mumkin bo'lmagan joyda imo-ishora izlashni ta'kidlab, E.Vohidovning she'riy bezaklarini tavsiflovchi vaziyat hazilini yaratishga yordam beradi.

Shoirning boshqa to'rtligida xiazmga yumoristik ohang beruvchi tematik to'ldirish mavjuddir:

Yor ketdi-yu, qolibdir

Yo'l o'rtasida Erkin,

Ko'nglida **surmaso ko'z,**

Ko'zda g'ubor surma. (E.Vohidov, "Surma")

Xuddi ana shunday xiazmatik so'z o'yinini E.Vohidovning mahorat bilan yaratganligini kuzatamiz:

Chaman ichra **rang** tanlab,

Parivashlar bo'yaydir **lab,**

Mening yorim **labin,** yo rab,

Yurak qonimga **ranglaydir.**

(E.Vohidov, "Sir aytar g'unchaga g'uncha")

Xuddi shunday ta'sirni kulish uchun emas, balki jilmayib qo'yishga qaratilgan Lanselmaning "Le poète" hazilida kuzatish mumkin:

- Qu'est-ce qu'un *poète*?
- C'est quelqu'un qui ne *passe jamais*
- A la *Télé* parce qu'il *n'est pas connu*.
- Et pourquoi *n'est-il pas connu*?
- Parce qu'il *ne passe jamais à la Télé*.

Yengil yumor ba'zi bir "tartibga solinmagan fikrlar"da ham seziladi, bunda xiazm oddiy kundalik qoidani tasvirlaydi, masalan: har doim o'zligingizda qoling. ***Ot chavandozsiz ham ot. Chavandoz otsiz*** – oddiy odam.

Komik samara yaratilishi jarayonida aktiv ishtirok etuvchi xiazm, absurd (bema'nilik)ga olib kelishi mumkin. Teskari xiazm tuzilmasining o'zi buning uchun maxsus moslashtirilganga o'xshaydi. Ba'zida hamma narsani teskari qilishning o'zi xuddi Filipp Jelyukdek, kulgili bema'nilikni hosil qilish uchun yetarli asos bo'ladi:

Après 60 minutes d'équitation, l'homme dit qu'il a fait ***une heure de cheval***

Le cheval, lui, doit se dire qu'il a fait ***une heure d'homme***.

Bunday aralash bema'nilik dastlabki shakldagi maxsus tuzilma tufayli yuzaga kelgan, zero, hamma asl shakllar ham aralash absurd transformini o'tkazishga qodir emas.

Xiazmatik absurdizatsiya komizmni tashkillashtirish sifatida bolalar she'riyatida juda yaxshi qo'llanadi.

Asl shakl va birinchi transformdan ikki o'zak qo'shilishi natijasi – xiazmatik absurdizatsiyaning chegarasiga olib boradi va ba'zida ko'p bosqichli xiazmatik transformatsiya yo'li bilan yasaladi, masalan:

A vendre. A vendre: **un lot de passoires** non percées pouvant servir de **casseroles** et **un lot de casseroles** percées pouvant servir de **passoires**. ("L'os à moelle" jurnalidagi hazilomuz e'lon). Xiazmatik tuzilma yumoristik ma'noli paradoks yaratilishiga juda yaxshi mos keladi. Paradoksga misol qilib, Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasini hazilomuz tarzda tasvirlab berganini ko'rishimiz mumkin:

Qiz bilan bir soat bir daqiqadek o'tadi, issiq tovadagi bir daqiqa esa bir soatdek.

Per Daninosning mahalliy xiazm-paradoksi bundan-da yaxshi ko'rsatib o'tilgan: "Dunyoda bir-biriga zo'rg'a chidaydigan umr yo'ldoshlar ko'p, shu asnoda savol tug'iladi: **nikohlar o'zaro befarqliklarni keltirib chiqaradimi yoki o'zaro befarqliklar nikohlarga olib keladimi?**".

Xiazmga kinoya ham begona emas. Bizni qiziqtiradigan shakl ishtirokida bunday kinoyaning namunasini keltiramiz: "*Bir kuni bir gazeta muharriri anonim xat oldi, unda birgina "Cho'chqa" degan yozuv bor edi. Keyingi kun u o'z gazetasida javob berdi:*" Odatda men ***imzosiz xatlar olaman. Kecha birinchi bor xatsiz imzo oldim***".

Va nihoyat, komik bosqichdagi so'nggi pog'ona – piching (sarkazm). Bu yerda ham xiazm o'z katolizatorlik rolini samarali o'ynaydi:

Bu g'alati la'natlarda –

Qanday yashab nafas olayapman?

Atrofda **shovqin va qo'pollik** hukmron,

Shovqinli **qo'pollik va qo'pol shovqin**.

Piching ohang quyidagi kvaziaforizmدا ham seziladi, masalan:

O'smirlik davrining qiyinchiliklari: ***oldingi haqiqat yolg'onga aylandi, yangi yolg'on esa haqiqatga aylanib ulgurmadi.***

Kuzatishlarimizdan ko‘rinib turibdiki, xiazm komizmning har qanday darajasida ham samarali ishlatiladi – oddiy hazildan tortib, to pichingli kinoyagacha.

Xiazmatik birikma, barcha birikmalar kabi omonimiya yoki polisemiya asosiga quriladi. Polisemiya bilan qurilgan birikmaning misoli sifatida pullik poliklinikaning reklamasini keltirsa bo‘ladi: “Tekinga davolanish – bekorga davolanish”.

Xuddi o‘sha qoida – xiazm + polisemik leksik to‘ldirishni qayta qurish davridagi latifada ko‘ramiz, polisemik birikma bilan qiyinlashtirilgan fransuz latifasida qiziq voqea namoyon etadi:

Un jour de pluie Maman et Christophe sortent faire des courses.

- Maman, n’oublie pas de prendre ton **pépin**, dit Christophe.

- On ne dit pas **pépin**, mais **parapluie**, mon chéri.

Le même jour au dessert. Maman donne des oranges. Tout à coup Christophe la regarde affolé:

-Maman ... j’ai avalé **un parapluie**”

Bu yerda xiazmatik tuzilmani to‘ldirish uchun funksional-stilistik differensiatsiya qilingan 2 ma’noga ega **pépin** polisemik so‘zi ishlatiladi. Normal nutqda u meva danagini bildiradi, argoda esa – soyabon. Latifadagi yumor, birinchi holatda, bola qaysi vaziyatda so‘zning argotik ma’nosini o‘rinli qo‘llashni bilmasligida, “soyabon” ma’nosini anglatish uchun **pèpin** deydi, ikkinchisida esa, onasining tushuntirishlaridan chalkashib, “meva danagi” so‘zini aytish uchun **parapluie** so‘zini ishlatadi. Bunda komik vaziyat hosil bo‘ladi:

1. *Pépin* o‘rniga *parapluie*.

2. *Parapluie* o‘rniga *pépin*.

Jak Preverda xuddi shunday xiazm eng oddiy tizimga ega. Omonimik prinsip asosida qurilgan birikma ilovadagidak beriladi:

Il y a des gens qui dansent sans entrer en transe et il y a gens qui entrent en transe sans danser. Ce phénomène s’appelle la Transcendance et dans nos régions il est fort apprécié.

Ko‘rib turganimizdak, xiazm original birikma transcendemse (transsedentallik) – transe - sans - danse (raqssiz trans).

Va nihoyat, yana bir omonimiya asosida qurilgan fransuz birikmasida xiazmatik tizim shunday chuqur berkitilganki, faqatgina fonetik transkripsiya bilan uni aniq qilib ko'rsatsa bo'ladi: [laty lete // ləte laty]. Bu Jan-Lyuk Moroning javobi **“soif” - “chanqoq”** bo'lgan topishmog'i edi:

L'as-tu l'été, le thé la tue (“u yozda senda bo'lsa, uni choy o'ldiradi”).

Bu topishmoqni javobini qo'yib darak gapga aylantirilganda ***yozda chanqoqni choy qondiradi*** degan gap hosil bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan xiazmatik birikmaning bir qancha holatlari shuni ko'rsatadiki, asosida polisemiya yoki omonimiya yotgan bu birikma juda xilma-xil bo'la oladi. Turlanishda so'z o'yini jarayoniga boshqa stilistik vositalarni tasviriy kiritish orqali erishish mumkin.

3.3. O'zbek va fransuz paremik birliklarida xiazmning qo'llanishi.

Xiazm semantikasini G.L.Permyakov tomonidan maqol va matallarga doir mantiqiy-semantik tasniflanish fikriga amal qilgan holda ko'rib chiqish qulay. Lekin, maqol folklor hodisa sifatida hamisha omma ongini aks ettirishini, xiazm bo'lsa, folklorning bir qancha birligini o'z ichiga olgani holda, asosan individual ongni aks ettirishda ustunligini yodda tutishimiz kerak. “Paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etnik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmunli mantiqiy umumlashmada paydo bo'lgan maqol, matal, ibora, aforizm kabi paremiyalarni o'rganadi. Paremiya – yunoncha “chuqur ma'noli gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal” ma'nosini beradi”¹.

Necha asrlardan buyon tildan tilga o'tib, xalqning hayot tarzini o'zida aks ettirib kelayotgan, individual tajriba asosida shakllangan maqollar, matallar, tez aytishlar, so'z o'yinlari, topishmoqlar

¹ Amanov A.T. Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy meros sifatida o'rganish // Ilmiy axborotnoma, – Samarqand, 2016. №4. – B. 215.

insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy hayotga munosabati, axloqiy normasi, millat tarixini va ruhiy holatini ifodalaydi. Rasmiy go'zallik va semantik ixchamlikni birlashtirgan maqollar, har qanday jamiyat uchun boylikdir.

Ular antik davrga to'g'ri keladi, ulardan doimiy tarzda foydalanishda davom etmoqda. Maqollar shakli jihatidan qisqa, lo'nda, sodda, puxta mantiqli, fikran tugallanmagan va siqiq ishlangan bo'ladi. Maqollar kishining ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar, mard, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi, insonlarga ezgu fazilatlarni targ'ib etadi. Fikrni qisqa, aniq ifodalashga o'rgatadi. Aytmoqchi bo'lgan fikrlar obrazli qilib ifodalanadi, birgina maqol yoki matal orqali butun xalqning turmush tarzi va hayot tajribalarini ilg'ab olish qiyin emas.

Maqollar har bir millatning milliy o'zligi, mentaliteti, go'zal qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, milliy adabiyotda badiiy bo'yoqdorlikni, muallif konsepsiyasini ifodalash uchun paremik birliklardan unumli foydalaniladi. Jumladan, chog'ishtirilayotgan tillardagi maqollarda xiazm hodisasi tadqiq qilinganda o'xshash va farqli jihatlari yuzaga chiqadi.

Bundan tashqari, o'zbek maqollarining xususiyatlari, xuddi fransuz maqollarida bo'lgani kabi faqat bir tekislikda kesishmaydi. Ritmik xususiyat gapning semantik tuzilishiga mos keladi va ritmik simmetriya ikkilik yoki qiyosiy tuzilishdan kelib chiqadi.

Ifodasi va qisqaligi bilan ajralib turadigan maqollar murakkab axloqni tushunishni osonlashtirish, mavhum haqiqatlarni konkretlashtirish, sabablarni yana-da tushunarli hamda kulgili ko'rsatish uchun nutq figuralaridan foydalanadi.

Xiazmni nafaqat mikro va makromatnlarda, balki maqollar, sanoqlar, tez aytishlarda uchratish mumkin.

Bolalar folkloriga o'xshash "o'yin xiazmlari", shuningdek, bolalar she'riyatida ham paydo bo'ladi: "Pouquoi ne suis-je pas blanc?" Se lamente le mouton noir – Pourquoi ne suis-je donc pas noir?/ Se lamente le mouton blanc./ "Nega men oq emasman? / Qora qo'y yig'laydi - / "Unda nega men qora emasman?" / Oq qo'y yig'laydi./ Qui a **les yeux bruns, les veut bleus**. Qui a **les yeux bleus, les veut bruns**.

Bu hazilomuz fransuz she'rida o'yinqaroq xiazm "shakllantirish" darajasigacha yetkazilgan, chunonchi, xiazmning qismlari sifatida so'zlar ma'nosidan mahrum bo'lmagan komplekslar (shuningdek, o'zbek tiliga tarjima qilinganda ham ma'nosidan deyarli mahrum bo'lmagan so'zlar), chunki bu komplekslarda grammatik ma'no bor. Kitobiy tilda bunday xiazmatik o'yinning aksi – yumoristik rasmga yozilgan yozuvlar bo'ladi. Masalan:

- ***Itinigiz o'g'limni tishlab olibdi. Ma'naviy zararni qoplashingizni talab qilaman!***

- ***Mayli, unda o'g'lingiz ham itimni tishlasin.***

Ba'zida bunday transformatsiya butun boshli gapga yumoristik xarakter beradi, masalan, restoratorning reklamasida:

Si vous ne voulez pas vivre pour manger, mangez au moins pour me faire vivre. Ovqatlanish uchun yashashni xohlamasangiz, hech bo'lmaganda meni yashashim uchun ovqatlaning.

Maqollarda

Les bons comptes font les bons amis – Hisobli do'st ayrilmas.

Yuqoridagi fransuz maqolini tarjima qilish jarayonida ushbu fransuzcha maqolning aynan o'zbekcha muqobili borligini va ushbu muqobilda ma'no saqlanganligini, ammo xiazmning butunlay yo'qolib ketganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday ta'sir bilan yumorist Alfons Alle maqolni transformatsiya qiladi: ***Partir, c'est mourir un peu... Mais mourir c'est partir beaucoup.*** Bu usulda paydo bo'lgan xiazmlarda ma'no orttirilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Misol tariqasida o'zbek va fransuz xiazmatik maqollaridan namunalar keltiriladi:

1) tovushli xiazm: ***Erning otini xotin chiqarar, Xotinning otini o'tin chiqarar.*** (maqol)

2) leksik xiazm: ***Och bola to'q bola bilan o'ynamaydi, To'q bola och bolani o'ylamaydi.***

Un trésor n'est un ami, mais un ami est un trésor. (proverbe)

3) sintaktik xiazm:

Sen baloga tegmasang, Baloning senda ne ishi bor. Maqol.
Il faut **vivre ses rêves** et non **rever sa vie**. (proverbe)

Celui qui veut être **jeune quand il est vieux**, doit être **vieux quand il est jeune**. (proverbe)

A jeune homme – vieux cheval, à cheval jeune – vieil homme. (proverbe)

A **jeune femme et vieux mari**, des enfants: à **vieille femme et jeune mari**, des querelles. (proverbe)

Burun tortildi – dum tiqildi, dum tortildi – burun tiqildi. Yaxshi odam qo'yga qarshi, lekin qo'y yaxshi odamga qarshi. Vin sur lait, bien fait : lait sur vin, venin. Maqollarda xiazmatik tuzilish juda barqaror. U turli tillarda o'xshash maqollarni qayd etadi.

Bir kishi ming kishi uchun,

Ming kishi bir kishi uchun. (Maqol 16-bet)

Tous pour chacun,

Chacun pour tous. (proverbe)

Keltirilgan misol berilgan maqol stilistik, semantik va grammatik jihatdan ham bir xil va tarjima jarayonida ham ikkalasi bir xil ma'noga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, xiazm barcha tillar uchun barqaror xiazmatik tuzilishga ega.

Pora kanda bo'lmasa, (fonetik xiazm: tovush almashinuvi)

Parokanda bo'lasan. (Maqol 42-bet)

Yaxshi bo'lsa – **bola**, (tovush xiazmi)

Yomon bo'lsa – **balo**. (Maqol 277-bet)

Bu misollarda esa tovush almashinuvi xiazmini ko'rish mumkin, ya'ni a va o tovushlari o'zaro kesishgan X shaklida turibdi. **Pora** va **paro** hamda **bola** va **balo** so'zlarida tovush xiazmini ko'rish mumkin. Yuqoridagi misollar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, xiazm nafaqat qo'shma gaplar tarkibida, balki so'zlar tarkibida ham uchrashi mumkin.

Tahlillar jarayonida xiazmning fransuz maqollaridan ko'ra o'zbek maqollarida aktual ekanligi aniqlandi, ya'ni xiazm stilistik figurasi o'zbek xalq maqollarida juda ko'p qo'llangan va ularning ekspressiv ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan deyish mumkin.

Les fous sont plus utiles **aux sages** que **les sages** **aux fous**

Baxil avliyo bo'lmas,

Avliyo baxil bo'lmas. (Maqol) 168-bet

O'zbek va fransuz tillaridagi maqollarni qiyoslash jarayonida maqollarning ma'no jihatidan umumiy taraflari ikkala millat mentaliteti urf-odatlarini turmush tarzida umumiy o'xshash o'ziga xos taraflari borligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ikkala maqolda ham so'zlarning semantik jihatlarini deyarli bir xilligini ko'rish mumkin.

Les fous – aux sages
les sages – aux fous

Baxil –avliyo
Avliyo – baxil

Garchi, tarjimada maqollar umumiy ma'noga ega bo'lmasa-da, leksik-semantik vazifa jihatidan bir xil tuzilishga ega. Fransuz tilidagi maqolda qo'llangan **les fous** so'zini o'zbek tilidagi **baxil** so'zi bilan vazifa jihatidan bir xil o'rinda qo'llash mumkin, **les sages** so'zini esa vazifa jihatidan **avliyo** so'zi bilan sinonim tarzida qo'llanishi mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, xiazm universal figura bo'lib, barcha xalqlar uchun umumiy holatlarga ham ega.

Bonnet blanc
et blanc bonnet.

Quand on n'a pas **ce que l'on aime**, il faut **aimer ce qu'on a**
Yo'q narsa bor bo'lar, kamtar bo'lsang,

Bor narsa yo'q bo'lar, manman bo'lsang. (maqol)

Sintaktik jihatdan o'zbek va fransuz maqollarida eng ko'p qo'llanadigan aniq nutq shakli parallelizm bo'lib, u ko'pincha ikkilik tuzilishga to'g'ri keladi. Parallellik ham og'zaki gaplarda namoyon bo'ladi. Parallel tuzilmani tasavvur qilish uchun quyidagi misollarni keltiramiz. Fransuz tilidagi og'zaki misol sifatida:

- 1. La parole est d'argent et le silence est d'or;**
- 2. Plus on se depeche, moins on reussit**
- 3. L'homme propose, Dieu dispose etc.**
- 4. Loin des yeux, loin du cœur;**
- 5. Œil pour œil, dent pour dent; (les proverbes)**

Fransuz maqollaridagi kabi o'zbek maqollarida ham parallelizmlarni ko'rish mumkin. Sintaktik parallelizm asosida qurilgan yuqoridagi fransuz maqoli **"Loin des yeux, loin du cœur"** tarjimada **"Ko'zdan yiroq ko'ngildan yiroqdir"** degan ma'noni anglatadi. Buni qarangki, xuddi shunday maqolning o'zbek tilida ham muqobili mavjud bo'lib, buni **"O'zi yo'qning ko'zi yo'q"** yoki **"Ko'zdan nari – mehrdan nari"** kabi muqobillari bilan berishimiz mumkin. Bu maqol "Boburnoma"da xuddi shu shaklda uchraydi. Turli tizimga mansub bo'lgan o'zbek va fransuz tillari o'rtasidagi bu o'xshashlikni adabiy aloqalar natijasi sifatida ko'rish mumkin. Bundan tashqari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ham fransuz olimi Jaubert Amadi tarjimasi orqali fransuz xalqi madaniyatida ham keng yoyildi. Asardagi hikmatlarning o'zlashishi natijasida keyingi davrlarda ularning ayrimlari fransuzlarning buyuk siymolariga nisbat berib aytila boshladi. Masalan, ikki-uch yil avval ijtimoiy tarmoqlarda "Agar sher itlarga boshchilik qilsa, itlar sherlar kabi jang qiladilar, agar it sherlarga boshchilik qilsa, sherlar itlar kabi bo'ladilar" mazmunidagi aforizm Napoleon Bonapartga nisbat bergan holda e'lon qilindi. Bu hikmatli so'z bevosita "Qutadg'u bilig"ga tegishlidir. Shunisi ham borki, bu hikmatda ham xiazm ko'zga tashlanadi.

Garchi, bir qarashda o'zbek maqollarining fransuz maqollari bilan hech qanday aloqasi yo'qdek tuyulsa-da, ikki til o'rtasida juda katta masofa bo'lganligi sababli ikki til oilasiga mansub bo'lsa ham, tahlillardan so'ng ba'zi o'xshashliklar ya'ni ikkala til o'rtasida mushtarak jihatlari borligi aniqlandi.

O'zbek va fransuz maqollari o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni va ularda xiazmning ishlatilishini ko'rib chiqib, stilistik jihatdan, ya'ni sintaktik birliklardan foydalanish xiazmning qo'llanilishi jihatidan o'zbek xalq maqollarida mutlaq ustunlik borligi aniqlandi.

Aforizmlarda

Umuman olganda, voqelikning individual tomonlarini aks ettiruvchi va individual hayotiy tajriba natijasi bo'lgan aforizmlarni ham o'z-o'zidan yetarli yaxlit matnlar deb hisoblash mumkin.

Aforizmga moyil fikr, albatta, xiazmning tayanch nuqtasida o'zini sinab ko'radi. Taniqli aforistika ustalari Laroshfuko, Monten, Shamfor, Shou, Uayld, Klyuchevskiy va boshqalar ko'pincha o'z maksimlarini xiazmatik shaklda tuzadilar:

- en général, l'homme **mange son repas**, mais parfois **le repas mange** l'homme - *Odatda, odam taomni eydi, lekin taom ham ba'zida odamni yeyishi mumkin.*

Il ne peut pas exister de bonne influence. Toute influence est immorale - immorale du point de vue scientifique.

- La société est composée de deux grandes classes: ceux qui ont plus de dîners que d'appétit que de dîners. (Chamfort).

O'z-o'zini ta'minlaydigan xiazm orasida hazil miniatyuralar ham uchrab turadi.

Muvaffaqiyat asosiy **maqsadingiz** ko'z oldingizda turganda keladi,

Maqsadingiz ko'zdan nari ketishi bilan **muvaqqiyat** ham ketadi.

Tez aytishlarda

Tez aytishlar fonetik jihatdan o'xshash jumalarni o'z ichiga olgan xalq og'zaki ijodining bir turi bo'lib, ularda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so'zlar ritm, urg'ular bilan tez aytiladi¹.

Tez aytishlar talaffuzni yaxshilashga, nutqni yanada ravon, chiroyli va aniqroq qilishga yordam beradi. Xiazm asosida shakllangan tez aytishlar jozibadorligi, ohangdorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. O'zbek va fransuz tillaridagi tez aytishlarda ham xiazmning qo'llanilishi yuqori darajaga yetgan bo'lib buni quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin.

- **Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.**

- *Ergash Erkinga ergashdimi, Erkin Ergashga ergashdimi?*

- *Chumchuq chug'urchiqni cho'qimasa, chug'urchiq chumchuqni cho'qimaydi.*

Le cheval d'Avalac **avala l'eau du lac, l'eau du lac avala** le cheval d'Avalac.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tez_aytish

- **Quatres** plats **plats dans quatre plats creux, quatre plats creux dans quatre plats plats**

- Qu'**a bu l'âne au lac?** L'âne **au lac a bu l'eau**

- La roue sur la rue roule, la rue sous la roue reste

- **Kitoblar kitobxonlarga kerak, kitobxonlarga kitoblar kerak.**

- **O'roq o'xshar so'roqqa, so'roq o'xshar o'roqqa.**

- **Tovuq sovuqda sovgotadimi, sovuqda tovuq sovgotadimi.**

- **Oq choynakka ko'k qopqoq, ko'k choynakka oq qopqoq**

- **Écartons ton carton car ton carton nous gêne.** (Virelangues)

- **Un dragon gradé dégrade un gradé dragon**(Virelangues)

- **Papa boit dans les pins. Papa peint dans les bois. Dans les bois, papa boit et peint.** (Virelangues)

- **Un chasseur sachant chasser sans son chien de chasse est un bon chasseur. Un bon chasseur est un chasseur sachant chasser sans son chien de chasse.** (Virelangues)

- **Quand un cordier cordant veut corder une corde, pour sa corde cordée, trois cordons il accorde. Mais si l'un des cordons de la corde décorde, le cordon décordant fait décorde la corde.** (Virelangues)

Topishmoqlarda

Hier j'étais demain, mais demain, je serai hier (Aujourd'hui).

Kecha men erta edim, lekin ertaga kecha bo'laman (Bugun).

Ushbu topishmoqni tarjima qilish jarayonida shuning guvohi bo'lishimiz mumkinki, bu xiazmatik kontuksiyada ma'no, shakl va xiazmatik konstuksiya o'z o'rnini yo'qotmagan.

Qu'est-ce que des enfants peuvent donner à leurs parents que leurs parents ne peuvent pas se procurer eux-mêmes? Des petits-enfants.

Oltin kelganda, kumush ketar,

Kumush kelganda, oltin ketar.

(Quyosh, Oy)

Teg desam, tegmaydi,

Tegma desam, tegadi.

(Lab)

Osh ichida tosh,

Tosh ichida osh.

(O'rik)

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, xiazm hodisasini o‘zbek va fransuz topishmoqlarida ham uchratish mumkin. Go‘yo bu xiazmatik konstruksiyalar fransuz va o‘zbek folklor matnlarining ekspressivligi va stilistik bo‘yoqdorligini kuchaytirib, so‘zlovchining nutqiga xos bo‘lgan umumiy texnikasining bir qismida, hattoki xiazm misollariga duch kelganda oddiy o‘quvchining estetik qoniqishi, shuningdek, matn yoki she‘riy asarning jozibadorligini, ohangdorligini oshirishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

1. Xiazm qismlari qurilishi bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi: birinchi qismda so'zlar bir yo'nalishda, ikkinchisida ular teskari tartibda joylashgan, shuning uchun bir vaqtning o'zida xiazm qismlarining semantik qarama-qarshiligi ham seziladi. Bu kabi kontsruksiyalar, asosan, hikmatli so'zlar, frazeologik birliklar, nasr, aksariyat hollarda nazmda uchraydi.

2. Xiazmatik konstruksiya bir qancha sintaktik strukturalarning o'zaro ta'siri va qo'shilish mahsuli bo'lib, bunga quyidagilar kiradi: sintaktik parallelizm, takrorning ekspressiv konstruksiyalari, antiteza, zid qo'yish yoki inversiya. Chog'ishtirilayotgan tillarda ushbu stilistik figuralar uslubiy-vazifaviy jihatdan xiazm singari qo'shma gaplar orqali ifodalangan hamda turli sintaktik birliklardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular orasida umumiy va xususiy jihatlar borligi aniqlandi.

3. Xiazm rasmiy "*repertuari*"ning variantlarga boy ekanligi, ularni chuqur o'rganish maqsadida fransuzcha jumlaning ketma-ket tuzilishidagi ishlash mexanizmlarini bilishni istagan har bir kishi uchun zarurat bo'lib tuyuladi. Sintaktik vazifalar almashinuvida xiazm hosil qiladigan sintaktik munosabatlar yoki morfologik shakl o'zgarishi bilan murakkablashtiriladigan elementlar hisoblanadi.

4. Xiazmatik munosabatlar ikki alohida gap bo'laklari orasida yuz bergani kabi bir qancha butun gaplar orasida ham voqelanadi: a) sintagmatik xiazmlar (ikki qutbli sintagma tarkibiy qismlarining kesishishi); b) leksikologik xiazmlar (sanoqlangan leksemalar qatori); d) iborali xiazmlar (gapning barcha bo'laklari xiazmda tuzilgan); e) birin-ketinlik xiazmi (ikki gap ikki xil ketma-ketlikni qabul qiladi: progressiya / inversiya yoki inversiya / progressiya.)

5. Xiazmning binar tuzilishiga ko'ra to'rt: implikatsiya, preferensiya, kontropozitsiya va ekvivalensiya mantiqiy-semiotik invariantlari mavjud. Bundan tashqari, uning murakkab shakllari ham borligi aniqlanib, ularga quyidagilar kiritildi: 1) uch a'zoli xiazm – unda uch element sintaktik vazifalar bilan almashadi; 2) zanjirli xiazm – bir satr chegarasida kamida ikkita mustaqil

xiazmlar tematik tarzda birlashadi; 3) ikkilamchi xiazm – bir konstruksiya, ya’ni $AB/CD//BA/DC$ formula asosida birlashtirilgan ikki parallel leksik juftliklardan iborat.

6. Xiazmatik konstruksiya sodir bo’ladigan leksik fon uning simmetrikligini kuchaytirishi mumkin: chap qismning konstitutiv bo’lmagan elementlari qanchalik ko’p o’ngda takrorlansa, shunchalik xiazmning arxitektonikasi yorqinroq chiqadi, butun konstruksiya simmetrikka aylanadi. Simmetrik xiazmatik sxemada turli tarkibiy va semantik o’zgarishlarni ko’rishimiz mumkin, ammo shunga qaramay, yaxlitlikni xiazm sifatida qabul qilamiz. Xiazmatik sxemadagi o’zgarishlar quyidagilarda ko’rinadi: a) xiazmning o’ng tomoniga qo’shimcha elementlar qo’shib, uni “aralashtirish”; b) konstruksiyaning bir qismini sintaktik sinonim bilan almashtirish; d) ba’zi elementlarning grammatik shaklini o’zgartirish orqali.

7. Chog’ishtirilayotgan tillarda xiazm hodisasiga oid semantik simmetriyaning quyidagi besh darajasi aniqlandi: 1) identifikatsiya – leksik takrorlash; 2) to’liq ekvivalentlik – olmoshlarni almashtirish; 3) to’liqsiz ekvivalentlik – sinonimik almashtiruv; 4) taxminiy o’xshatish – qisman takrorlash yoki biron bir tarkibiy qismni bir xil semantik maydonga tegishli so’z bilan almashtirish; 5) to’liq semantik noekvivalentlik – fonetik ekvivalentlik ko’magida qoplanadigan omonimik xiazm.

8. Xiazm tuzilishi shaffof, har qanday tizimdagi adabiy tillarga xos bo’lganligi bois uni boshqa tillarda ham shakl jihatdan bimalol farqlash imkoniyati bor, ya’ni xiazmni butunlay notanish tilda ham vizual tarzda aniqlash mumkin bo’lib, u nainki badiiy nutq, balki kitobiy nutqning barcha qat’iy ko’lam va chegarasida uchraydi. U so’zlashuv nutqida – birinchi galda, xalq og’zaki ijodi namunalari (maqollar, matallar, hazil-mutoyibalar)da qo’llanadi. Ularning ritmik jihati, ohangdorlik va jozibadorlikni ta’minlash, tinglovchi yoki kitobxon diqqatini jumlaning tegishli qismlari, tarkiblariga qaratish uchun xizmat qiluvchi noyob stilistik vosita vazifasini bajaradi.

9. O’zbek paremik birliklarining fransuz paremiyalariga hech qanday aloqasi yo’qdek tuyulsa-da, tahlillardan so’ng ba’zi farqli va

mushtarak jihatlari borligi aniqlandi. O'zbek maqollarining xususiyatlari, xuddi fransuz maqollarida bo'lgani kabi, ularning faqat bir tekislikda kesishmaydi, ya'ni parallelizm, binar struktura va qiyosiy tuzilish kabi shakllari mavjud. Shuningdek, har bir millatning o'zligi, mentaliteti, azaliy qadriyatlarini o'zida aks ettiradigan maqollar lingvokulturologik jihatdan chog'ishtirilganda tabiiy ravishda jiddiy tafovut kelib chiqdi.

10. O'zbek badiiy asarlari tili ohangdorligi va jarangdorligi jihatidan fransuz tili badiiy asarlaridan anchagina darajada farq qiladi. Buning asosiy sababi sintaksisning deyarli barcha stilistik vositalari, ayniqsa, tasvirga nisbatan muallif munosabatining eksplitsit ifodalanishiga mo'ljallangan konstruksiyalarning qo'llanilishidir. Fransuz badiiy matni esa, inson tafakkurini implitsit boshqarish yo'lini afzal ko'radi.

11. Tilshunoslikda xiazm hodisasini turli tizimli tillar misolida chog'ishtirib o'rganish barcha chet tillarini o'zbek auditoriyasida o'qitish jarayonida ahamiyatli hisoblanadi va badiiy matnlar tahlilida foydali manba vazifasini o'taydi. Shu boisdan ham biz barcha Sharq va G'arb tillarida mavjud stilistik vositalarni, shu jumladan, xiazm hodisasini ham qiyosiy-chog'ishtirma planda izchil o'rganishni kelajak uchun istiqbolli mavzu sifatida taklif qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha belgilab olgan vazifalarimizni izchil davom ettirishimiz lozim. – Toshkent: Yangi O'zbekiston, 2023-yil 21-oktabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: Xalq so'zi, 2018-yil 25-dekabr. № 258. (6952).
3. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063/>.
4. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 8-sentabrdagi "Strategik islohotlarni jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-216-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6188642/>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

5. Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент, 1979. – 176 с.
6. Abdouchoukourova L.A. Stylistique du français moderne. – Tachkent, 2004. – 159 p.
7. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 248 b.
8. Abdurahmonov H., Rafiyev A., Shodmonqulova D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 256 b.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek adabiy tilining stilistik normalari. O'zbek tili nutq madaniyatiga oid masalalar. – Toshkent, 1973. – 296 b.
10. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
11. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 353 б.

12. Ҳайитметов К. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позицион масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – 159 б.
13. Ҳожирахмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.
14. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 260 b.
15. Жамолхонов Х, Йулдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. Маърузалар матни. – Тошкент: ТДПУ, 2000. – 112 б.
16. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 153 b.
17. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma – Toshkent: Noshir, 2019. – 155 b.
18. Mamajonov A.B. Qo'shma gap stilistikasi. – Toshkent, 1990. – 280 b.
19. Mukarramov M. O'zbek tilining ilmiy stili. – Toshkent: Farg'ona, 1984. – 52 b.
20. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996. – 110 б.
21. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.
22. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent: Universitet, 1999. – 55 b.
23. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – Toshkent, 1988. – 99 b.
24. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 207 b.
25. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро, 1999. – 160 б.
26. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent, 1975. – 49 b.
27. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 166 б.
28. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2007, – 256 б.

29. Раҳимов С., Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 150 б.

30. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 300 б.

31. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2013. – 344 б.

32. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова, Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 391 б.

33. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning shakl-funksional talqini. – Toshkent: Fan, 1994. – 210 b.

34. Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Термиз: ТДУ, 2012. – 150 б.

35. Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: ЎзМУ, 2007. – 182 б.

36. G'ulomov A., Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M. O'zbek tili darsligi (9-sinf uchun). – Toshkent, 1977. – 527 b.

37. Shofqarov A.M. O'zbek tilida badiiy takror. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 170 b.

38. Shomaqsudov A. Rasulova I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 112 b.

39. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish: – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 256 b.

2) Xorijiy nashrlar

40. Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису. – М.: Наука, 1967. – 209 с.

41. Автухович Т.Е. Античная риторика. – Гродно: ГрГУ, 2003. – 144 с.

42. Bacry P. Les figures de style et autres procédés stylistiques. – Belin, 1992. – 335 p.

43. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1961. – 394 с.

44. Барлос Л.Г. Русский язык. Стилистика. – Москва, 1978. – 252 с.

45. Le Bidois R. Inversion du sujet dans la prose contemporaine. – Paris: D'Artrey, 1952. – 255 p.
46. Le Bidois G. et Le Bidois R. Syntaxes du français moderne. – Paris: D'Artrey, 1935. – 391 p.
47. Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. – Смоленск, 1984. – 223 с.
48. Buffard-Moret B. Introduction à la stylistique, – Paris: Nathan, 2001. – 128 p.
49. Данилевская Н.В. Принципы функционирования языка в его речевых разновидностях. – Пермь: Изд-во Перм. гос. ун-та, 1984. – 131 с.
50. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. – М., 1969. – 260 с.
51. Формановская Н.И. Сложное предложение: Семантико-стилистические аспекты. Изд. 3. – М., 1986. – 305 с.
52. Gaudin-Bordes Lucile. Salvan Geneviève. Etudier les figures en context: quels enjeux? Pratiques. – Paris, 2015. – 166 p.
53. Гак. В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков: Учеб. для студентов пед. ин-тов по спец. – М.: Просвещение, 1989. – 288 с.
54. Галкина-Федорук Е.М., Горшкова К.В., Шанский Н.М. Современный русский язык. 4,1 – М., 1962. – 126 с.
55. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1971. – 344 с.
56. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 1980. – 233 с.
57. Horvey, X. Chiasmus in Antiquity: Structures, Analyses, Exegesis. – Length, 1981. – 353 p.
58. Ильиш Б.А. Структура сложноподчиненного предложения в современном английском языке. Уч. зап. ЛГПИ им.А.И.Герцена, 1962. – 325 с.
59. Кодухов В.И. Введение в языкознание. – Москва: Просвещение, 1979. – 351 с.
60. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1977. – 152 с.

61. Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. – Воронеж, 1972. – 124 с.
62. Корольков В. И. Фигуры стилистические // Краткая литературная энциклопедия / Гл. ред. А. А. Сурков. – М.: Сов. энци., 1978. – 334 с.
63. Крылова О.А. Лингвистическая стилистика. Практикум. Кн.2, Изд. 2, испр. 2006. – 120 с.
64. Cressot M. James L., *Le Style et ses techniques*. – Paris: PUF, 1996. – 328 p.
65. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. – Л., 1960. – 175 с.
66. Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии. Анализ поэтического текста. – Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 1996. – 846 с.
67. Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст. – М.:1984. – 211 с.
68. Laurent N. *Initiation à la stylistique*. – Paris: Hachette, 2001. – 128 p.
69. Marouzeau J. *Précis de stylistique française*. – Paris: Masson, 1969. – 191 p.
70. Mitterrand H. *À la recherche du style, Poétique*. – Paris, 1992. – 252 p.
71. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – Астрель, АСТ, 2002. – 221 с.
72. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. Сложное синтаксическое целое. – М., 1973. – 288 с.
73. Турмачева Н.А. К вопросу о природе сложного синтаксического целого и абзаца. – В кн: Синтагматика, парадигматика и их взаимодействие на уровне синтаксиса. – Рига, 1970. – 91 с.
74. Уханов Г.П. Двусоставные конструкции с придаточным во второй части – Мысли о современном русском языке. – М.: Просвещение, 1969. – 117 с.
75. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 255 с.
76. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. – 320 с.

77. Шапиро М. Иерархия и структура тропов. Исследования по семиотике. – Блумингтон: Университет Индианы, 1976. – 70 с.

78. Щерба Л.В. Языковая и речевая деятельность. Изд. 2-е, стер. – М., 2004. – 350 с.

79. Якобсон Р.Я. Работы по поэтике: Переводы /Сост. и общ. ред. М.Гаспарова. – М.: Прогресс, 1987. – 351 с.

V. Lug'atlar

80. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 606 с.

81. Бабкин А. М., Шендецов В.В. Словарь иноязычных выражений и слов. К-З. Издание второе. переработанное и дополненное Ленинград, Наука, 1987. – 785 с.

82. Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2020. – 136 б.

83. Dubois J. Éléments de linguistique française. – Paris: Larousse, 1973. – 568 p.

84. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 375 с.

85. Москвин, В.П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры: Общая и частные классификации. Терминологический словарь. – М.: Эдиториал УРСС, 2006. – 376 с.

86. Larousse. Le Grand Larousse. – Paris, 1960. – 104 p.

87. Mario P. Glossary of linguistic terminology. Le Petit Robert, 1967. – 299 p.

88. Marouzeau J. Dictionnaire de la terminologie linguistique. 1951. – 265 p.

89. Merle P. Dictionnaire du français branché. – Paris, 1994. – 232 p.

90. Morier H. Dictionnaire de poétique et de rhétorique, 2e édition revue et augmentée. – Paris: Presses Universitaires de France, 1998. – 118 p.

91. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.

92. Rober P. Le Petit Robert. – Paris, 1967. – 858 p.

93. Розенталь Д.Э., Теленнова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Издательство Просвещение, 1985. – 399 с.

94. Словарь иностранных слов. – 18-е изд., стер. – М.: С48 Рус. яз., 1989. – 624 с.

95. Безвесельная Н.Т., Данченко Т.А. Новейший французско-русский, русско-французский словарь. – Киев: Арий, 2006. – 832 с.

96. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: УМЭ, 2002. – 158 б.

97. Ярцева. В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – 685 с.

VII. Badiiy adabiyotlar

98. Али М. Кўнгил найлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 236 б.

99. Balzac H. de. La Comédie Humaine, II, III, IV, V, Edition de la Pléiade 1951. – 1172 p.

100. Beauvoir S. de. La force des choses. – Paris: Gallimard, 1963. – 507 p.

101. Green J. Partir avant le jour. – Paris: Grasset, 1963. – 339 p.

102. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 448 б.

103. Kessel J. Les chevaliers. – Paris: Gallimard, 1967. – 180 p.

104. Cau J. Le spectre de l'umour. – Paris: Gallimard, 1968. – 123 p.

105. Conchon. L'apprenti gaucher. – Albin Michel, 1967. – 297 p.

106. Mandiargues, A. P. de: La Marge, Gallimard, 1967. – 248 p.

107. Mandiargues, A. P. de: Le Musée noir, 10 18, 1963. – 237 p.

108. Maupassant, G. de: Contes et nouvelles. Albin Michel, 1962. – 355 p.
109. Maurois, A.: Les roses de septembre, J'ai lu, 1964.
- Montherlant, H. de: Pasiphae, Ed. de la Pléiade, 1965. – 294 p.
110. Montherlant, H. de: La reine morte, Ed. de la Pléiade, 1965.. – 120 p.
111. Montherlant, H. de: La rose de sable, Gallimard, 1968. – 130 p.
112. Navoiy Gulshani: she'rlar/ to'plovchi S.Abdukarimov. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 168 b.
113. Неъмат Аминов. "Елвизак". – Тошкент, 1983. – 284 б.
114. Perec, G. Les choses, Julliard, 1965. – 133 p.
115. Peuchemaurd, 3.: La nuit allemande, Robert Laffont, 1967. – 115 p.
116. Саид Аҳмад. Ҳажвиялар. – Тошкент: Шарқ. 2000. – 278 б.
117. Сирожиддин С. Онамнинг кулчалари [Матн]: шеърлар – Тошкент: O'zbekiston NMIU, 2017. – 224 б.
118. Тафаккур дурдоналари. 111 ватандош алломаларимизнинг ҳикматли фикрлари (Ҳикматли фикрлар). – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – 384 б.
119. Tohir M. Odamiylik mulki. – Toshkent, 2022. – 952 b.
120. Ўзбек халқ мақоллари (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусокулов, Б.Саримсоқов; масъул муҳар.: Ш.Турдимов) – Т.: Шарқ, 2003. – 512 б.
121. Chevallier, G.: Les héritiers Euffe, Livre de poche, 1965. – 448 p.
122. Чўлпон. Кеча ва кундуз: Роман [Тўпловчилар: Н. Каримов, Ш. Турдиев; Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи О.Шарафиддинов; Таҳрир ҳайъати: Э. Воҳидов ва бошқ.]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1991, – 576 б.
123. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига ўгирувчи. Ф.Равшанов). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 544 б.
124. Юсуф М. Сайланма: шеърлар, дostonлар, хотиралар. – Тошкент: Sharq, 2017. – 288 б.

VIII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

125. Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 1998. – 130 б.

126. Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование. Автореф.канд. дисс. – М., 1964. – 95 с.

127. Винокур Т.Г. Закономерности стилистического использования языков единиц. Автореф.дисс. д-ра филол. наук. – М., 1980. – 55 с.

128. Головкина Н.Т. Повтор как стилистическое средство в различных видах и жанрах речи (на материале совр. немецкого языка): Автореф. дис...канд. филол. наук. – М., 1964. – 21 с.

129. Ҳайитметов К. Ҳозирги замон ўзбек тилида инверсия. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1967. – 46 б.

130. Мамажанов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка. Автореф. дисс...докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 59 с.

131. Мамажонов А., Периоды в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Т., 1975. – 28 с.

132. Мамазияев Х.О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол.фан.номз...дис. автореф. – Фарғона, 2004. – 44 б.

133. Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке. Автореф.дисс. канд. филол. наук. – Т., 1978. – 20 с.

134. Мирзаев И.К. Проблемы лингвистической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Т., 1992, – 43 с.

135. Рабчинская И.А. Синтаксический параллелизм как способ организации сложных конструкций. Автореф. канд. дисс... филол. наук. – Минск, 1976. – 146 с.

136. Сабирова Н.К. Инглиз ва ўзбек тилларидаги паронимларнинг семантик-стилистик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2023. – 20 с.

137. Собиров А.Қ. Шеърятда сўз тартиби. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2020. – 20 с.

138. Собирова Д.А. Инглиз ва ўзбек тилларида қўшма гаплар орқали ифодаланувчи стилистик воситаларнинг чоғиштирама тадқиқи (такрор, антитеза ва хиазм материали асосида) Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2023. – 25 с.

139. Соловьева В.С. Хиазм в творчестве А. Блока: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – М., 1982. – 24 с.

140. Усаров И.К. Проблемы общей стилистики сложных предложений (на материале асиндетона, полисиндетона, антитезы и хиазма) Автореф. дисс.канд.наук. – Ташкент, 2004. – 25 с.

141. Хашимов Г.С. Сложноподчиненные предложения с придаточными цели в разносистемных языках. Дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1981. – 325 с.

142. Шукуров Р.М. Параллел синтактик бутунликлар. Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 23 б.

143. Червакова Г.Н. Синтактический параллелизм в языке немецкого художественной публицистики. Автореф.дисс...канд филол.наук – М., 1977. – 28 с.

144. Якубяк М.В. Период как синтаксико-стилистическая категория французского языка (на материале ораторской прозы). Дисс...канд.филол.наук. – Киев, 1979. – 188 с.

IX. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

145. Amanov A.T. Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy meros sifatida o'rganish // Ilmiy axborotnoma, – Samarqand, 2016. №4. – Б. 215.

146. Mamajonov A. Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1978. №3. 60 b.

147. Мамажонов А. Қўшма гапларда антитеза. //Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: 1990. 6-сон, 27-30 б.

148. Норман Б.Ю. Хиазм в структуре славянской фразы: предпосылки, функции, следствия. // Slavistična revija. 49/2001, № 4. 90-99 с.

149. Потебня А.А. Мысль и язык. – Харьков, Типография Мирный труд, Девичья улица, № 14-й, 1913 [1862].

150. Сковородников А.П. Позиционно-лексический повтор как стилистическое явление / А.П. Сковородников // Филологические науки, 1984. – № 5. 71–76 с.

151. Сковородников А.П. Фигуры речи в современной российской прессе // Филологические науки, 2001. № 3. 74–82 с.

152. Shomaqsudov A. O'zbek tili va uning stilistik turlarining tarixiy ildizlari. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2002. №4. 27–29 б.

153. Shomaqsudov A. Rasulova I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasining aktual masalalari. //ToshDU ilmiy ishlar to'plami 711-son. Toshkent: 1983.

154. Хожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2007. №2. 42–46 б.

155. Hoshimov G. Qo'shma gaplarning yana bir tipik turi xususida // O'zbek masalasiga doir. // O'zbek tili stilistikasi masalalari. ToshDU ilmiy asarlari. 486-son, 1975. 1–10 б.

X. Internet saytlari

156. elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D17681535 [19.11.2023]

157. <https://abiturtest.uz/mavzular/badiiy-matnning-sintaktik-xususiyatlari/> [20.11.2023]

158. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D1%82%D0%B8%D0%BC%D0%B5%D1%82%D0%B0%D0%B1%D0%BE%D0%BB%D0%B0>

159. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tez_aytish

160. <https://www.lalanguefrancaise.com/articles/les-22-meilleurs-virelangues-exercice-elocution-francaise>
161. <https://citations.ouest-france.fr/citations-proverbe-francais-6937.html>
162. <http://evene.lefigaro.fr/citations/mot.php?mot=France&p=10>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. TILSHUNOSLIKDA XIAZM HODISASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tilshunoslikda xiazm va unga yondosh figuralar tavsifi	7
1.2. Jahon va fransuz tilshunosligida xiazm tadqiqi	20
1.3. O'zbek tilshunosligida xiazm hodisasining o'rganilishi	29

II BOB. O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZM HODISASINING STRUKTUR-SEMANTIK TARKIBI

2.1. O'zbek va fransuz tillarida xiazmning morfo-sintaktik tavsifi	51
2.2. O'zbek va fransuz tillaridagi xiazmlarda simmetriya va asimmetriya	63
2.3. O'zbek va fransuz tillari mikro va makro kontekstidagi xiazm	70
2.4. Xiazmning rasmiy darajalari va funksional turlari.....	76

III BOB. O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZMNING STILISTIK FUNKSIYALARI

3.1. Xiazm stilistik universalliya sifatida	86
3.2. Xiazm va komik vaziyat	98
3.3. O'zbek va fransuzcha paremik birliklarda xiazmning qo'llanilishi	105

XULOSA.....	114
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	117

Bekmuradova Zebiniso Erkinovna

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA XIAZMNING VOQELANISHI

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.

2809



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 18.11.2025.

“Cambria” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog'i 7,3. Shartli bosma taboq 7,6.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10